

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

AKAYEVA MARAPAT ABDUXALIKOVNA

IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

O'quv qo'llanma

Namangan-2019

Mazkur o‘quv qo‘llanma Namangan davlat universiteti Kengashining yig‘ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan. (2019 yil 1 may № 9 sonli bayonnomma)

Muallif: Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslar va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti, yu.f.n.-Akayeva Marapat Abduxalikovna

Mas’ul muharrir: Byudjetdan tashqari Pesiya jamg‘armasi Namangan shahar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari:
Temirov Rustamjon Sodiqjonovich

Taqrizchilar: Namangan viloyat “Namangan advokatlar xay’ati” advokatlar xay’ati Boshqaruvchisi advokat
Raxmonov Yakubjon Raxmonovich

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi katta o‘qituvchisi Chuboeva Ozodaxon

Mazkur o‘quv qo‘llanmada «Ijtimoiy ta’milot huquqi» fanini o‘zlashtirishda talabalarga asosiy e’tibor berilishi lozim bo‘lgan masalalar bo‘yicha tavsiyalar, shuningdek talabalarning bilimlarini mustahkamlash maqsadida nazorat savollari hamda testlar ham berilgan.

O‘quv qo‘llanmani yozishda O‘zbekiston Respublikasi Qonunlaridan. Prezident Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan Qarorlar va boshqa qonun osti normativ hujjatlaridan foydalanildi.

O‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ijtimoiy-gumanitar ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun «Ijtimoiy ta’milot huquqi» fanini mustaqil o‘rganishlarida yaqin ko‘makchi vazifasini o‘taydi.

Данное учебное пособие содержит рекомендации по вопросам, основным из которых должно быть уделено внимание при освоении предмета «Право социального обеспечения», а также контрольные вопросы и тесты с целью закрепления знаний студентов.

При написании учебного пособия было использовано законы Республики Узбекистан, указы Президента, постановления Кабинета Министров и другие подзаконные нормативные акты.

This manual contains recommendations on issues which should be paid attention while mastering the subject “Law of social security”, as well as quizzes and tests in order to consolidate students’ knowledge.

There were used the laws of the Republic of Uzbekistan, Decrees, Resolutions issued by the Cabinet of Ministers, and other statutory documents in the manual.

Ijtimoiy ta’milot huquqi –Namangan. 2019 - 196 saxifa.

KIRISH

Davlat ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘lida bugun, respublikamizda ulkan ishlar olib borilmoqda. O‘quv muassasalarining ta’lim sohasi va yo‘nalishlaridan kelib chiqib, o‘quv darsliklari bilan ta’minlash masalasi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy ta’minot huquqi fan sohasi sifatida fuqarolarni turli shakllarda ijtimoiy ta’minlash, ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishi bilan mashg‘ul bo‘lgan davlat organlari tizimi, ularning ishlash rejimi, aholini ijtimoiy ta’minlash masalalarini huquqiy tartibga solish jarayonining xususiyatlari, bu jarayonning rivojlanish tendensiyalari, muammolari, bu muammolarni hal etilish masalalari, ijtimoiy ta’minot va yordam shakllari, ularning yanada takomillashtirilishi, ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilish usullarini hayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish kabi nazariy masalalar hamda ularning amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan shug‘ullanadi.

Zero, ijtimoiy ta’minot huquqi alohida huquq sohasi, ilm-fan sohasi va o‘quv predmeti hisoblanadi. Huquq sohasi ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni tartibga solsa va mustahkamsa, ilm-fan esa uni o‘rganadi.

Ijtimoiy ta’minot deganda asosan davlat yo‘li bilan fuqarolarni ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash, davlat ijtimoiy ta’minot tizimlari nazarda tutiladi. Ammo bugungi kunda ijtimoiy ta’minotning boshqa ko‘rinishlari ham yuzaga kela boshladi. Xususan, O‘zbekistonda «Nuroniy», «Sog‘lom avlod uchun», «Mahalla», Bolalar va boshqa ijtimoiy jamg‘armalarning tashkil etilganligi; turli korxonalar, tashkilotlar, ayrim fuqarolar tomonidan xayr-ehson tarzida turli yordamlar, tadbirlar uyushtirilayotganligi nodavlat ijtimoiy ta’minot tizimlarini ham asta-sekin shakllantirib borilayotganligidan, aholining yordamga muhtoj, zaif qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishda ularning o‘rni, salmog‘i ortib borayotganligidan darak beradi.

Aminmizki, qo‘lingizdagи o‘quv-qo‘llanma Sizni ijtimoiy ta’minot huquqi sohasidagi bilimlaringizni boyitishda yaqin ko‘makdosh, yelkadosh bo‘ladi. Muallif ushbu o‘quv qo‘llanma xususida bildirilgan fikr va mulohazalar uchun oldindan chuqr minnatdorchilik bildiradi.

Mundarija

Kirish.....	3
1-mavzu:Ijtimoiy ta'minot huquqi fanining tushunchasi, tizimi, tamoyillari va manbalari. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar.....	5-50
2-mavzu:Ijtimoiy ta'minotning tashkiliy huquqiy shakllari. Jamg'arib boriladigan pensiyalar.....	51-68
3-mavzu:Mehnat staji va uzoq yillik xizmat davri.....	69-87
4-mavzu: Yoshga doir pensiyalar va nogironlik pensiyalari.....	88-117
5-mavzu: Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari.....	118-131
6-mavzu: Pensiyalarni tayinlash, xisoblash, qayta xisoblash va to'lash tartibi.....	132-159
7-mavzu:Nafaqalar va ularni tayinlash.....	160-204
8-mavzu: Xayr-exson va muruvvat yordami ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish manbai.....	205-239
Foydalanilgan adabiyotlar.....	240-242

1-mavzu: Ijtimoiy ta'minot huquqi fanining tushunchasi, tizimi, tamoyillari va manbalari. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar.

Reja:

1. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqi va uning amalga oshirilishi.
2. Ijtimoiy ta'minot huquqi o'quv kursi, uning predmet, vazifalari va uslubi.
3. Ijtimoiy ta'minot huquqi o'quv kursi va qonunchilik tarmog'ining tizimlari.
4. Ijtimoiy ta'minot huquqi kursining boshqa huquqiy va iqtisodiy fanlar bilan o'zaro munosabati.
5. Ijtimoiy ta'minot olish huquqiga oid tamoyillar va ularni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida aks etishi.
6. Ijtimoiy ta'minot huquqining manbalari tushunchasi va ularning tasnifi.
7. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari sanaluvchi qonunlar va boshqa qonun hujjatlariga tavsif.
- 8 Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari sanaluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni vaqt, fazo va shaxslar o'rtasida amal qilishi
9. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning umumiy tavsifi.
10. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlarining sub'ektlari.
Ijtimoiy ta'minot sohasida huquq layoqati va muomala layoqati.
11. Fuqarolar (oila) ijtimoiy ta'minot huquqi sub'ekti sifatida.

1.1. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olish huquqi va uning amalga oshirilishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining¹ 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega" deb e'lon qilingan. Ushbu konstitutsiyaviy huquq fuqarolarimizning eng muhim ijtimoiy va iqtisodiy huquqlaridan biri sifatida davlatimiz tomonidan har tomonlama kafolatlab qo'yilgan.

Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi davlat pensiya tizimini isloq qilish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu loyiha 2018 yil 28 aprelda umumxalq muhokamasiga qo'yildi. "Davlat pensiya tizimini islox qilish

konsepsiyasiga ko‘rsatilishicha² - 2018 yil 1 may holatiga O‘zbekiston Respublikasida 3,3 mln. nafardan ortiq pensiya va nafaqa oluvchilar mavjud bo‘lib, bu fuqarolardan 103,1 ming nafari (yoki 3,2 foizi) pensiyaga chiqqandan so‘ng ish faoliyatlarini davom ettirishmoqda. Ushbu tizim 3,3 milliondan ortiq fuqaroni qamragan. Bu mamlakat aholisining taxminan 10 foizi, demakdir. Bunda yoshga doir pensiya oluvchilar – 2 502,6 ming, nogironlik pensiyasi oluvchilar – 360,3 ming, boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya oluvchilar – 168,5 ming va ijtimoiy nafaqa oluvchilar – 294,1 ming nafarni tashkil etadi.

Demografik bashoratlarga ko‘ra, 2018-2025 yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 million kishiga) oshishi kutilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi. Ta’kidlash joizki, pensionerlar sonining ishlovchi aholiga nisbati 2009 yildagi 61 foizdan 2017 yilda 66 foizga o‘sgan. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo‘yicha yuklama tobora oshmoqda. Shunday qilib, 2016 yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasida pensiya tayinlash uchun yillik murojaatlar sonini ortib borishi (yillik o‘rtacha o‘sish – 16 ming nafar fuqaro) kuzatilmoqda va 2025 yilga borib 300 ming nafarga ortishi kutilmoqda. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaatlarning asosiy o‘sishi, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan (50-60-yillardagi “Bebi-bum”) davrda tug‘ilgan fuqarolarning umumiyligi belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog‘liqdir. Mamlakat aholisining qarib borishi ko‘rsatkichi Shuni ko‘rsatadiki, pensiya yoshidagi aholining soni o‘sish tendensiyasiga ega (2010 yildagi aholining umumiyligi soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018 yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9 foizdan ortadi va 2025 yilga borib 11 foizga yetadi (2011 yildagi 6,2 foizga nisbatan). Shu bilan birga, fuqarolar pensiya ta’mnoti tizimining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bu pensiya yoshi hisoblanadi. O‘tkazilgan

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси –Т.: Ўзбекистон, 2018.

² Молия вазирлиги хузуридаги Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси давлат пенсия тизимини ислоҳ қилиш концепцияси лойихаси ишлаб чиқилди. 2018 йил

tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyoda o‘rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun –58 yosh. Qozog‘istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga etkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo‘li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti birinchi marotaba Murojaatnomasi qildi va unda:-“Taraqqiyotimizning yangi bosqichi bo‘lgan 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Murojaatnomani e’tiboringizga havola etishga ruxsat bergaysiz.

Avvalo, yil davomida mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari safarbar etilganini ta’kidlash joiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar xalqimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu o‘zgarishlarning dastlabki natijalari aholimiz hayoti va kundalik turmushida o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda, el-yurtimizning ijtimoiy faolligi, ertangi kunga ishonchi o‘sib bormoqda. Biz ilg‘or xorijiy tajriba asosida aholining munosib hayot darjasini uchun zarur bo‘lgan daromadlarni aniqlash bo‘yicha “iste’mol savatchasi” tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash va uni amalda ta’minlash mexanizmlarini yaratishimiz lozim. Ayni vaqtda aholining real daromadlari, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish bo‘yicha ham amaliy choralar ko‘riladi.

Biz mamlakat hayotiga doir har bir qarorni xalqimiz bilan maslahatlashib, bevosita muloqot asosida qabul qilmoqdamiz. “**Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak**” degan g’oya bu borada faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda. Davlat xodimlari, avvalo, birinchi rahbarlar faqat kabinetda o’tirmasdan, joylarga borib, aholini bezovta qilayotgan eng dolzarb muammolarning amaliy yechimi bilan shug‘ullanmoqda. Shu ma’noda 2017 yil xalq bilan yaqindan muloqot qilish, uning dardu tashvishlari, hayotiy muammolarini samarali hal etish bo‘yicha yangi tizim yaratilgan yil bo‘ldi, deb aytishga to‘la haqlimiz³.- deya fikr bildirdi Mamlakatimiz Rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Ijtimoiy ta’midot va ijtimoiy himoya ko‘lami muntazam ortib borayotgan va shu maqsadlar uchun mablag‘lar ajratilishi ko‘payayotgan sharoitda bu mablag‘lardan tejab-tergab, o‘rinli foydalanish, bu sohada qonunbuzarlik va talontarojliklarga yo‘l qo‘ymaslik, ijtimoiyadolat va qonuniylikni ta’min etilishi fuqarolarimizning ijtimoiy ta’midotga bo‘lgan huquqlari kafolatlaridan sanaladi. Ijtimoiy ta’midot huquqi fan sohasi sifatida fuqarolarni turli shakllarda ijtimoiy ta’minalash, ijtimoiy ta’midotning amalga oshirilishi bilan mashg‘ul bo‘lgan davlat organlari tizimi, ularning ishlash rejimi, aholini ijtimoiy ta’minalash masalalarini huquqiy tartibga solish jarayonining xususiyatlari, bu jarayonning rivojlanish tendensiyalari, muammolari, bu muammolarni hal etilish masalalari, ijtimoiy ta’midot va yordam shakllari, ularning yanada takomillashtirilishi, ijtimoiy ta’midotning amalga oshirilish usullarini hayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish kabi nazariy masalalar hamda ularning amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan shug‘ullanadi.

Avvalo, «ijtimoiy ta’midot» va «ijtimoiy ta’midot huquqi» tushunchalarini to‘g‘ri anglab olinmog‘imiz lozim.

Ijtimoiy ta’midot deganda asosan davlat yo‘li bilan fuqarolarni ta’minalash va

³ Ўзбекистон Республиксининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 22 декабрь.

qo‘llab-quvvatlash, davlat ijtimoiy ta’minot tizimlari nazarda tutiladi. Ammo bugungi kunda ijtimoiy ta’minotning boshqa ko‘rinishlari ham yuzaga kela boshladi. **«Ijtimoiy ta’minot huquqi»** tushunchasiga kelsak, bu tushuncha **«ijtimoiy ta’minot»** tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning bir qirrasini, ya’ni ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishiga oid tashkiliy-huquqiy shakllarni, qonunchilik tizimini, ijtimoiy ta’minotni amalga oshiruvchi davlat, tegishli hollarda esa jamoat organlari tizimini o‘zida aks ettiradi.

1.2. Ijtimoiy ta’minot huquqi o‘quv kursi, uning predmet, vazifalari va uslubi.

Ijtimoiy ta’minotni amalga oshirilishi sohasida yuz beruvchi ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy ta’minot huquqi fanining predmeti sanaladi. Ammo buning uchun ushbu ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy ta’minot sohasidagi qonunchilik aklari bilan tartibga solinishi, ya’ni qonun hujjalarning «ta’sir doirasi»ga kirishi lozim. Shunday bo‘lsada, fuqarolarni pensiyalar, moddiy yordamlar bilan ta’minlash, ularga turli ijtimoiy natural yordamlar ko‘rsatish, ijtimoiy imtiyozlar berish paytida ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega shaxslar bilan bunday yordamni ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan davlat yoki boshqa jamoat organlari o‘rtasida vujudga keluvchi huquqiy munosabatlar; fuqarolar, korxona va tashkilotlar, ijtimoiy ta’minot organlari huquqiy maqomining belgilanishi, ijtimoiy ta’minot shakllarining amalga oshirilishi asoslari, shartlari, tartiblarining belgilanishi kabilar ijtimoiy ta’minot huquqi predmeti sanaladi. **Ijtimoiy ta’minot huquqi fani predmeti jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- 1). Fuqarolarni davlat ijtimoiy sug‘urtalash va shu asosda ularning mehnat faoliyatini ijtimoiy ta’minot olish huquqini beradigan mehnat stoji sifatida tan olish va hisobga olishga oid munosabatlar;

- 2). Fuqarolarni pensiyalar bilan ta'minlash va pensiya to'lash bilan bog'liq munosabatlar;
- 3). Fuqarolarni turli nafaqalar va moddiy yordamlar bilan ta'minlashga oid munosabatlar;
- 4). Fuqarolarga ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar;
- 5). Fuqarolarning ayrim toifalariga qo'shimcha ijtimoiy kafolat va imtiyozlar berishga oid munosabatlar;
- 6). Davlat byudjetidan tashqari Pensiya jamg'armasini shakllantirilishi yuzasidan korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik sub'ektlari bilan yuz beradigan huquqiy munosabatlar;
- 7). Nodavlat ijtimoiy himoyasini amalga oshirish chog'ida xomiylar va ijtimoiy yordamdan foydalanuvchilar o'rtaсидаги huquqiy munosabatlar;
- 8). Ijtimoy ta'minot huquqidan foydalanish sohasida yuz beruvchi nizolarga doir, moddiy va huquqiy javobgarlikka tortishga munosabatlar va boshqalar.

Ijtimoiy ta'minot huquqi o'z tabiatiga ko'ra ommaviy huquqiy fanlar oilasiga mansubdir va bu omil uning huquqiy tartibga solish usullarini belgilanishida muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy ta'minot davlat mablag'lari hisobdan va davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshirilishi tufayli bunday ta'minot berish shartlari va asoslari qonun hujjatlari bilan imperativ tarzda belgilangan bo'lib, ijtimoiy ta'minot oluvchi va uni berilishni ta'minlovchi organ kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi mumkin emas.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solinishi chog'ida qonun hujjatlariga binoan xususiy huquqiy usullarga yo'l qo'yilishi va bunda uning shartlari tomonlar kelishuviga ko'ra belgilanishi, o'zgartirilishi mumkin bo'ladi (masalan, korxona o'z hisobidan qo'shimcha ravishda pensiya bilan ta'minlash majburiyatini olishi, hodim esa buning evaziga korxonada muayyan muddati davomida uzlucksiz mehnat qilgan bo'lishi).

Xullas, **ijtimoiy ta'minot huquqi fani usullari** deganda bu sohadagi munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladigan maxsus huquqiy, iqtisodiy va boshqa vositalar majmui nazarda tutiladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi fan sohasi va qonunchilik tarmog'i sifatida o'ziga xos vazifalarni bajaradi.

Uning fan sohasi sifatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a). Ijtmoiy ta'minotga oid munosabatlarni o'rghanish, tahlil qilish va bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan sharoitda uni optimallashtirish yo'llari hamda vositalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy nazariy tavsiyalar ishlab chiqish;

b). Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyaga oid qonunchilikni xalqaro standartlar va ilg'or mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda takomillashtirish yuzasidan takliflarni ilgari surish, ijtimoiy ta'minot va ijtimoy himoya sohasidagi huquqiy islohotlar konsepsiyasini ilgari surish va ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

v). Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi davlat organlari ish faoliyatini, tarkibiy tuzilishini va samaradorligini yanada oshirishga oid nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

g). Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya sohasida mutaxassis kadrlar tayyorlash, ular malakasini oshirish;

d). Ijtimoiy ta'minot sohasida chet el tajribasini o'rghanish, umumlashtirish va ulardan foydalanishga doir takliflar berish va xokazolar.

Ijtimoy ta'minot qonunchilik tarmog'ining vazifalari fanning vazifalaridan farq qiladi. Jumladan, Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunning muqaddimasida qayd etilganidek: "Ushbu Qonun O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi".

Ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik tarmog'ining vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- 1). Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan huquqlarini belgilash;
- 2). Bu huquqlarni ro'yobga chiqarilish mexanizmlarini ko'zda tutish;
- 3). Ijtimoiy ta'minot olish huquqi shartlari va asoslari nimalardan iborat ekanini aniqlash;
- 4). Ijtimoiy ta'minot huquqidan foydalanish chog'ida kamsitishlarga va ijtimoiy adolatsizliklarning boshqa har qanday shakliga yo'l qo'ymaslik;
- 5). Ijtmoiy ta'minotni amalga oshirilishida qonuniylik tamoyili ustuvorligiga erishish;
- 6). Fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy ko'makka muxtoj shaxslar turmush darajasi yetarli darajada bo'lishiga erishish;
- 7). Ijtimioiy ta'minot va ijtimoiy himoyani amalga oshiruvchi davlat va nodavlat organlari ish faoliyati samaradorligiga va ular tomonidan fuqarolarning huquq va erkinliklari to'la ta'min etilishiga erishish va boshqalar.

1.3. Ijtimoiy ta'minot huquqi o'quv kursi va qonunchilik tarmog'ining tizimlari.

Ijtimoiy ta'minot huquqi fan sohasi sifatida muayyan izchillikda o'zaro bog'langan huquqiy tushuncha va institutlar tizimidan iboratdir.

Ijtimoiy ta'minot huquqi fanining huquq institutlari bir-biri bilan predmeti, maqsadi va vazifalar hamda boshqa jihatlariga ko'ra yaqin bo'lgan ijtimoiy munosabatlar guruhini tartibga soladi. Ijtimoiy ta'minot huquqi institutlari ushbu fanga oid ijtimoiy munosabatlarni tabaqlashgan xolda va ayni paytda yaxlit huquq soxasiga oid predmet sifatida tartibga solish imkonini beradi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi fani **umumi** va **maxsus** qismlarga bo'linishi mumkin.

Umumiy qismga ta'lluqli huquq institutlari umumiy tusdag'i tushunchalar, ijtimoiy ta'minotga oid har qanday huquqiy munosabatlarga tatbiq etiladigan huquqiy mexanizmlar, ilmiy kategoriyalardan tashkil topadi. Jumladan, fanning predmeti, uslublari, ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat tushunchasi, uning vujudga kelishiga oid tasavvurlar, ijtimoiy ta'minot huquqiy munosabat ob'ektlari va sub'ektlari, huquq va muomala layoqati, ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan davlat organlari, nodavlat tuzilmalarining statusi, ijtimoiy ta'minot munosabatlarida muddatlar va ayrim yuridik hatti - harakatlarni amalga oshirishning umumiy tartiblari kabi masalalar fanning umumiy qismini tashkil qiladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqining **maxsus qismida** ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyaning ayrim shakllari, ularni amalga oshirishning maxsus tartib-qoidalari bilan bog'liq tushunchalar o'rganiladi. Fanning umumiy va maxsus qismlari yaxlit bir butunning bo'laklaridan iboratdir.

Ijtimoiy ta'minot qonunchilik tarmog'i ham o'ziga xos tizimga ega bo'lib, umuman olganda fanning tizimi qonunchilik tizimiga mos keladi.

Ijtimoiy ta'minot qonunchiligi tizimini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyani amalga oshirishga doir umumiylar;
2. Ijtimoiy ta'minot organlari maqomini belgilovchi qonun hujjatlari;
3. Fuqarolarni davlat pensiyalari bilan ta'minlash;
4. Fuqarolarni nafaqalar va moddiy yordamlar bilan ta'minlash;
5. Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash;
6. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan natural ko'rinishdagi ijtimoiy yordamlar;
7. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan qo'shimcha kafolat va imtiyozlar;
8. Ijtimoiy ta'minot sohasidagi nizolarni hal etish, huquqlarni himoya qilishga doir qonun hujjatlari;

1.4. Ijtimoiy ta'minot huquqi kursining boshqa huquqiy va iqtisodiy fanlar bilan o'zaro munosabati

Ijtimoiy ta'minot huquqi fan sohasi sifatida boshqa bir qator huquqiy hamda iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning yutuqlaridan foydalanadi hamda umumiy tushunchalarga ega bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi, eng avvalo, **mehnat huquqi fani** bilan bog'liqdir. Ijtimoiy ta'minot huquqi fani ham mehnat huquqi fani foydalanadigan mehnat stoji, o'rtacha ish haqi miqdori, ishlab chiqarishda sog'liqqa zarar yetkazilishi, kasb kasalliklari kabi bir qator umumiy tushunchalardan foydalanadi. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi xodim mehnat faoliyati yuritgan davrda davlat ijtimoiy sug'urtasi fondiga badal to'langanligi bilan bog'langan.

Mehnat huquqi va ijtimoiy ta'minot huquqi umumiy normativ-huquqiy hujjatlar asosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Masalan, mehnat qonun hujjatlari ijtimoiy ta'minot munosabatlariga va ijtimoiy ta'minotga oid me'yoriy hujjatlar mehnat munosabatlariga nisbatan qo'llaniladigan hol tez-tez uchrab turadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 16-bobi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi" deb nomlanadi va unda ijtimoiy ta'minotning asosiy shakllari va bu huquqdan foydalanishning umumiy shartlari nazarda tutilgan (MKning 282-294-moddalari).

Shu bilan birga ushbu ikki huquq sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ham ega bo'lib, ularni alohida huquqiy fan ekanligini tavsiflaydi. Xususan, mehnat huquqining predmeti xodim va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat munosabatlari bo'lsa, ijtimoiy ta'minot huquqining predmeti odatda o'tgan davrda mehnat munosabatida bo'lган, zarur mehnat stajiga ega bo'lган fuqaro bilan davlat yoki jamoat ijtimoiy ta'minot organlari o'rtasidagi munosabat sanaladi. Mehnat huquqiy munosabatlari ixtiyoriylikka, tomonlar tengligiga asoslangan holda yuzaga kelsa, ijtimoiy ta'minot munosabatlari zarur yuridik tarkib mavjud bo'lганida ijtimoiy ta'minot organi xohishiga bog'liq bo'lмаган tarzda yuzaga kelaveradi ammo uning ishtirokchilari teng huquqli bo'lmaydi.

Ijtimoiy ta'minot xuquqi fuqarolik xuquqi bilan ko'pgina umumiy xususiyatlarga ega. Xususan, huquq va muomala layoqati, uning paydo bo'lishi, cheklanishi, muomalaga layoqatsiz deb topish, yetkazilgan zarar va uning qoplanishi, yuridik shaxs va uning maqomi masalalarida fuqarolik qonunchiligi tushunchalaridan hamda qoidalardan keng foydalanildi. Ayniqsa hozirgi paytda paydo bo'layotgan va keng tarqala boshlagan xayr-ehson qilish yo'li bilan ijtimoiy ta'minotda ishtirok etish masalalari fuqarolik qonunlari bilan tartibga solinadi. Turli yuridik va jismoniy shaxslar ko'rsatadigan insonparvarlik yordamlarining huquqiy asoslari fuqarolik qonunchiligi sanaladi. **Ijtimoiy ta'minot huquqi oila huquqi bilan yaqindan bog'liq** va ijtimoiy ta'minot huquqida keng qo'llaniladigan qarindosh-urug'lar, homiylik va vasiylik organlari, qaramog'ida bo'lganlik kabi qator yuridik tushunchalar oila qonunchiligi normalari bilan nazarda tutilgan. **Ijtimoiy ta'minot huquqi ma'muriy xuquq bilan o'zaro o'xshash**, chunki ijtimoiy ta'minot sohasini boshqarish va ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida ma'muriy huquqiy usullardan foydalaniladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi moliya huquqi bilan ham o'zaro bog'liq. Aholini ijtimoiy ta'minlash, nafaqa va kompensatsiyalar berishni tashkil qilish, monitoringini amalga oshirish, javobgarlik qo'llash sohasidagi vakolatlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi va uning joylardagi tarkibiy orgnalariga o'tkazilishi bilan Ijtimoiy ta'minot huquqining Ma'muriy va moliya huquqi sohalari bilan aloqadorligi yana ham kuchaytirildi.

1.5 Ijtimoiy ta'minot olish huquqiga oid tamoyillar va ularni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida aks etishi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi fanining tamoyillari - ya'ni uni amalga oshirilishiga oid g'oyalar, eng avvalo, umume'tirof etgan universal xalqaro huquqiy standartlar sanalmish BMTning "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", "Iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt"ga, boshqa yetakchi xalqaro huquqiy hujjalarga tayanadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2008 yil 1 maydag'i "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida" Farmonida⁴ qayd etib o'tilganidek: "Istiqlol yillarida mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 60 ta asosiy hujjatga qo'shildi, BMT tomonidan bu sohada qabul qilingan oltita asosiy xalqaro shartnama qatnashchisiga aylandi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik me'yorlarida o'z ifodasini topgan.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 25-moddasida har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zurur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishiga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'limgan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan bo'lib, unda ijtimoiy ta'minotning barcha asosiy tamoyillari o'z ifodasini topgandir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning asosidagi milliy qonunchilik tizimimizga mansub bo'lgan qonunlarda va boshqa qonun hujjalarda ham ijtimoiy ta'minot tamoyillari nazarda tutib qo'yilgan.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Палаталари Ахборотномаси. 2008., 5-сон, 253-модда.

Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishning eng yetakchi tamoyillari Respublikamizning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, mamlakatimizda bozor iqtisodiga asoslangan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlarida bayon etilgan.

Jumladan, «...demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash va kafolatlarning kuchli, ta'sirchan mexanizmi mavjud bo'lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan holda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishni ta'minlash mumkin»ligi haqida Respublikamizning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning g'oyalari⁵ mamlakatimizda ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishidagi tub tamoyilni tashkil qildi.

Ijtimoiy ta'minot huquqining tamoyillari umumhuquqiy tamoyillardan hamda turli shakllardagi ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishiga bevosita taalluqli bo'lgan o'ziga xos tamoyillardan iboratdir.

Ijtimoiy ta'minot huquqining **maxsus tamoyillari jumlasiga** quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Ijtimoiy ta'minotning umumiyligi va keng qamrovli tusga egaligi. Bunda fuqarolarni millati, jinsi, ijtimoiy mavqeい va boshqa farqlaridan qat'i nazar muayyan ko'rsatkichlar mavjud bo'lgani taqdirda teng asoslarda ijtimoiy ta'minot olishlari tushuniladi. Shuni qayd etish kifoyaki, bugungi kunda uch yarim millionga yaqin fuqarolar davlat pensiyalari bilan, yuz minglab oilalar hamda ehtiyojmand fuqarolar nafaqalar va boshqa moddiy yordamlar olmoqdalar, ana shu maqsadlar uchun davlat byudjetidan ulkan moliyaviy mablag'lar sarflanmoqda.

2). Ijtimoiy himoyaning manzilli va aniq yo'naltirilganligi hamda boqimandalikka yo'l qo'yilmasligi. Ijtimoiy himoya choralari o'zining salomatligi ahvoli, yoshi, oilaviy sharoiti yoki boshqa ob'ektiv sabablarga ko'ra o'zini-o'zi mustaqil ta'minlashga qodir bo'lman, davlat va jamiyat ko'magiga muxtoj bo'lgan va muxtoj deb topilgan fuqarolar va oilalargagina ko'rsatilishi mumkin.

3)Ijtimoiy ta'minot uchun ajratiladigan mablag'ning yetarli darajadaligi. Ya'ni: pensiyalar va miqdori belgilanish paytida turmush kechirish uchun zarur bo'lgan eng kam mablag' ko'rsatkichi, iste'mol dasturxoni tarkibiga kiruvchi eng zarur mahsulotlar va xizmatlar to'plami uchun zarur bo'lgan mablag'ning eng kam darjasasi e'tiborga olinishi ushbu tamoyil mohiyatini tashkil etadi. Pensiyalarning eng kam miqdorlari, va ularning eng kam miqdorlari qonun hujjalari bilan belgilab qo'yilishi hamda ushbu eng kam miqdordan kam bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi, ushbu eng kam miqdorlarni vaqtiga bilan qayta ko'rilib, indeksatsiya qilib turilishi orqali mazkur tamoyil ro'yobga chiqariladi.

Ijtimoiy ta'minotning yetarli darajada bo'lishi tamoyili BMTning 1966 yil 19 dekabrdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 11-moddasi, 1-bandida nazarda tutilgan: «Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishi o'zi va oilasi uchun yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy hamda turmush sharoiti to'xtovsiz yaxshilanib borishini o'z ichiga oladigan yetarli turmush darjasasi bo'lishi huquqini e'tirof etadi» degan bosh qoidaga asoslanadi.

4) Ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, korxona va tashkilotlar, jamoat birlashmalarining bevosita ishtirok etishlari tamoyili.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni barpo etilayotganligi, kuchli davlatchilikdan kuchli jamiyatga tomon rivojlanib borilayotganligi namoyon

bo‘lishi ko‘rinishlaridan biri - davlatga xos funksiyalar jamiyatga o‘tkaza borilayotganligida, avval davlat organlari bajarib kelgan vazifalar bosqichma-bosqich fuqarolar yig‘inlari, boshqa jamoat organlari zimmasiga yuklanayotganligida ko‘zga tashlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishida korxona va tashkilotlar, ularning mehnat jamoalari, turli nodavlat-nohukumat jamg‘armalari, xayriya tashkilotlari, tadbirkor fuqarolar va boshqa shaxslar ham ishtirok etib kelmoqdalar. Bu tendensianing tobora kuchayib borishi bashorat qilinmoqda. Binobarin ojizlarga rahm-shafqat qilish, yordam qo‘lini cho‘zish, sahovatpeshalik, bag‘rikenglik o‘zbek xalqining milliy xususiyati bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan bebaho an’analarimizdan, qadimiy qadriyatlarimizdan sanaladi.

Bozor islohotlarini izchil amalga oshirish, yirik davlat ijtimoiy dasturlari, jumladan, "Sog‘lom avlod", "Ona va bola", "Sihat-salomatlik yili", "Oila yili", "Ijtimoiy himoya yili", "Yoshlar yili" va boshqa dasturlarni hayotga tadbiq etish orqali mamlakatda insonning, avvalo, bolalar, ayollar, yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarini butun choralar bilan himoya qilish, ularning har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

5) Mamlakatimizda ijtimoiy ta’minot xilma-xil shakllarda amalga oshirilishi tamoyili. Ijtimoiy ta’minotga oid qonunchilik hujjatlarida ta’minot har xil shakllarda, xususan, pensiyalar, , bir martalik moddiy yordamlar, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, muayyan imtiyozlar va yengilliklar ko‘rinishida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Kelgusida ijtimoiy yordam ko‘rsatish shakllari yanada xilma-xillashuvi shaklan mukammallahib borishi kutilmoqda.

Ijtimoiy ta’minotning qaysi shaklda amalga oshirilishi masalasi aniq shart-sharoitlar hisobga olingani holda qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.

Ijtimoiy ta’minotning asosiy shakli pensiyalar va berishdan iborat ekanligi shubhasiz hamda ijtimoiy ta’minotning ushbu ikki shakli yetakchi mavqeini saqlab qolishi aniq, ammo pensiya va ham shaklan takomillashtirib borilishi tabiiy holdir.

**6) Ijtimoiy ta’minotni nodavlat, homiylar mablag‘lari
hisobidan amalga oshirilishining davlat tomonidan har tomonlama**

rag‘batlantirilishi va qo‘llab-quvvatlanishi tamoyili.

Odatda fuqarolar ijtimoiy ta’minot uchun oldindan badallar to‘lamaydilar (qonunda ko‘zda tutib qo‘yilgan hollardan, yakka tadbirkor va dehqon xo‘jaligi a’zosi bo‘lgan fuqarolardan tashqari) va ijtimoiy ta’minot byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Ammo kelgusida pensiya ta’minoti tizimlarida islohotlar qilinishi natijasida fuqarolarning shaxsiy mablag‘lari hisobiga parallel pensiya ta’minoti tizimlari ham vujudga keltirilishi mumkin. Jahonning ayrim rivojlangan mamlakatlarida ana shunday nodavlat ijtimoiy ta’minot tizimlarining mavjudligi va amal qilib turganligi, hozirda mustaqil bo‘lgan hamdo‘stlik davlatlarining ba’zilarida ham shunday nodavlat pensiya ta’minoti tizimlarini barpo etilayotganligi bizning mamlakatimizda ham kelgusida ana shunday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligini istisno etmaydi⁶.

7) Ijtimoiy ta’minotni amalga oshirilishi ustidan davlat va jamoat nazoratining o‘rnatilganligi tamoyili.

Ijtimoiy ta’minotga oid mablag‘larni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda to‘lanishi maqsadga muvofiq va to‘g‘ri sarflanishi, ijtimoiy ta’minotni amalga oshiruvchi davlat hamda jamoat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining qonuniyligi ustidan umumiy nazoratni O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunining 4-moddasiga muvofiq: «Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta’minalashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish» prokuratura organlari faoliyati yo‘nalishlaridan

⁶ Жумладан, кейинги йилларда нодавлат манбаларидан ижтимоий таъминлашга Қаратилган бир катор конунлар қабул қлигнанлиги кўрсатиб ўтилмоғи лозим. Масалан, “Фуқароларнинг жамғаріб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси 02.12.2004 йил 2 декабрдаги Конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2005 й. 1-сон, 6-модда; “Хомийлик тўғрисида” Ўзбекистон Республикасининг 02.05.2007 йил 2 майдаги Конуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 й. 5-сон, 218-модда

sanaladi⁷.

Prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari, usullari va vositalari yuqorida eslatilgan «Prokuratura to‘g‘risida»gi qonunda nazarda tutilgan.

1.6 Ijtimoiy ta’midot huquqining manbalari tushunchasi va ularning tasnifi

Huquq manbai deganda ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solinishida qo‘llaniladigan huquqiy shakllar nazarda tutiladi. Davlat huquq normalari vositasida ijtimoiy munosabatlar maromiga, unda ishtirok etayotgan shaxslar hulq-atvoriga ta’sir etadi, huquq normalarini qabul qilish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga o‘zlariga tegishli huquq va erkinliklardan foydalanish, bu huquqlarga uchinchi shaxslar tomonida tajovuz qilingani taqdirda esa ularni himoya qilish choralari va usullarni nazarda tutadi. Qonun davlat erkini qonun hujjatlari orqali moddiylashgan holda ifodalanish shaklidan iboratdir.

Ijtimoiy ta’midot huquqi ommaviy huquq sohasiga mansub bo‘lgani tufayli uning predmeti jumlasiga kiruvchi ijtimoiy munosabatlar asosan davlat qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Korxona va tashkilotlar tomonidan o‘z xodimlari va ularning oila a’zolariga korxona mablag‘lari hisobidan ijtimoiy-moddiy ko‘mak berish bilan bog‘liq munosabatlar ularning o‘zları tomonidan qabul qilingan shartnomaviy yo‘sindagi lokal me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinishi mumkin.

Nodavlat mablag‘lari hisobidan homiyalar va boshqa savob talab fuqarolar tomonidan ijtimoiy himoya aktlarini amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va uning asosidagi boshqa qonun hujjatlariga binoan (shartnomalar tuzish va ularni ijro qilish) tartbga solinishi mumkin.

Ijtimoiy ta’midot davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan amalga oshirilganida barcha uchun majburiy tusdagi qonun hujjatlariga ko‘ra tartibga solinadi. Huquq manbai sifatidagi, shu jumladan, ijtimoiy ta’midot huquqi manbai sifatida qonun hujjatlarining xususiyatlari, ularga qo‘yiladigan talablar va boshqa

⁷ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Конун кужжатлари тўплами. 2001 йил, №20, 139-модда.

ko‘pgina masalalar O‘zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida"gi Qonunida mustahkamlab qo‘yilgan⁸.

Ushbu qonunga ko‘ra huquqning manbai deb belgilangan shaklda qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatga aytildi.

Ijtimoiy ta’minot huquqi manbalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- b) O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
- v) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи palatalarining qarorlari;
- g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- e) vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining hujjatlari;
- j) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega va O‘zbekiston Respublikasining butun hududida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasida qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinadi hamda uning normalari va prinsiplariga zid kelishi mumkin emas.

Normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e’lon qilinishi kerak. Hammaning e’tibori uchun rasman e’lon qilinmagan qonun asosida hech kim sudlanishi, jazoga tortilishi yoki mol-mulkidan mahrum qilinishi mumkin emas.

Normativ-huquqiy hujjat rasman bayon tarzida e’lon qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Normativ-huquqiy hujjat rasman e’lon qilinganda uning barcha rekvizitlari ko‘rsatiladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy nashrlarda e’lon qilishga, shuningdek ularni qonun hujjatlarining elektron ma’lumot tizimlari orqali tarqatishga bu

⁸ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2001 й. 1-2-сон, 8-модда

hujjatlar rasmiy manbalarda e’lon qilinganidan so‘ng hamda barcha rekvizitlari, e’lon qilingan rasmiy manbalari va kuchga kirish sanasini ko‘rsatish sharti bilan ruxsat etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, agar hujjatlarning o‘zida boshqa muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, rasman e’lon qilinganidan so‘ng o‘n kundan keyin kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari tegishlicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilangan tartibda kuchga kiradi va ular e’lon qilinishi shart.

Normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto‘g‘ri yoki mantiqqa zid tarzda qo‘llanilgan hollarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq qonunlarning normalariga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sharh beradi.

Qonun osti hujjatlariga ularni qabul qilgan organlar rasmiy sharh beradi.

Sharhlash jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarga tuzatishlar, qo‘srimchalar va aniqlashtiruvchi normalar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

1.7. Ijtimoiy ta’milot huquqi manbalari sanaluvchi qonunlar va boshqa qonun hujjatlariga tavsif.

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning ijtimoiy - iqtisodiy statusini belgilovchi, asosiy ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy huquqlarni o‘zida mustahkamlovchi va ularning amalga oshirilish kafolatlarini nazarda tutuvchi oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjat sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasi ijtimoiy ta’milot olish huquqi va uning kafolatlarini bevosita belgilaydi . Konstitutsianing boshqa ko‘pgina moddalari fuqarolar erkinliklari , shaxs daxlsizligi, fuqaroning uzviy huquqlaridan sanalmish shaxsiy va daxlsiz huquqlariga oid normalarni nazarda

tutadi va ular ham ijtimoiy ta'minot huquqlarini amalga oshirilishida muhim o'rinni tutadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart".

Konstitutsiyaning 43-moddasiga binoan esa "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik tizimi shakllanishi va rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yuridik zamin bo'lib xizmat qiladi.

1. Ijtimoiy ta'minotga oid qonunlar. Fuqarolarni ijtimoiy ta'minotini amalga oshirish va ularni ijtimoiy himoyalash qonunlar asosida amalga oshiriladi. Qonun oliv yuridik kuchga ega va vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilingan yuridik hujjat sifatida huquqlar va ularning kafolatlarini nazarda tutadi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligi tamoyiliga amal qilinadi va shu tufayli hech bir qonunosti hujjati qonunlarga zid bo'lishi mumkin emas.

Fuqarolar ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi sohasida quyidagi **Qonunlar** amal qiladi:

a). **O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi⁹. Kodeksning 16 bobi** davlat ijtimoiy sug'urtasi va ushbu manbadan ijtimoiy ta'minlashning asosiyligi qoidalarni nazarda tutadi. (1 paragrafi - Umumiyligi qoidalari (282-284-moddalar); ikkinchi paragrafi Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha beriladigan (285-288-moddalar); uchinchi paragrafi pensiya ta'minoti (289-294-moddalar) deb nomlanadi.

b). **"Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni¹⁰.** Mazkur qonun O'zbekiston Respublikasi

⁹ Ўзбекистон Республикасининг Мехнат Кодекси.-Т.: 2014. 1995 йил 21 декабрда қабул қилинган ва 1996 йил 1 апрелдан кучга кирган. 2-кисм, 16 боб, 294-моддадан иборат.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси 1993 й. 9-сон, 338-модда

Oliy Kengashi tomonidan 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan va 1994 yil 1 iyuldan boshlab amalga kiritilgan. Tarkibiy tuzilishiga ko‘ra u:

Muqaddima,

I Bob. Umumiy qoidalar (1-6 moddalar)

II Bob. Yoshga doir pensiyalar (7-14 moddalar)

III Bob. Nogironlik pensiyalari (15-18 moddalar)

IV Bob. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari (19-24 moddalar)

V Bob. Pensiyalarni va ish haqini hisoblab
chiqish tartibi (25-36 moddalar)

VI Bob. Ish stajini hisoblab chiqarish (37-42 moddalar)

VII Bob. Pensiyalar tayinlash (43-48 moddalar)

VIII Bob. Pensiyalarni qayta hisoblash (49-51 moddalar)

IX Bob. Pensiyalar to‘lash (52-67 moddalar) qismlardan iborat.

Davlat pensiya ta’mnoti sohasidagi asosiy qonun sifatida "Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida"gi qonun bu sohadagi barcha asosiy normalarni belgilab beradi. Bu Qonunga O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 16.oktabr 2018 yilda № O‘RQ-500 sonli “ Aholining ijtimoiy jihatdan homoya qilinishini ta’minalash va uy-joy communal xizmatlar ko‘rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuning **1-modda**. O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan "**Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida**"gi 938-XII-tonli Qonunining 65-moddasiga quyidagi qo‘sishimcha va o‘zgartish kiritilsin: quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to‘ldirilsin:

"Pensioner O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limining pensiyadan ortiqcha to‘langan summalarни ushlab qolish to‘g‘risidagi qaroridan norozi bo‘lgan taqdirda, aniqlangan qarzdorlik sud tartibida, biroq uning aniqlanish sanasidan uch yildan ko‘p bo‘limgan davr uchun undiriladi";

ikkinchi - beshinchi qismlari tegishinchada uchinchi - oltinchi qismlar deb hisoblansin¹¹, - deb qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan.

v). O'zbekiston Respublikasining "**Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni**¹². Mazkur qonun 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan va 2005 yil 1 yanvardan amalga joriy qilingan. Qonunning vazifasi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, Shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

Ushbu qonun o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagicha:

I. Umumiy qoidalar (1-5-moddalar)

II. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish (6-15-moddalar)

III. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish tartibi (16-23-moddalar)

IV. Yakunlovchi qoidalar (24-27-moddalar).

g)."O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun. (Yangi tahriri). Mazkur Qonunning yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2008 yil 11 iyulda qabul qilingan.

Qonun o'z tuzilishiga ko'ra quyidagichadir:

1-bob. Umumiy qoidalar (1-8-moddalar)

2-bob. Nogironlarning ijtimoiy infratuzilma

ob'ektlariga to'sqiniksiz kirishi, transportdan,

aloqa va axborot vositalaridan to'sqiniksiz

foydalaniши учун шароитлар юратиш (9-11-moddalar)

Z-bob. Nogironlarni rehabilitatsiya qilish (12-14-moddalar)

4-bob. Nogironlarning ta'limi va ularni

kasbga tayyorlash (15-22-moddalar)

¹¹ Конун хужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz), 2018 йил 17 октябрь "Халқ сўзи", 2018 йил 17 октябрь

¹² "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2004 йил, 51-сон, 512-модда

5-bob. Nogironlar mehnati (23-25-moddalar)

b-bob. Nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish (26-31-moddalar)

7-bob. Nogironlarning jamoat birlashmalari (32-34-moddalar)

8-bob. Yakunlovchi qoidalar (35-36-moddalar).

Ushbu qonunda nogironlarni ijtimoiy ta'minlash va ularga ijtimoiy hizmatlar ko'rsatish yuzasidan kafolatlar nazarda tutilgan.

Mazkur qonunning 5-moddasiga ko'ra: "Davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida ularning ijtimoiy yordam hamda himoya chora-tadbirlariga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta'minlanishini, nogironlarni rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlaridagi dasturlar amalga oshirilishini, nogironlarning jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini, nogironlarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilishni ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rinishini kafolatlaydi"

D). O'zbekiston Respublikasiing "**Homiylit to'g'risida**"gi qonuni. Bu qonun 2007 yil 2 mayda qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat¹³.

Homiylit quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, Shu jumladan, aholining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinmagan va kam ta'minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash, o'z jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish;

xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish;

oilaning jamiyatdagi nufuzi va rolini mustahkamlashga ko'maklashish;

onalik, bolalik va otalikni himoya qilishga ko'maklashish;

ta'lim, fan, madaniyat, san'at, ma'rifat sohasidagi faoliyatga, shuningdek

¹³ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 й. 5-сон, 218-модда

shaxsning ma’naviy kamol topishiga ko‘maklashish;

kasalliklar profilaktikasi va fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatga, shuningdek sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga ko‘maklashish, fuqarolarga ma’naviy-ruhiy yordam ko‘rsatish;

jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko‘maklashish;

aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;

terrrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish;

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish.

Qonun hujjatlariga muvofiq homiylik boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat tashkilotlariga, siyosiy partiyalarga va harakatlarga pul mablag‘lari hamda boshqa moddiy mablag‘lar berish, o‘zga shaklda yordam ko‘rsatish, Shuningdek ularni qo‘llab-quvvatlash homiylik hisoblanmaydi.

Saylovoldi tashviqoti va referendumga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha tashviqot maqsadida homiylik qilish taqiqlanadi.

Qonunga zid bo‘lgan har qanday faoliyatni homiylik vositasida qo‘llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Homiylilik quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish, Shu jumladan, aholining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinmagan va kam ta’minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash, o‘z jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish;

xalqlar o‘rtasida tinchlik, do‘stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko‘maklashish;

oilaning jamiyatdagi nufuzi va rolini mustahkamlashga ko‘maklashish;

onalik, bolalik va otalikni himoya qilishga ko‘maklashish;

ta’lim, fan, madaniyat, san’at, ma’rifat sohasidagi faoliyatga, Shuningdek shaxsning ma’naviy kamol topishiga ko‘maklashish;

kasalliklar profilaktikasi va fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash sohasidagi faoliyatga, shuningdek sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga ko‘maklashish, fuqarolarga ma’naviy-ruhiy yordam ko‘rsatish;

jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko‘maklashish;

aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarining oldini olishga tayyorlash;

terorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish;

atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;

madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish.

Qonun hujjatlariga muvofiq homiylik boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat tashkilotlariga, siyosiy partiyalarga va harakatlarga pul mablag‘lari hamda boshqa moddiy mablag‘lar berish, o‘zga shaklda yordam ko‘rsatish, Shuningdek ularni qo‘llab-quvvatlash homiylik hisoblanmaydi.

Saylovoldi tashviqoti va referendumga qo‘yilgan masalalar bo‘yicha tashviqot maqsadida homiylik qilish taqiqlanadi.

Qonunga zid bo‘lgan har qanday faoliyatni homiylik vositasida qo‘llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Mazkur qonun tuzilishiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishga ega:

1-bob. Umumiy qoidalar (1-5-moddalar)

2-bob. Homiylik tashkilotlari (6-12-moddalar)

Z-bob. Homiylikning amalga oshirilishida davlatning

ishtirok etishi. Xalqaro homiylik faoliyati (13-18-moddalar)

4-bob. Yakunlovchi qoidalar (19-23-moddalar)

e). **"Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida"gi** O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 16 apreldagi

qonuni¹⁴.

Ushbu Qonunning maqsadi ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur qonunga ko‘ra hodim o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishi munosabati bilan uning hayoti yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash bo‘yicha ish beruvchi o‘z fuqarolik javobgarligini sug‘urtalashi shart.

Qonunning tarkibiy tuzilishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1-bob. Umumiy qoidalar (1-4-moddalar)

2-bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishni amalga oshirish shartlari va tartibi (5-11-moddalar)

3-bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urta tovonini to‘lash (12-16-moddalar)

4-bob. Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish sub’ektlarining huquq va majburiyatları (17-20-moddalar)

5-bob. Sug‘urtalovchi va annuitetlar shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalovchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari (21-23-moddalar)

b-bob. Yakunlovchi qoidalar (24-27-moddalar).

Yuqorida qayd etilgan qonunlardan tashqari yana bir qator qonunlar ham ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy himoya maslalariga taalluqlidir. (Masalan, "Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida"gi, "Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida"gi, "Sil kasalligidan muxofaza qilish to‘g‘risida"gi va boshqa qonunlar.

3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat ijtimoiy siyosati ro‘yobga chiqarilishini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot sur’atlari va islohotlarimiz dinamikasiga muvofiq bu sohadagi muhim yangilanish va o‘zgarishlarni o‘z farmon va qarorlari orqali ro‘yobga chiqaradi. Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunning 10-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2009 й. 4-сон, 137-модда

Respublikasining Prezidenti O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy himoya sohasida O‘zbekiston Respublikasi Farmon va qarorlari yetakchi o‘rin tutadi va tub burilishlar amalga oshirilayotganligini anglatadi. Bunday Farmon va qarorlar jumlasiga quyidagilar kiritilishi mumkin: 2009 yil 30 dekabrdagi PF-4161-sonli "Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi¹⁵ Farmon; 2007 yil 23 yanvardagi PQ-573-sonli "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturi to‘g‘risida"gi farmoni¹⁶; 2017 yil 28 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat faoliyatini olib borayotgan pensionerlarning alohida toifalariga qulay sharoitlar yaratishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5291 sonli Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi, 2019 yil 1 yanvardan "Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5597-sonli Farmoni va boshqalar.

4). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

"O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi Qonuniga muvofiq¹⁷ Vazirlar Mahkamasi - O‘zbekiston Respublikasining Hukumati -O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari doirasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalanishga bo‘lgan huquqlarini ta’minalash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radi, ijtimoiy ta’minot tizimini takomillashtiradi.

¹⁵ "Халқ сўзи", 2009 йил 31 декабрь

¹⁶ "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2007 йил, 4-6-сон, 39-модда.

¹⁷ // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2003 й. 9-10-сон, 138-модда

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdar shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Axolini ijtimoiy ta’minoti va ijtimoiy himoyalash sohasida Vazirlar Mahkamasi qonunlarni ijro etish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi ""Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasining qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 249-sonli qarori¹⁸ bilan davlat pensiyalarini tayinlash va hisoblashga doir normativ huquqiy hujjatlar majmuyi tasdiqlandi (qarorning 15 ta ilovalari). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 8 maydagi 95-sonli "O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2007 yil 6 apreldagi PQ-616-sod qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori¹⁹; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentabrdagi "Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 252-sonli Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 fevraldagagi "Chet elda ishlayotgan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lash tartibini Shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish xaqi miqdorini hisobga olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 46-sonli Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорлари тўплами. 1994., 5-сон 27-модда.

¹⁹ "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2007 йил, 19-20-сон, 195-модда.

Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida”. 2018 yil 25 sentabr 766-sonli Qarori.

5). Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ huquqiy hujjatlari. Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasiga ko‘ra: "Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar va qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari bir necha vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari bilan bирgalikda yoki ularning bittasi tomonidan boshqalari bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin".

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida ularni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga taqdim etadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari, agar hujjatning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan so‘ng o‘n kundan keyin kuchga kiradi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘n kunlik muddat ichida barcha manfaatdor shaxslar e’tiboriga yetkazilishi lozim.

Aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta’minot sohasida qonunlarni ijro etilishi idoraviy me’yoriy hujjatlar vositasida ta’min etiladi. Ijtimoiy ta’minotga oid idoraviy normativ huquqiy hujjatlar turli vazirlik va idoralar tomonidan qabul

qilinishi mumkin. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi yetakchi o‘rinda turadi.

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minotga oid qonunlar ijrosini ta’minlashga qaratilgan ko‘plab idoraviy me’yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vzirligi tomonidan 20.05.2003 yil 20 mayda 1136-1-son bilan ro‘yxatga olingan "Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom"²⁰; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007 yil 3 sentabrda 1710-son bilan ro‘yxatga olingan "Pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari hamda pensionerlar yig‘ma jildini rasmiylashtirish va yuritish tartibi haqidagi yo‘riqnomani"²¹; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 20 iyulda 198-1-son bilan ro‘yxatga olingan "Ishlovchi pensionerlarga pensiya to‘lash to‘g‘risidagi Tartibga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida"gi qaror²² ; "O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida"gi O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirining 2015 yil 30 yanvardagi 6-sonli buyrug‘i; O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2017 yil 7-martdagi buyrug‘i va boshqalar.

6). Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 104-moddasiga ko‘ra Hokim o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida tegishli hududdagi barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar, Shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi.

Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunning 13-moddasiga muvofiq "Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

²⁰"Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2007 йил, 31-32-сон, 326-модда.

²¹ "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2007 йил, 35-36-сон, 368-модда.

²² "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2005 йил, 28-29-сон, 218-модда.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, Shuningdek yuqori turuvchi mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida va ularni ijro etish uchun qabul qilinadi"

O‘zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi qonuni 6-moddasiga ko‘ra: "Xalq deputatlari Kengashi va hokim o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan hujjatlar viloyat, tuman, shahar hududida joylashgan barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir"²³.

7). Xalqaro huquqiy hujjatlar ijtimoiy ta’midot huquqining manbai sifatida. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan halqaro huquqiy hujjatlar milliy qonunchilik tizimiga implementatsiya qilinishi orqali ham, uni bevosita ham qo‘llanilishi mumkin va Shu sababli ular ijtimoiy ta’midot huquqining manbai sanalishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasida ko‘rsatib qo‘yilganidek: xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligi so‘zsiz e’tirof qilinadi va milliy qonunchilik normasi bilan O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro huquqiy xujjat o‘rtasida raqobat paydo bo‘lganida xalqaro huquqiy hujjatga ustuvorlik beriladi.

Ijtimoiy ta’midot huquqi manbai sifatida xalqaro huquqiy hujjatlar haqida so‘z borganda eng avvalo Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari standartlari sanaluvchi va O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi", "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar haqidagi xalqaro Pakti, Fuqarolik va siyosiy huquqlar haqidagi Xalqaro Pakt va uning fakultativ protokollari, va boshqalar nazarda tutiladi. Bunday xalqaro huquqiy hujjatlar orasida Xalqaro mehnat tashkiloti Konvensiyalari, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida qabul qilingan Bitim va kelishuvlar nazarda tutiladi.

Korxona va tashkilotlar tomonidan o‘z xodimlari va ularning oila a’zolarini

²³ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Ахборотномаси 1993 й. 9-сон, 320-модда

ijtimoiy himoyalash va qo'shimcha ijtimoiy ta'minlash maqsadida qabul qilingan va jamoa shartnomasi va boshqa lokal me'yoriy hujjatlarda mustahkamlangan normalar ham ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari sifatida qaralishi mumkin.

1.8 Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari sanaluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni vaqt, fazo va shaxslar o'rtasida amal qilishi

Qonun hujjatlarining vaqt, xudud va shaxslar o'rtasida amal qilishiga doir qoidalar yuqorida qayd etib o'tilgan "Normativ huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar vaqt, hudud (fazo) va shaxslar orasida qo'llaniladi hamda ushbu muhitlarda amal qilish xususiyatlarini to'g'ri tuShunib yetish ularning to'g'ri tatbiq etilishi, qonunchilikning mustahkamlanishi, xatolar oldining olinishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi qonun hujjatlari vaqt doirasida kuchga kirgan paytidan boshlab bekor qilinguniga qadar yoki uning o'rniga boshqa normativ-huquqiy hujjat qabul qilinguniga qadar amalda bo'ladi. Ularning vaqt doirasida amalda bo'lishi, kuchga kirish vaqtি, bekor qilinishi yoki amal qilishining tugatilishi masalalari O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunida (26-modda) belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy ta'minotga oid normativ-huquqiy hujjatlar odatda O'zbekistonning butun hududida amal qiladi. Ammo uning bevosita o'zida yoki normativ-huquqiy hujjatni amalga kiritish to'g'risidagi qarorda uning hudud bo'yicha ta'siri cheklanishi mumkin (masalan, rayon koeffitsienti qo'shib berish haqidagi aktlar faqat tegishli hududlarda qo'llanishi va hokazo).

Ijtimoiy ta'minot munosabatlariga taalluqli bo'lgan qonun hujjatlari shaxslar o'rtasida amal qiladi va bunda ular odatda barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga ega bo'ladi.

«Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi qonunning 29-moddasida:

«Normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, shuningdek, O'zbekiston

Respublikasi hududidagi xorijiy yuridik shaxslarga, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmasan shaxslarga tadbiq etiladi», deyiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning o‘zida u qo‘llaniladigan shaxslar doirasi cheklab qo‘yilishi mumkin. Masalan, «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan pensiya olish huquqi faqat jismoniy shaxslargagina taalluqli, yoki bo‘lmasa, pensiya jamg‘armasiga ish haqi fondidan badallar to‘lash majburiyati faqat yuridik shaxslargagina qo‘llaniladi va hokazo.

Ijtimoiy-ta’minotga oid qonun hujjatlarini sharhlash - uning mazmunini ochib berish, noaniqliklar yuzasidan tuShuntirish berishdan iborat. Ularni rasmiy sharhlash va ilmiy sharhlash o‘zaro farqlanadi.

Ijtimoiy ta’minot sohasidagi qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonunning 31-moddasida bayon etilgan. Rasmiy sharhlash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan yoki qonun hujjatini qabul qilgan davlat organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin²⁴.

Qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash ayrim olimlar, mutaxassislar, ilmiy muassasalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Rasmiy sharhlashdan farq qilib, ilmiy sharhlash qoidalari majburiy yuridik kuchga ega bo‘lmaydi va qonun mazmunini to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri qo‘llashga yordam berishga qaratiladi. Bunday norasmiy sharhlash ayrim hollarda sud organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

1.9. Ijtimoiy ta’minotga oid huquqiy munosabatlar tuShunchasi va ularning umumiy tavsifi.

«Huquqiy munosabatlar - davlat tomonidan himoya qilinadigan, odatda, qonun normalarining kishilar xatti-harakatlariga ta’siri natijasida yuzaga keladigan va uning qatnashchilarida sub’ektiv huquqlar, yuridik majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlardir»²⁵. Ushbu tarif huquqiy munosabatlarga xos bo‘lgan barcha asosiy xususiyatlarni aks ettiradi.

Yuqoridagi ta’rifdan huquqiy munosabatlarga xos quyidagi xususiyatlarni

²⁴ Масалан, Каранг: «Қарияларни қадрлаш йили» дастурига давлат дастурига шарқ. «Халқ сўзи» газетаси, 2002 йил 25 январь.

²⁵ А. Сайдов, У. Тожихонов. «Давлат ва хукуқ назарияси». Т., «Адолат», 2001 йил,- Б. 254.

anglab olish mumkin:

- a) huquqiy munosabat, bu - insonlar faoliyati, xulq-atvori, erki, istagi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlardir;
- b) huquqiy munosabat - yuridik va jismoniy shaxslarning sub’ktiv huquqlari va yuridik majburiyatlarini ro‘yobga chiqarish natijasida yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlardir;
- v) huquqiy munosabat - shaxslar o‘rtasidagi irodaviy, ongli munosabatdir;
- g) huquqiy munosabat - davlat tomonidan, qonunlar vositasida muhofaza qilinadigan munosabatlardir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy munosabatlar turli xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratiladi. Ular: davlat-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, moliyaviy-huquqiy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Ijtimoiy ta’midotga oid munosabatlar ham huquqiy munosabatlarning bir tarmog‘i bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy ta’midot munosabatlari mohiyat jihatdan davlat-huquqiy munosabatlardan iborat bo‘lib, bu munosabatlarning yuzaga kelishida qonun hujjalarda nazarda tutilgan asoslar yetakchi o‘rinni egallaydi, ya’ni ana shunday asoslar mavjud emasligi tomonlar erki-xohishidan qat’i nazar ijtimoiy ta’midotga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga monelik qiladi.

Ijtimoiy ta’midotga oid huquqiy munosabatlar - fuqarolarni pensiyalar, , boshqa ijtimoiy yordamlar bilan ta’minalash yuzasidan qonun hujjalarda nazarda tutgan asoslar hamda tartiblarga muvofiq ravishda, tegishli yuridik faktlar (muayyan hollarda esa - yuridik tarkib) mavjud bo‘lganida ijtimoiy ta’midotni amalga oshiruvchi organlar bilan fuqarolar (ayrim fuqaro, oila) orasida vujudga keluvchi qonunlar bilan tartibga solinadigan hamda davlat tomonidan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlardan iboratdir.

Ijtimoiy ta’midot huquqiga oid munosabatlar yuzaga kelishiga zarur yuridik faktlar (yuridik-faktik asos) mavjud bo‘lganida ta’midot olishga haqli bo‘lgan shaxsning ta’midot olishga qaratilgan irodaviy-ongli harakati, ijtimoiy ta’midotni amalga oshiruvchi organ tomonidan esa ushbu ta’motning berilishiga qaratilgan

yuridik aktni sodir etilishi sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy ta’minotga oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga asos bo‘ladigan yuridik faktlar - yuridik oqibat keltirib chiqarishga layoqatli bo‘lgan irodaviy-ongli harakatlar ham, muayyan voqeа-hodisalar ham bo‘lishi mumkin. Bunday yuridik faktlar jumlasiga:

- a) muayyan davr davomida mehnat munosabatida bo‘lganlik - mehnat stajiga egalik fakti;
- b) nogiron bo‘lib qolganlik fakti;
- c) qaramog‘ida bo‘lganlik fakti;
- d) mehnatga yaroqsizlik fakti;
- e) kasb kasalligiga chalinganlik yoki ishlab chiqarishda jarohat olganlik fakti va boshqalar kiritilishi mumkin.

Ijtimoiy ta’minotga oid huquqiy munosabatlar ijtimoiy jarayon, voqelikning bir ko‘rinishi sifatida o‘z elementlari tarkibiy qismlariga ega bo‘ladi va bu elementlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1) Ijtimoiy ta’minotga oid huquqiy munosabatning ob’ektlari. X. T. Odilqoriyevning ta’kidlashiga ko‘ra: «Huquqiy munosabat tarkibiy tuzilishining zaruriy qismlaridan biri - ularning ob’ekti. «Ob’ekt» - lotincha so‘z bo‘lib, mavzu degan ma’noni anglatadi. xar qanday huquqiy munosabatning zamirida yotgan hayotiy hodisalarni, narsa va jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan muayyan vazifani o‘taydi. Shu bois ob’ektsiz, ya’ni hech narsaga qaratilmagan, hech narsaga ta’sir ko‘rsatmaydigan huquqiy munosabat bo‘lmaydi»²⁶.

Huquqiy munosabat ob’ektlari moddiy boyliklar, nomulkiy-shaxsiy ne’matlar, muayyan mulkiy yoki nomulkiy huquqlardan iborat bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy ta’minotga oid huquqiy munosabat ob’ekti bo‘lib pensiyalar, va boshqa ijtimoiy yordamlar, turli imtiyozlarga nisbatan fuqarolarda bo‘lgan huquqlar sanaladi.

Ijtimoiy ta’minotga oid huquqiy munosabat tarkibining ikkinchi muhim elementi - bu munosabatning sub’ektlari qatnashchilaridir. huquqiy munosabatning

²⁶ «Давлат ва хукуқ назарияси». Т., 2000 йил, -Б. 303.

sub'ektlari sifatida har doim sub'ektiv huquqlar, yuridik majburiyatlarga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning o'zi (o'z organlari va muassasalari orqali) ishtirok etadi.

Shaxs huquq sub'ekti sifatida huquqiy munosabatlarda qatnasha olishi uning huquq sub'ektlilik layoqatiga ega ekanligiga bog'liq bo'ladi. «Huquqiy sub'ektlilik - huquq sub'ekti bo'la olish qobiliyatidir. Huquq normasi, huquqiy sub'ektlilik va yuridik fakt huquqiy munosabatlar vujudga kelishining shart-sharoitlari hisoblanadi»²⁷.

Ijtimoiy ta'minotga oid munosabatlarda munosabat sub'ekti bo'lib quyidagilar qatnashadilar:

1. Fuqarolar (tegishli hollarda chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar);
2. Yuridik shaxslar (mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish usulidan qat'i nazar);
3. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan yakka tadbirkorlar, dehqon xo'jaligining a'zolari;
4. Davlat (o'zining ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi, ijtimoiy ta'minot tizimini boshqaruvchi organlari, muassasalari orqali);
5. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
6. Oila - yaxlit, bir butun holda.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquqiy munosabatlarda qatnaShuvchi shaxslarning huquq layoqatlari va muomala layoqatlari, vakolatlari, majburiyatlari hamda javobgarlikpari hajmi fuqarolik qonunlarida; korxonalarning Ustav va nizomlarida va boshqa qonunchilik aktlarida belgilab qo'yiladi. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat mazmuni uchinchi elementni tashkil etadi va u munosabat ishtirokchilarining huquqlari hamda sub'ektiv majburiyatlaridan tashkil topadi. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat mazmuni qonun hujjatlariga ko'ra uning sub'ektlariga berilgan huquqlar hamda vakolatlar, yuklatilgan majburiyatlarga ko'ra belgilanadi.

²⁷ Сайдов А., Тожиҳонов У . «Давлат ва хукуқ назарияси». Т., «Адолат», 2001 йил, -Б. 264.

Ijtimoiy ta'minot huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquqlari va manfaatlari qonunlarga muvofiq ma'muriy usulda (yuqori turuvchi davlat yoki jamoat organi orqali) yoki sud tartibida himoya qilinishi mumkin.

Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlar maqsadga ko'ra:

- a) huquqlarni amalga oshirishga qaratilgan;
- b) huquqlarni himoya qilishga qaratilgan;
- v) huquqlarni tan olishga - belgilashga qaratilgan;
- g) protsessual munosabatlarga bo'linishi mumkin;
- d) javobgarlikka oid munosabatlar.

Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish shakllariga ko'ra esa bu munosabatlarni:

- 1) Mehnat staji va uzoq yillik xizmat muddatini belgilashga oid munosabatlar;
- 2) Pensiya tayinlash, to'lash sohasidagi munosabatlar;
- 3) tayinlash va to'lashga oid munosabatlar;
- 4) Fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish sohasidagi munosabatlar;
- 5) Yolg'iz fuqarolarni qariyalar uyi va nogironlar uylariga joylashtirish, u yerda saqlash-ta'minlashga oid munosabatlar;
- 6) Aholining muayyan tabaqalariga ijtimoiy imtiyozlar va yengilliklar berish bilan bog'liq munosabatlar;
- 7) Ijtimoiy ta'minot sifatini, ijtimoiy ta'minot berilishida qonunlarga amal qilinishini nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar va boshqa munosabatlarga bo'lish mumkin.

Ijtimoiy ta'minotga oid munosabatlarning har bir turini huquqiy tartibga solishga oid xususiyatlar tegishli qonun hujjalarda nazarda tutib qo'yilgan.

1.10. Ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabatlarining sub'ektlari. Ijtimoiy ta'minot sohasida huquq layoqati va muomala layoqati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 aprelda qabul qilgan "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish

organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-616-sonli Qarori²⁸ga ko‘ra aholi daromadlari va farovonligi darajasini o‘stirishning g‘oyat muhim omili sifatida uning bandligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, mehnat bozori infratuzilmasini yanada rivojlantirish, odamlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini mustahkamlash, ushbu masalalarni hal etishda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rolini faollashtirish hamda javobgarligini kuchaytirish, shuningdek ular faoliyatini tashkil qilishni takomillashtirish maqsadida ijtimoiy ta’midot organlari tizimi va ularning ish faoliyati takomillashtirildi. Ijtimoiy ta’midot va ijtimoiy himoyalash yuzasidan huquqiy munosabatlarning ob’ekti bo‘lib fuqarolarga bu sohada berilgan huquqlar va ularning amalga oshirilishi jarayonida yuz beruvchi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar sanaladi. Ijtimoiy ta’midotni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarda turli-tuman shaxslar ishtirok etadilar, ularning maqsadi, ishtirok etish usullari va huquqiy maqomi bir - biridan jiddiy farq qiladi. Xozir amalda tarkib topgan tarkibiy tuzilishga ko‘ra pensiya va nafaqalar tayinlash va to‘lashga oid munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy himoyaning natural ko‘rinishlari amalga oshirilishida esa O‘zbekiston Rekspublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi va ularning joylardagi organlari yetakchi o‘rinni egallaydilar. Fuqarolarga va oilalarga bevosita ijtimoiy yordamni amalga oshirilishida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham yuksak mavqega egadir. Bulardan tashqari, ijtmoiy ta’midot va ijtimoiy himoya bilan bog‘liq munosabatlarda ta’midot oluvchi sub’ektlar sifatida fuqarolar (ayrim fuqaro yoki oila), nodavlat-notijorat tashkilotlari, korxona va tashkilotlar ham ishtirok etishlari mumkin. Quyida ularning har qaysisini alohida-alohida ko‘rib chiqamiz.

²⁸ Ўзбекистон Республикасининг Қонун хужжатари тўплами. 2007 йил.15-сон.156-модда.

1.11. Fuqarolar (oila) ijtimoiy ta'minot huquqi sub'ekti sifatida.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq (18-modda) O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiyadolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart. O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’milanadi. Ijtimoiy ta’mot sohsida fuqarolarga teng huquq layoqati berilgan bo‘lib, yoshi, jimoniy va ruhiy xolatidan qat’iy nazar teng huquq layoqatidan foydalanadilar. Tegishli hollarda xomila holida bo‘lgan fuqarolarning huquqlari tan olinishi mumkin.(masalan, marhum boquvchi tirikligi paytida xomila holida bo‘lgan va u vafot etganidan so‘ng tirik tug‘ilgan farzandi). Fuqarolarning ijtimoiy ta’mot sohsidagi huquqlari voyaga yetganlaridan so‘ng bevosa o‘zlari tomonidan amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli, khuningdek, jismoniy nuqsonlar mavjudligi sababli o‘z huquqlarini bevosa amalga oshira olmaydigan fuqarolarning ijtimoiy ta’mot olish huquqlari ularning homiyлari, vasiylari, qonuniy vakillari tomonidan ishonchnomaga asosan amalga oshiriladi. Ishonchnomaga, qonunga, sud qaroriga yoki vakil qilingan davlat organining hujjatiga asoslangan vakolat bilan bir shaxs (vakil) tomonidan boshqa shaxs (vakolat beruvchi) nomidan tuzilgan bitim vakolat beruvchiga nisbatan fuqarolik huquq va majburiyatlarini bevosa vujudga keltiradi, o‘zgartiradi va bekor qiladi. Vakil o‘ziga vakolat bergen shaxs nomidan shaxsan o‘ziga nisbatan ham, u ayni bir vaqtida vakili bo‘lgan boshqa shaxsga nisbatan ham bitimlar tuzishi mumkin emas.

Quyidagilar notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtiriladi:

-gospitallarda, sanatoriyalarda va boshqa harbiy-davolash muassasalarida davolanayotgan harbiy xizmatchilarning hamda boshqa shaxslarning Shu muassasalarning boshliqlari, ularning tibbiy qism bo‘yicha o‘rinbosarlari, katta va navbatchi shifokorlari tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalari;

-harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar, qo‘shilmalar, muassasalar hamda harbiy o‘quv yurtlari joylashgan, notarial idoralar va notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa organlar bo‘lman punktlarda esa ishchi va xizmatchilarning, ular oilalarining va harbiy xizmatchilar oila a’zolarining Shu qism, qo‘shilma, muassasa va o‘quv yurtlarining komandirlari (boshliqlari) tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalari;

-ozodlikdan mahrum qilish joylarida bo‘lgan yoki qamoqda saqlanayotgan shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan ishonchnomalari.

Xat-xabarlarni, shu jumladan pul va posilkalarni olishga, ish haqini hamda mehnat munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa to‘lovlarni olishga, mualliflar va kashfiyotchilarga to‘lanadigan haqlarni, pensiyalar, va stipendiyalarni, shuningdek bank muassasalaridan summalarni olish haqidagi ishonchnoma vakolat beruvchi ishlaydigan yoki o‘qiydigan tashkilot, u yashaydigan uyga xizmat ko‘rsatuvchi uyjoydan foydalanish tashkiloti, o‘zining yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoxud fuqaro davolanishda bo‘lgan davolash muassasasining ma’muriyati tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

Ishonchnoma ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o‘z kuchini saqlaydi.

Berilgan kuni ko‘rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Notarius tomonidan tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida harakatlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan, amal qilish muddati ko‘rsatilmagan ishonchnoma uni bergen shaxs tomonidan bekor qilingunicha o‘z kuchini saqlaydi.

Qonun hujjatlarida yoki bitimda belgilangan, shuningdek sud tomonidan

tayinlanadigan muddat kalendar sana bilan yoxud yillar, oylar, haftalar, kunlar yoki soatlar bilan o‘lchanadigan vaqt davrining o‘tishi bilan belgilanadi.

Muddat muqarrar yuz berishi kerak bo‘lgan voqeani ko‘rsatish bilan ham belgilanishi mumkin.

Da’vo muddati - shaxs o‘zining buzilgan huquqini da’vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan himoya qilishi mumkin bo‘lgan muddatdir.

Umumiy da’vo muddati - uch yil.

Ayrim turdagи talablar uchun qonunlarda umumiy da’vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki uzaytirilgan maxsus da’vo muddatlari belgilanishi mumkin.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, yuqoridagi qoidalar maxsus da’vo muddatlariga ham joriy qilinadi.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da’vo muddatining o‘tganligidan qat’i nazar sudda ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Da’vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo‘llanadi.

Qo‘llanish to‘g‘risida nizodagi taraf bayon qilgan da’vo muddatining o‘tishi sudning da’voni rad etish haqida qaror chiqarishi uchun asos bo‘ladi.

Da’vo muddatining o‘tishi belgilangan tartibda da’vo qo‘zg‘atilishi bilan, Shuningdek majbur shaxs qarzni tan olganligini ko‘rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uzeladi.

Uzilishdan keyin da’vo muddatining o‘tishi yangidan boshlanadi, uzilishgacha o‘tgan vaqt esa - yangi muddatga qo‘shilmaydi.

Da’vo muddati quyidagilarga joriy qilinmaydi:

shaxsiy nomulkiy huquqlarni va boshqa nomoddiy boyliklarni himoya qilish haqidagi talablarga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

omonatchilarining o‘z omonatlarini berish to‘g‘risida bankka qo‘yadigan talablariiga;

fuqaroning hayotiga yoki sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablarga. Da’vo muddati o‘tganidan keyin qo‘zg‘atilgan talablar da’vo qo‘zg‘atilishidan oldingi ko‘pi bilan uch yil bo‘yicha qondiriladi;

jinoyat tufayli yetkazilgan zararni to‘lash haqidagi talablarga;

mulkdorning yoki boshqa egalik qiluvchining o‘z huquqini har qanday buzishlarni, Shu jumladan, egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan buzishlarni (ushbu Kodeksning 231-moddasi), bartaraf etish haqidagi talablariga;

mamlakat mustaqilligi e’lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo‘lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho ob’ektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga hamda qonunda belgilangan hollarda boshqa talablarga.

Fuqarolar sudning qaroriga ko‘ra muomalaga layoqatsiz deb e’lon qilinishlari (ruhiy kasal yoxuj aqli zaif bo‘lsalar), muomala layoqati cheklanishi (surunkali alkogolizm yoki giyohvandlik kasaliga duchor bo‘lsa) mumkin. Bunday hollarda sudning qarori bilan homiy(vasiy) tayinlanadi va ularga tegishli huquq va majburiyatlar homiylar yoki vasiylar tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy nuqsoni borligi tufayli (mas. ko‘zi ojizligi, harakatlana olmasligi va h.k.z) o‘z huquqlaridan bevosita foydalanishda qiynaladigan fuqarolarga nisbatan ham homiy tayinlanishi mumkin.

Fuqarolar ijtimoiy ta’midot sohasidagi o‘z huquqlaridan bevosita o‘zlari ham, shuningdek, o‘zlari tanlagan vakillar orqali ham foydalanishlari mumkin. Bunday hollarda vakillik belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vakolatnama asosida amalga oshiriladi (oddiy yozma yoki notarial guvohlantirilgan shakldagi ishonchnoma orqali). Vakolatnomaning shakli, rasmiylashtirilsh tartibi va amal qilish muddati qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy ta’midot olish sohasida vakolatnomalar berish cheklangan muayyan hollar mavjud bo‘lishi mumkin.

Vakillik va vakolatnomaga taalluqli masalalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan (FKning 10 bobi(129-144-moddalar) bo‘lib, vakil bo‘lolmaydigan fuqarolar doirasi ham belgilab qo‘yilgan.

Fuqarolarning ijtimoiy ta’midot sohasidagi huquq layoqatlari va muomala layoqatlarini qonunga zid ravishda cheklab qo‘yishga yo‘l qo‘yilmaydi va ana shunday harakatga yo‘l qo‘ygan shaxslar (mansabdor yoki oddiy fuqarolar qonunga muvofiq javobgar qilinadilar.

Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy ta'minot huquqi tamoyillariga umumiy tavsif bering.
2. Ijtimoiy ta'minotning umumiyligi deganda nima ko'zda tutiladi ?
3. Ijtimoiy ta'minotot va ijtimoiy himoya tushunchalari nisbati qanday ?
4. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari bo'lib nimalar sanaladi ?
5. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi muddasida nazarda tutilgan ?
6. Fuqarolarga pensiyalar tayinlash va to'lash qaysi qonunlar asosida amalga oshiriladi?
7. Uzbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonuni haqida so'zlab bering.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyaga oid qaysi farmon va qarorlarini bilasiz?
9. Ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solinishida idoraviy me'yoriy hujjatlar qanday o'rinn tutadi ?
10. Pensiyalar va nafaqalarga oid qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarni bilasiz ?
11. Ijtimoiy ta'minotga oid qonun hujjatlarining vaqt, xudud va shaxslar orasida amal qilishi haqida so'zlab bering
12. Ijtimoiy ta'minot huquqi tamoyillariga umumiy tavsif bering.
13. Ijtimoiy ta'minotning umumiyligi deganda nima ko'zda tutiladi ?
14. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya tushunchalari nisbati qanday ?
15. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari bo'lib nimalar sanaladi ?
16. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi muddasida nazarda tutilgan ?
17. Fuqarolarga pensiyalar tayinlash va to'lash qaysi qonunlar asosida amalga oshiriladi?:
18. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonuni haqida so'zlab bering.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyaga oid qaysi farmon va qarorlarini bilasiz?
20. Ijtimoiy ta'minot munosabatlarini tartibga solinishida idoraviy me'yoriy hujjatlar qanday o'rinn tutadi ?
21. Pensiyalar va nafaqalarga oid qaysi xalqaro huquqiy hujjatlarni bilasiz?

Tayanch so'z va iboralar:

Ijtimoiy ta'minot huquqi, ijtimoiy ta'minot olish huquqi, fuqarolarga pensiyalar tayinlash, ijtimoiy ta'minot munosabatlari, me'yoriy hujjatlar, pensiyalar va nafaqalar, ijtimoiy ta'minotga oid qonun hujjatlarining vaqt, xudud va shaxslar orasida amal qilishi, ijtimoiy himoya, sub'ekt, moddiy yordam, xomiy, vasiy, vakil, jismoniy nuqson.

Glossariylar.

1.Ijtimoiy ta'minot huquqining tamoyillari -deganda uning rahbariy asoslari tuShuniladi, zero bular mazkur huquqiy normalar tizimining ichki birligi va rivojlanish yo'nalishini xarakterlab beradi.

2.Ijtimoiy ta'minot huquqi fanining predmeti -Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirilishi sohasida yuz beruvchi ijtimoiy munosabatlar ya'ni: fuqarolarni pensiyalar, moddiy yordamlar bilan ta'minlash, ularga turli ijtimoiy natural yordamlar ko'rsatish, ijtimoiy imtiyozlar berish paytida ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega shaxslar bilan bunday yordamni ko'rsatish vazifasi yuklatilgan davlat yoki boshqa jamoat organlari o'rtasida vujudga keluvchi huquqiy munosabatlar; fuqarolar, korxona va tashkilotlar, ijtimoiy ta'minot organlari huquqiy maqomining belgilanishi, ijtimoiy ta'minot shakllarining amalga oshirilishi asoslari, shartlari, tartiblarining belgilanishi kabilar ijtimoiy ta'minot huquqi predmeti sanaladi.

3.Huquq manbai -deganda ijtimoiy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solinishida qo'llaniladigan huquqiy shakllar nazarda tutiladi.

4.Ijtimoiy ta'minot huquqi fani usullari deganda bu sohadagi munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladigan maxsus huquqiy, iqtisodiy va boshqa vositalar majmui nazarda tutiladi.

5.Huquqiy munosabatlar - davlat tomonidan himoya qilinadigan, odatda, qonun normalarining kishilar xatti-harakatlariga ta'siri natijasida yuzaga keladigan va uning qatnashchilarida sub'ektiv huquqlar, yuridik majburiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlardir»


6.Da'vo muddati - shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir.

Tarqatma materiallar.

1-chizma



2-chizma



Testlar.

1.Fuqarolarning pensiya ta'minotiga bo'lgan huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida nazarda tutilganligini toping:

- A)5—moddasida
- B)53—moddasida
- C)*39—moddasida
- D)37—moddasida

2.Ijtimoiy ta'minot huquqiga oid qonun hujjalarning harakat doirasini toping.

- A)ular hududda harakat qiladi
- B)ular vaqt davomida amal qiladi;
- C)ular shaxslar o'rtasida amal qiladi;
- D)*yuqoridagi barcha muhitda harakat qiladi.

3.Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyalash deganda:

- A)*ijtimoiy himoyaga muhtoj barcha aholi qatlamlarini himoyalash tushuniladi
- B)pensionerlarni ijtimoiy himoyalash
- C)xotin—qizlarni ijtimoiy himoyalash;
- D)bolalarni himoyalash;

4.Ijtimoiy ta'minotning asosiy maqsadi nima?

- A)*aholini ijtimoiy himoya qilish;
- B)aholini pensiya bilan ta'minlash
- C)nafaqalar tayinlash;
- D)ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatishdan iborat

5.Ijtimoiy ta'minot huquqida yuridik faktlar deganda:

- A)*ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy oqibat yuz berishiga oid harakatlar, hodisalar
- B)pensiya yoshiga yetganlik
- C)ma'lum faktni yuz berishi;
- D)ijtimoiy ta'minot olish huquqining yuzaga kelishi tuShuniladi

6.Mahalla qo'mitasi ijtimoiy ta'minot huquqi sub'ekti bo'ladimi?

- A)yo'q, u fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi;
- B)*sub'ekti bo'la oladi
- C)yo'q, u davlat organi emas
- D)yo'q, ularga ijtimoiy ta'minot berish huquqi berilgan emas;

7. Pensiylar tayinlashga oid munosabatlar ijtimoiy ta'minot huquqining:

- A)*ob'ekti sanaladi
- B)sub'ekti sanaladi;
- C)ob'ekti ham, sub'ekti xam bo'la olmaydi;
- D)mehnat huquqi ob'ekti sanaladi

8. Ijtimoiy ta'minot soxasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni:

- A)* Prokuratura organlari amalga oshiradilar
- B)Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi organlari amalga oshiradilar
- C)Moliya vazirligi organlari amalga oshiradilar
- D)"Nuroniy" jamg'armasi jamoat nazorati olib boradi

2-mavzu: Ijtimoiy ta'minotning tashkiliy huquqiy shakllari.
Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi.

Reja:

- 1 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi.
- 2 Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy ta'minot huquqidagi o'rni.
- 3 Nodavlat pensiya ta'minoti va uni rivojlantirish istiqbollari.
- 4 Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sub'ektlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi

Aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq yo'naltirilgan va tabaqlashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta'minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko'rsatish orqali qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va haq to'lash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining viloyatlar, shaharlar va tumanlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'linmalarini tashkil etish to'g'risidagi taklifiga ko'ra ijtimoiy taminot, pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy, kompensatsiya va boshqa to'lovlarini tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish **2010 yilning 1 yanvaridan boshlab Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi zimmasiga qo'shimcha ravishda quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklansin:

-fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy, kompensatsiya va boshqa to'lovlarini tayinlash, qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarning miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta’minlash;

-pensiyalar hamda boshqa to‘lovlarni to‘liq hajmda moliyalashtirish va to‘lanishini tashkil qilish, ular bo‘yicha hisob va hisobotni yuritish;

-pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta’milotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan qatiyan maqsadli foydalanishini ta’minlash;

-mehnat mayibligi yoki kasalligi oqibatidagi nogironlik bo‘yicha tayinlangan pensiyalarni to‘lashga mablag‘larni da’volar bo‘yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

-tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagagi 30-son qarori bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida NIZOM"ga asosan amalga oshiradi²⁹.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) ijtimoiy ta’milot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirishga yo‘naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlaydi.

²⁹ "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2010 йил, 8-сон, 62-модда.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarning yig‘ilishini ta’minlash, shuningdek ushbu mablag‘larning Jamg‘armaga to‘liq tushishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg‘arma yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankida mustaqil balansga, hisob raqamlariga, shu jumladan xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan gerbli muhrga ega bo‘ladi.

Majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlardan tushgan mablag‘larni jamlash yo‘li bilan ijtimoiy ta’minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish, Shuningdek mablag‘larning pensiyalar, va kompensatsiyalarini to‘lashga maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish Jamg‘arma faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar Jamg‘armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- fuqarolarning ijtimoiy ta’minotga va ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan davlat tomonidan kafolatlangan huquqlarini amalga oshirish;

- respublikada pensiya ta’minotini yanada takomillashtirish;

- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarni Jamg‘armaning byudjetdan tashqari maxsus hisob raqamida markazlashtirilgan tartibda jamlash;

- pensiyalar va kompensatsiyalarini to‘lashga xarajatlarni moliyalashtirish;

Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan nazoratni ta’minlash;

Jamg‘arma mablag‘larini ko‘paytirishni tashkil etish;

davlat ijtimoiy sug‘urtasi sohasida xalqaro aloqalarni amalga oshirish, chet el tajribasini o‘rganish va undan foydalanish.

Tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Jamg‘armani boshqarish kengashi Jamg‘armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi.

Jamg‘armani boshqarish kengashi majlislari har yarim yilda kamida bir marta

o‘tkaziladi.

Jamg‘armaning Ijro etuvchi direktori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi va vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining Ijro etuvchi direktori, zarurat bo‘lganda, Ijro etuvchi direksiya tuzilmasiga xodimlarning umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Jamg‘arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov tuShumlarining belgilangan miqdori;

- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;

- yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan Shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;

- fuqarolarning ish haqidan sug‘urta badallari;

- qo‘silgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i chiqarib tashlangan holda korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tovarlar sotish (ishlar, xizmatlar ko‘rsatish) hajmidan ajratmalar, shuningdek kommunal xo‘jalik tizimi korxonalari uchun faoliyat xususiyatiga ko‘ra issiqlik energiyasi, suv va tabiiy gazning xarid qiymati hajmlari chiqarib tashlangan holda. Bunda uzoq muddatli aktivlar va o‘zi foydalanadigan boshqa mol-mulkni sotish majburiy mablag‘ ajratish ob’ektiga kiritilmaydi.

Jamg‘arma mablag‘lari qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa majburiy va ixtiyoriy to‘lovlar, regress tartibida qaytarib olingan mablag‘lar hisobidan ham shakllanadi.

Yagona ijtimoiy to‘lov Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini shakllantirishning asosiy manbai sanaladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lovchilar quyidagilardir:

- yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari;

- O‘zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O‘zbekiston

Respublikasi norezidentlari.

-Jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo‘limgan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari (bundan buyon matnda sug‘urta badallari deb yuritiladi) to‘lovchilardir.

Sug‘urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, Shuningdek ularning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi

ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to‘loving va sug‘urta badallarining soliq solish ob’ektidir.

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari quyidagi to‘lov larga nisbatan hisoblanmaydi:

- 1) kompensatsiya to‘lovlar;
- 2) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamg‘armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o‘tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;
- 3) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag‘batlantirish tarzidagi to‘lovlar;
- 4) xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to‘lanadigan to‘lovlar;
- 5) yosh mutaxassislarga oliy o‘quv yurtini tamomlaganlaridan so‘ng ta’til vaqt uchun yuridik shaxslar hisobidan to‘lanadigan

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi, sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqidani ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o‘tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to‘loving hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi

davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

Sug‘urta badallarining hisob-kitobi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Yakka tartibdagи tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo‘jaliklarining a’zolari sug‘urta badallari miqdorini oyiga eng kam ish haqidan kam bo‘lmagan miqdorda, qoramollarni yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi dehqon xo‘jaliklarining a’zolari esa oyiga eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda belgilaydi. Dehqon xo‘jaliklarining a’zolari sug‘urta badallarini ixtiyoriy ravishda to‘laydi.

To‘lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

yagona ijtimoiy to‘lov - har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay; sug‘urta badallari - ish haqiga pul mablag‘lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtدا.

Yuridik shaxslar - O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni ham to‘laydilar.

Notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

yagona soliq to‘lovini to‘lovchi yuridik shaxslar bunday to‘lovnini to‘lovchilar sanalmaydilar.

Yagona ijtimoiy to‘lov va Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalarning stavkalar har yili kelgusi yil uchun makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va Davlat byudjeti parametrlari tasdiqlanishi chog‘ida belgilab beriladi. Jumladan, 2010 yil uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi ish haqi fondining 25 foizi, Shundan 24,5 foizi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanishi nazarda tutilgan³⁰.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda

³⁰ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 22 декабрдаги тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасининг 2010 йилга Асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида” ПК-1245-сонли Қарори.

"Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli Farmoniga va yuqorida qayd etilgan Nizomga binoan pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Pensiya jamg'armasi zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatildi:

-fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil qilish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarini tayinlash, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalar hamda boshqa to'lovlarining miqdorlari qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

-pensiyalar hamda boshqa to'lovlarini to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil qilish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

-pensiyalar tayinlanishi va qayta hisoblab chiqilishini tizimli asosda doimiy tahlil qilish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iyan maqsadli foydalanilishini ta'minlash;

-mehnat mayibligi yoki kasalligi oqibatidagi nogironlik bo'yicha tayinlangan pensiyalarni to'lashga mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil qilish;

-tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmati faoliyatini tashkil etish.

2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarini tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladigan bo'ldi..

2. Fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari ijtimoiy ta'minot huquqidagi o'rni.

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanib-chuqurlashib borgani sari iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar jarayoni bilan mutanosib ravishda davlat hayotida ham tub o'zgarishlar amalga oshirib borilmoqda. Bu narsa, eng avvalo, davlat

faoliyatining demokratlaShuvi, kuchli davlatchilikdan kuchli jamiyatga o‘tib borilayotganligi, davlat organlariga xos bo‘lgan bir qator funksiyalarni jamoat organlariga topshirilayotganligida, nodavlat tashkilotlarining jamiyatni idora qilishdagi mavqei va vakolati muntazam ravishda kuchayib borayotganligida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Shuni alohida ta’kidlash kerakki, - degan edi O‘zbekiston Respublikasining Sh.M.Mirziyoev- Bugungi imkoniyatdan foydalaniib, yurtimiz ravnaqi yo‘lidagi fidokorona xizmatlari uchun muxtaram nuroniyalarimizga, qadrli mehnat faxriylariga o‘zimning yuksak hurmat-ehtiromim va samimiyl tilaklarimni bildirishga, ularning barchasiga uzoq umr, mustahkam sog‘lik, baxt-u saodat va farovonlik tilashga ruxsat bergaysizlar.

Shu borada bir fikrga alohida urg‘u berib ta’kidlamoqchiman: yoshi ulug‘ insonlar, katta avlod vakillariga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta’mintoni yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Shu maqsadda pensionerlar, yolg‘iz qariya va nogironlarga davlat ko‘magini kuchaytirish bo‘yicha ayni paytda keng qamrovli chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi va ular so‘zsiz amalga oshiriladi. «Nuroniy» va «Mahalla» jamgarmalarining xodimlar shtatlarini ko‘paytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jamiyatimiz hayotida ularning o‘rni va mavqeini yanada oshirish bo‘yicha qo‘sishimcha zarur choralar ko‘riladi”³¹.

Ijtimoiy ta’minton sohasida ham davlat faoliyatining yo‘nalishlaridan biri sifatida jamiyat rolini kuchaytirishga qaratilgan katta ishlar amalga oshirila boshlandi va bu tadbirlar o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillari o‘rtalaridan boshlab avj oldirilgan yalpisiga ijtimoiy ta’minlashdan aniq yo‘naltirilgan, aholining ijtimoiy zaif, kam ta’minlangan, beva-bechora qatlamlariga yordam berishga qaratilgan ijtimoiy ta’mintonga o‘ta borilishi tendensiyasi bu masalada nodavlat tashkilotlari, turli ijtimoiy jamg‘armalar ahamiyatini keskin oshirishga

³¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатинит биргаликда барпо этамиз, Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимиiga бағишиланган Олий Мажлис палаталарининг хўшма мажлисидаги нутқи. Ш.Ш.Мирзиёев –Тошкент.”Ўзбекистон” НМИУ.2016. –Б.12

olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 10 dekabrdagi «Bolali oilalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilinishi bilan 1997 yil 1 yanvardan boshlab bolali oilalarga fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanishi va to‘lanishi tartibi joriy etildi. Keyinchalik fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari rolini, ayniqsa aholini ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyati yanada oshira borildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 13 yanvardagi «Aholini aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta‘minlashda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari rolini oshirish to‘g‘risida»gi Farmoniga ko‘ra ishlamaydigan onalarga bolasi ikki yoshga etguniga qadar uni parvarishlashi, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz pensionerlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash vazifalari ham fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatildi. Ularga yosh oilalarga moddiy madad ko‘rsatish vazifasi ham topshirildi.

1999 yil 14 aprelda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinishi bilan³² ularning mavqeい yanada oshirildi. Ushbu qonunning 1-moddasiga ko‘ra:

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi - fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o‘z manfaatlardan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlardan, Shuningdek, milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari quyidagilar sanaladi:
shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagi mahalla fuqarolarining yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) (bundan buyon matnda fuqarolar yig‘ini deb yuritiladi);

fuqarolar yig‘inining kengashi;

fuqarolar yig‘ini faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha

³² Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ақборотномаси, 1999 йил, 5-сон, 110-модда.

komissiyalar;

fuqarolar yig‘inining taftish komissiyasi;

tuman markazidan olisda joylashgan va borish qiyin bo‘lgan shaharchalar, qishloqlar va ovullarda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda tuziladigan ma’muriy komissiya (bundan buyon matnda ma’muriy komissiya deb yuritiladi).

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yuridik shaxs huquqlaridan foydalanadi, belgilangan namunadagi muhrga ega bo‘ladi va mahalliy davlat hokimiyati organlarida ro‘yxatga olinishi kerak.

Fuqarolar yig‘ini to‘g‘risidagi namunaviy nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqarolar yig‘inining vakolatlari «Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish to‘g‘risida»gi qonunning 10-moddasida belgilangan va bu vakolatlar qatoriga, Shuningdek, shahardagi mahalla fuqarolar yig‘ini kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish va bolali muhtoj oilalarga tayinlash masalalarini hal etadi, oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ajratiladigan mablag‘lardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Shaharcha, qishloq va ovuldagи mahalla fuqarolar yig‘iniga ham ana Shunday vakolatlar berilgan.

3. Nodavlat pensiya ta’minoti va uni rivojlantirish istiqbollari.

Fuqarolik jamiyati barpo etilar ekan, davlat funksiyalari bosqichma-bosqich nodavlat tuzilmalariga, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazila borilishi taraqqiyotimizning uzviy bo‘lagi, zaruriy bosqichi sifatida tasavvur qilinishi lozim.

Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo qilinish vazifasi ilgari surilar ekan, uning bosh maqsadi - taraqqiy topgan davlat, o‘z ko‘rsatkichlari bo‘yicha rivojlangan mamlakatlardan qolishmaydigan jamiyat qurish, fuqarolarimiz uchun

yuksak turmush sharoitlarini ta'minlash, har bir insonga o'z aqliy va jismoniy salohiyatini to'la yuzaga chiqarishi imkoniyatini yaratishdan iborat ekanligi aniq -ravshan belgilab qo'yilgandir.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'rurasida ta'kidlaganidek: "Hamma narsa inson uchun, uning kelajagi uchun" degan ezgu tamoyilni to'liq amalga oshirish biz uchun doim eng muxim ustuvor vazifa bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Bizning iqtisodiyot, siyosat, davlat- huquq va sud sohasida amalga oshirilayotgan barcha o'zgarish va islohotlarimiz pirovard natijada yagona maqsadga - xalqimiz uchun munosib turmush sharoiti yaratish , odamlarning daromadi va farovonligini izchil oshirib borish, har bir insonga o'zining intellektual, kasb va manaviy saloxiyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur imkoniyatlar yaratib berishga qaratilishi darkor"³³.

Ijtimoiy himoyalash soxasidagi davlat funksiyalari bosqichma-bosqich jamiyat zimmasiga o'tkazilishi jarayonlarining jadallahsganligi, bunda maxalla komitetlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari ahamiyati ortib borayotganligi ijtimoiy yordam ko'rsatish usullarini yanada takomillashtirish, yangi huquqiy vositalardan kengroq foydalanishlikni taqazo qilmoqda.

Nodavlat tuzilmalar, jamoat birlashmalari, xorijiy xayriya tashkilotlari va ayrim hususiy fuqarolar tomonidan pul yoki natural shaklda xayri- exson yordami ko'rsatilishi bilan bog'liq bo'lган munosabatlar ham ijtimoiy yordam ko'rsatish faoliyati bilan bog'liq ravishda turli organlar, tashkilotlar, shaxslar o'rtasidagi nizolar hal etilishi bilan bog'liq bo'lган munosabatlar, ijtimoiy himoya oluvchilar bilan yordam ko'rsatuvchi organlar o'rtasidagi nizolar, qonun buzilishi xollarini bartaraf etish bilan bog'liq munosabatlarni ham ushbu munosabatlar qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki yillarda butun aholi qatlamlarini ijtimoiy himoyalash yo'li tutildi. Bunda narxlar oshishini kompensatsiyalash,

³³ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Т. Ўзбекистон. 2007. , -Б. 46.

eng muhim oziq-ovqat tovarlari narxini eng past darajada ushlab turish, talonlar vositasida tarqatish kabi yo‘llardan foydalanildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida bozor sharoitlari talablariga moslashmagan, boqimandalik kayfiyatlaridan xalos bo‘lib ulgurmagan aholini qashshoqlashib ketishining oldi olindi, mamlakatda tinchlik - osoyishtalik va barqarorlik ta’minlandi.

Bugungi kunda amalga oshirib kelinayotgan sud-huquq va qonunchilik sohasidagi islohotlarimizda aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta’minalash yuzasidan tub o‘zgarishlar qilinishi dolzarb bo‘lib turgan vazifalar jabhasiga kiradi. Bunda aholining muhtoj tabaqalari ijtimoiy himoyasida, ehtiyojmand shaxslar va oilalarni moddiy-ijtimoiy qo‘llab -quvvatlash ishlarida nodavlat tuzilmalarini, ularning moliyaviy mablag‘larini faol jalg etish, muxtojlarni ijtimoiy himoyalash nafaqat davlat, balki butun jamiyat oldida turgan dolzarb vazifa ekanligi chuqr anglanmog‘i lozim. Shunga ko‘ra ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta’minot jarayonida nodavlat sub’ektlari ishtiroki darjasasi, ularning bu sohadagi huquqiy maqom, bunday hayrli ishlarda qatnashganlari uchun davlat va jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan rag‘batlantirish tadbirlari, nodavlat mablag‘larini va nodavlat sub’ektlarini hokimiyat organlari yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan majburlash yo‘li bilan noqonuniy ijtimoiy himoyalash ishlariga jalg etganlik uchun javobgarlik choralar bilan bog‘liq norma va qoidalar ishlab chiqilishi, mavjudlari esa zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilishi kerak.

Nodavlat ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy ta’minoti shakllarini rivojlantirilishida bunday hayrli ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasini, ular ishtiroki usullarini va ijtmoiy yordam ko‘rsatishning aniq huquqiy mexanizmlarni barpo qilinishi ayniqsa muhim ahamiyatga egadir.

Nodavlat ijtimoy himoyasi taraqqiy toptirilishida jahon tajribasi va ilg‘or mamlakatlarning bu sohada erishgan yutuqlari e’tiborga olingani holda pensiyalarning va moddiy - ijtimoiy ta’minalashning nodavlat shakllarni keng joriy qilinishi, bu sohadagi huquqiy baza taomillashtirilishi va uzlusiz rivojlantirilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov

ta'kidlaganidek: «Aholini ijtimoiy himoyalash, odamlarning moddiy ahvolini yaxshilash vazifalarini hal qilishda davlat manbalari bilan bir qatorda mehnat jamoalarining, jamoat tashkilotlari va hayriya boshqa xayriya jamg‘armalarining mablag‘lari faol ishga solinmog‘i tashkilotlarining («Navro‘z», «Mahalla», «Mehr-shafqat» xamda kerak. Ijtimoiy himoyalash davlatning ham, jamoat tashkilotlarining, turli xayriya jamg‘armalarining ham asosiy vazifasi bo‘lmog‘i lozim³⁴.

4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sub’ektlari.

Mamlakatimizda pensiya qonunchiligi isloh qilish va yangi pensiya turlarini joriy qilish maqsadida 2005 yil 1 yanvardan boshlab jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti shakli joriy qilindi³⁵.

O‘zbekiston Respublikasining “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni 2004 yil 2 dekabrda qabul qilinib, bu qonun 27-modda va 4 bo‘limdan iborat, Qonunning 4 va 5 moddalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega va davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘lari saqlanishi hamda to‘lanishini kafolatlaydi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarda pensiya to‘lovlarini oluvchi fuqarolar (hisob raqami egasi yoki uning vorislari, qonuniy vakillari va boshqalar), badal to‘lanishini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar, Xalq banki muassasaklari ishtirok etadilar. Ularning har birining huquqiy maqomi qonun hujjalarda belgilab qo‘yiladi.

Ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjalarda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, majburiydir.

³⁴ Карап: Қаримов И.А. «Биздан озод ва обод ватан қолсин». Т., «Ўзбекистон». 1994 йил, -Б. 54.

³⁵ Карап : "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2004 йил, 51-сон, 512-модда.

Yakka tartibdagagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo‘jaliklarining a’zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari ochish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini berish.

Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yuritadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritishga doir hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga taalluqli ma’lumotlar Xalq bankining yagona ma’lumotlar elektron bazasida shakllantiriladi va saqlanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varag‘idan to‘lovlanri belgilangan tartibda olish;

shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varag‘idagi jamg‘armalarining holati to‘g‘risida, shuningdek shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varag‘idagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlar haqida axborot olish;

shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘idagi jamg‘armalarini qonun hujjatlariga muvofiq vasiyat qilib qoldirish huquqiga egadirlar.

Jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi Xalq bankining mazkur to‘lovchi oldidagi majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qiluvchi o‘zgarishlar to‘g‘risida Xalq banki filialiga xabar qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchi boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilar Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etishlari hamda fuqarolarning shaxsiga oid ma’lumotlar bilan bog‘liq barcha o‘zgarishlar (mehnat shartnomasi tuzilganligi yoki bekor qilinganligi, pasportdagi ma’lumotlar hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlarini yuritish uchun zarur boshqa ma’lumotlar o‘zgarganligi) to‘g‘risida xabar qilishlari shart.

Ish beruvchilar shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga badallarni o‘z vaqtida kiritishlari hamda fuqarolarga hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning talabiga muvofiq berishlari shart.

Xalq banki:

jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilardan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish va ularni yuritish uchun zarur ma’lumotlarni olish;

jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mablag‘larini investitsiyalashdan olingan daromaddan marja olish huquqiga ega. Marja miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Xalq banki:

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlari ochishi va yuritishi;

-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga kiritilayotgan badallar va hisoblab chiqarilgan foizlarni shaxslar bo‘yicha hisobga olib borishi;

-jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlarning o‘z vaqtida va to‘la hajmda o‘tkazilishini ta’minlashi;

-jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining miqdori o‘z vaqtida va to‘g‘ri

tayinlanishini, shuningdek ular bunday to‘lovlarni oluvchilarga to‘liq berilishini ta’minlashi;

-jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mablag‘larini moliyaviy vositalarga joylashtirish hamda bunday mablag‘lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish yo‘li bilan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlaridagi mablag‘larning saqlanishini, ko‘paytirilishini va pul qadrsizlanishidan himoya qilinishini ta’minlashi;

-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari holati to‘g‘risida fuqarolarni har yili, shuningdek ularning murojaatiga asosan xabardor qilishi;

-shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga aloqador hujjatlar hamda yozuvlarning saqlanishini ta’minlashi shart.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining huquqiy maqomi qanday
2. Nodavlat pensiya taminoti nima ?
3. Jamg‘arib boriladigan pensiya haqida nimalarni bilasiz ?
4. Ijtimoiy ta’milotga oid munosabatlarda huquqlarni himoyalash qanday o‘ziga xos jihatlarga ega ?
5. Nodavlat pensiya ta’miloti nima va u davlat pensiya ta’miotidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi ?
6. Nodavlat pensiya tizimishing rivojlanish istiqbollari haqida nimalarni bilasiz ?
7. O‘zbekiston Respublikasining "Jamg‘arib boriladigan pensiyalar to‘grisida"gi qonunni tavsiflab bering.
8. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’miloti munosabatlarining sub’ektlari kimlar ?
9. Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari nima va u kim tomonidan to‘lanadi ?
10. Jamg‘arib biladigan pensiya mablag‘lari qaerda saqlanadi va kim tomonidan hisob-kitob qilib boriladi ?
11. Jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasi kim tomonidan osiladi ?
12. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamgarmasidan mablagni olish asoslari va tartibi qanday ?
13. Jamg‘arib boriladigan pensiya mablaglarini pensionerlar yoki ularning vorislari tomonidan tasarruf qilish tartibi qanday ?

Tayanch so‘z va iboralar.

Nodavlat pensiyasi. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’miloti to‘g‘risidagi qonun. Nodavlat pensiya jamg‘armasi. Xalq bankidagi jamg‘arib boriladigan

mablag‘. Jamg‘arib boriladiga pensiya daftarchasi. Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lash. Davlat va nodavlat pensiya ta’minoti. Jamg‘arib boriladigan pensiyani olish yoki meros qilib qoldirish huquqi.

Glossariylar.

Jismoniy shaxslar - O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo‘lмаган shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari (bundan buyon matnda sug‘urta badallari deb yuritiladi) to‘lovchilardir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari quyidagilar sanaladi:

shaharcha, qishloq, ovul fuqarolarining, shuningdek, shahar, shaharcha, qishloq va ovuldagи mahalla fuqarolarining yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) (bundan buyon matnda fuqarolar yig‘ini deb yuritiladi).

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarda pensiya to‘lovlarini oluvchi fuqarolar (hisob raqami egasi yoki uning vorislari, qonuniy vakillari va boshqalar), badal to‘lanishini amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar, Xalq banki muassasalari ishtirok etadilar.

jamiyatni boshqarish (ijtimoiy boshqaruv) – ijtimoiy hayotga yoki uning bir qancha yoxud ayrim sohalariga ta’sir etish, ijtimoiy ishlarni boshqarish;

davlatni boshqarish - davlat hayotini uning olib borayotgan siyosatiga moslashtirish maqsadida davlat yoki uning institutlarining maqsadga muvofiq ta’sir etishidir.

Testlar.

1.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta’minot huquqi sub’ekti bo‘la oladimi?

- A)*bo‘la oladi
- B)yo‘k
- C)vazir bo‘la oladi
- D)vakolat doirasida emas

2.Mahalla qo‘mitasi ijtimoiy ta’minot huquqi sub’ekti bo‘ladimi?

- A) *sub’ekti bo‘la oladi
- B)yo‘k, u fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi;
- C)yo‘q, u davlat organi emas

D)yo‘q, ularga ijtimoiy ta’minot berish huquqi berilgan emas;

3.Ijtimoiy ta’minot huquqida yuridik faktlar deganda:

A)*ijtimoiy ta’minotga oid hukukiy oqibat yuz berishiga oid harakatlar, hodisalar

B)pensiya yoshiga etganlik

S)ma’lum faktni yuz berishi;

D)ijtimoiy ta’minot olish huquqining yuzaga kelishi tuShuniladi

5.Ishlab turgan pensionerlarga pensiyaning qancha miqdori to‘lanadi?

A)* 100 %(2019 yil 1 yanvardan).

B) 50 %

S) 30 %

D) 70 %

6.Harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash huquqiga qaysi organlar haqlidir?

A)*Mudofaa vazirligi, ichki ishlar vazirligi, boshqa harbiylashgan organlar;

B) Mudofaa vazirligi,

S) Ichki ishlar vazirligi,

D) Ichki ishlar vazirligi, boshqa harbiylashgan organlar;

7. Fuqarolarning jamg‘arilib boriladigan pensiyalari summasi qaysi mablag‘ hisobidan to‘ldirilib boriladi

A)* xodimning oylik ish haqisining soliqqa tortilgan summasi hisobidan

B)“Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘laridan

S)Davlvt ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan

D)Pensiya jamg‘armasidan

8.Fuqarolarning jamg‘arilib boriladigan pensiyalari summasi mablag‘lari qaysi muassasada jamg‘arilib boriladi

A)* Xalq bankida

B)“Nuroniy” jamg‘armasida

S)Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasida

D)Pensiya jamg‘armasida

3-mavzu. Mehnat staji va uzoq yillik xizmat davri.

Reja:

1. Mehnat staji tushunchasi va uning turlari.
2. Mehnat stajini hisoblash.
3. Ayrim turdag'i mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnat stajini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Uzoq yillik xizmat davri va uning pensiya ta'minotini amalga oshirilishidagi ahamiyati.

1. Mehnat staji tushunchasi va uning turlari.

Fuqarolarga ijtimoiy ta'minot berish mezonlaridan biri-mehnat stajidir. Ish staji deganda hodim uchun Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqai Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lanishi sharti bilan amalga oshirilgan mehnat va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ijtimoiy foydali faoliyat davri (vaqt) nazarda tutiladi.

Mehnat staji, uning miqdori va sifati fuqaroga ijtimoiy ta'minot berilishida muhim o'rinni tutuvchi omil bo'lib sanaladi. **Mehnat staji odatda fuqaroning korxona yoki tashkilotdagi mehnat faoliyat davridan iborat bo'ladi.**

Umumiy va maxsus mehnat stajlari mavjud bo'ladi.

Har qanday ish davri, shuningdek, quyidagi vaqtlar ham umumiy ish stajiga qo'shib hisoblanadi va pensiya ta'minotida hisobga olinadi:

a) Agar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa faoliyat turi, mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish;

1965 yildan keyingi davr uchun jamoa xo'jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo'jaligi a'zosi uzsiz sabablarga ko'ra jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi. Ijodiy faoliyat bilan mashg'ul xodimlarning ish stajini, basharti ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan bo‘lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e’lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e’tiboran belgilaydilar;

- b) harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo‘silmalarida bo‘lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;
 - v) idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog‘-kon-qutqaruq qismlaridagi xizmat;
 - g) yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan yakka (guruhli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo‘jaligidagi faoliyat-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langan taqdirda;
 - d) I guruh nogironiga yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaga, shuningdek o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko‘ra) 80 yoshga to‘lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;
 - e) oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, aspiranturada, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qish, shu jumladan chet elda o‘qish;
 - j) onaning (o‘gay onaning) bolalarini (o‘gay o‘g‘illarini, o‘gay qizlarini) go‘daklik yoshida parvarishlagan vaqt, lekin ko‘pi bilan 3 yil doirasida (Bola parvarishlash ta’tili berilgani haqidagi ish beruvchi buyrug‘idan ko‘chirma taqdim etilishi sharti bilan);
 - z) ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarning, praporshchiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari xizmat harbiy xizmatchilarining xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lмаган joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;
 - i) O‘zbekiston Respublikasi muassasalari va xalqaro tashkilotlar xodimlari xotinlarining chet elda bo‘lgan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;
- Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida I va P guruh nogironligida bo‘lingan vaqt yoshga doir yoki boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanayotganida stajga qo‘sib hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt pensiyani hisoblab chiqarish uchun stajga qo'shib hisoblanmaydi.

Ota-onasidan judo bo'lgan (chin etim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish ham ota, ham onaning umumiy ish stajiga qarab amalga oshiriladi.

Maxsus mehnat staji deganda esa imtiyozli shartlarda ijtimoiy ta'minot (pensiya bilan ta'minlanish) huquqini beradigan ishlar, kasblar, vazifalarda ishlagan davr nazarda tutiladi. Jumladan, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250 sonli qarori bilan "Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar Ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, ana shunday ishlarda ishlagan davrlar maxsus ish stajiga, ya'ni, imtiyozli shartlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqini beruvchi davrlarga qo'shib xisoblanadi³⁶.

2. Mehnat stajini hisoblash.

Mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Mehnat daftarchasi yoki unda tegishli yozuvlar bo'lмаган тақдирда ish stajini tasdiqlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi 249-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun mehnat stajini tasdiqlash tartibi to'g'risida NIZOM"ning³⁷ 1-bandiga ko'ra: "Mehnat staji ish, xizmat, o'qish joyidan yoki ish stajiga qo'shib hisoblanadigan boshqa faoliyat amalga oshirilgan joydan, yoxud arxiv muassasalari tomonidan berilgan hujjatlar asosida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni (1993 yil 3-sentyabr, 938-XP-sonli) Qonuning 37-moddasi- **Ish stajiga qo'shib hisoblanadigan mehnat faoliyati turlari belgilangan. Unga ko'ra:** Quyidagilar ish stajiga qo'shib hisoblanadi:

a) 2019 yil 1 yanvarga qadar bo'lgan davr uchun - faoliyat turi, mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u O'zbekiston Respublikasi

³⁶ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Хукуматининг қарорлари тўплами. 1994., 5-сон, 27-модда.

³⁷ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Хукуматининг қарорлари тўплами. 1994., 5-сон, 27-модда

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan bo‘lsa;

2019 yil 1 yanvardan keyingi davr uchun - xodim tomonidan bajarilgan har qanday ish, agar mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar hisoblangan bo‘lsa.

1965 yildan keyingi davr uchun jamoa xo‘jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo‘jaligi a’zosi uzrsiz sabablarga ko‘ra jamoa xo‘jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo‘lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi.

Ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul xodimlarning ish stajini, basharti ular O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan bo‘lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana Shu muallifning asari e’lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e’tiboran belgilaydilar;

b) harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo‘silmalarida bo‘lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;

v) idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog‘-kon-qutqaruq qismlaridagi xizmat;

g) yakka tartibdagi mehnat va oilaviy tadbirkorlik faoliyati, Shu jumladan shaxsiy yordamchi xo‘jalikdagi va yuridik shaxs tashkil etilmagan holdagi dehqon xo‘jaligidagi faoliyat:

2019 yil 1 yanvarga qadar bo‘lgan davr uchun - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langan taqdirda;

2019 yil 1 yanvardan keyingi davr uchun - yagona ijtimoiy to‘lov to‘langan taqdirda;

d) I guruh nogironiga yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaga, Shuningdek o‘zgalarning parvarishiga muhtoj bo‘lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko‘ra) 80 yoshga to‘lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;

e) oliy ta’lim muassasalarida, aspiranturada, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar institutida, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida, tayanch doktoranturada,

doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qish, Shu jumladan chet elda o‘qish;

j) bola 3 yoshga to‘lguncha bolani parvarishlash ta’tillarida bo‘lish vaqt, lekin hammasini jamlaganda ko‘pi bilan 3 yil;

z) ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarning, praporshiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari xizmat harbiy xizmatchilarining xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

i) O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslarning xotini (eri) chet elda bo‘lgan, lekin 10 yildan oshmagan davr.

Mazkur moddaning "d"-i" bandlarida nazarda tutilgan davrlar ushbu moddaning "a"-g" bandlarida ko‘rsatib o‘tilgan umumiyl ish staji kamida 7 yil bo‘lgan taqdirda ish stajiga qo‘shib hisoblanadi.

Nogiron bo‘lib qolgan shaxslar stajiga "d"-i" bandlarda nazarda tutilgan davrlar ushbu moddaning "a"-g" bandlarida ko‘rsatib o‘tilgan staj muddatidan qat’i nazar qo‘shiladi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida I va P guruh nogironligida bo‘lingan vaqt yoshga doir yoki boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanayotganida stajga qo‘shib hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt pensiyani hisoblab chiqarish uchun stajga qo‘shib hisoblanmaydi.

Ota-onasidan judo bo‘lgan (chin etim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish ham ota, ham onaning umumiyl ish stajiga qarab, ushbu Qonunning 27-moddasi "g" bandida ko‘rsatib o‘tilgan miqdorlarda amalga oshiriladi. **38-modda. Ish stajiga imtiyozli tarzda qo‘shib hisoblanadigan faoliyat davrlari**

Stajga quyidagilar imtiyozli tarzda qo‘shib hisoblanadi:

a) harakatdagi armiya tarkibiga kiruvchi harbiy qismlar, shtablar va muassasalardagi, jangovar harakatlar davrida partizan otryadlari va qo'shilmalaridagi xizmat va erkin yollanganlar tarkibidagi ish, baynalmilal burchni bajarishda jangovar harakatlarda ishtirok etish-uch hissa barobarida;

b) Ulug' Vatan urushi yillarida (1941 yil 22 iyundan 1945 yil 9 mayga qadar) mamlakat ichkarisida ishlash, shu jumladan harbiy qismlardagi erkin yollanganlar tarkibidagi ish-ikki hissa barobarida;

v) imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan-erkaklarda 10 yildan ortiq va ayollarda 7 yil-u 6 oydan ortiq ishlangan har bir to'liq yil-ikki hissa barobarida;

g) moxovxonalarda, vaboga qarshi muassasalarda, immunodefitsit virusi bilan kasallangan shaxslar davolanadigan yuqumli kasalliliklar muassasalarida ishlash-ikki hissa barobarida;

d) patologoanatomiya muassasalari va sud-tibbiy ekspertiza muassasalarining tibbiy xodimlaridan ayrim toifalarining ishi-bir yarim hissa barobarida;

e) asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan, asossiz ravishda qatag'on qilingan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo'lish va hibsda saqlash joylarida turgan vaqtি-bir yarim hissa barobarida

Mehnat daftarchasi, shuningdek, Pensiya jamg'armasi organlari tomonidan berilgan sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Chet elda ishlangan davrlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan taqdirda, agar davlatlararo bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanma (bitim) asosda chet elda ishlaganligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergen organlar mehnat daftarchasiga kiritgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi.

Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarga chet eldag'i ishi O‘zbekiston Respublikasida ishlanganiga to‘g‘ri keladigan stajning 1/3 hissasidan oshmagan miqdorda, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, stajga qo‘shiladi.

Mehnat daftarchasi bo‘limgan taqdirda hamda mehnat daftarchasida zarur yozuvlar bo‘limgan yoki yozuvlar xato va noaniq yozilgan bo‘lsa, mehnat stajini tasdiqlash. uchun (ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan xodimlar staji bundan mustasno) ma’lumotnomalar, buyruqlardan ko‘chirmalar, ish haqi berish bo‘yicha shaxsiy schyotlar va vedomostlar, ularning bajarganligi qayd etilgan yozma mehnat shartnomalari (kontraktlar) va ish davrlari to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘lgan boshqa hujjatlar qabul qilinadi. Yuqorida ko‘rsatilgan hujjatlar bo‘lmasa, mehnat stajini isbotlash uchun kasaba uyushmasi biletlari va hisob-kitob daftarchalari qabul qilinadi. Hisob-kitob daftarchalari ish haqi to‘langanligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan vaqt uchun, kasaba uyushmasiga a’zolik bilet esa ish haqi yoki stipendiyadan a’zolik badallari to‘langanligi to‘g‘risida belgi qo‘yilgan vaqt uchun ish davrini tasdiqlaydi.

Kasaba uyushmasiga a’zolik bilet bo‘limgan taqdirda, staj hisobga olish varaqasi asosida aniqlanishi mumkin, bunda faqat a’zolik badallari to‘langan vaqt stajga kiradi.

Ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan xodimlarning mehnat staji O‘zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langanligi to‘g‘risida Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi tomonidan beriladigan ma’lumotnomalar bo‘yicha aniqlanadi.

Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmasa (ish vaqtini hisobga olib bo‘lmaydigan xodimlar bundan mustasno) ish davri guvohlarning ko‘rsatmasi asosida aniqlanadi”.

Mehnat stajini tasdiqlash uchun taqdim etilgan hujjatlarning mazmuni va zarur darajada rasmiylashtirilganligini huquqiy baxolash, zarurat bo‘lganda ularni

berishning asoslanganligini tekshirib ko‘rish to‘g‘risida qaror qabul qilish; zarur hollarda mehnat faoliyatining ayrim davrlarini stajga qo‘shib hisoblash yoki olib tashlash haqida qaror qabul qilish;. guvohlarning ko‘rsatmalari asosida ish stajini aniqlash; ayrim shaxslarni parvarishlashga ketgan vaqtini aniqlash Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlarining vakolatiga kiradi

Tabiiy ofatlar, halokatlar, falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar natijasida ish staji to‘g‘risidagi hujjatlar to‘liq yoki qisman yo‘qotilgan hollarda mehnat stajini tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyat, tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Qisman saqlanib qolgan hujjatlar va guvohlarning ko‘rsatmalari asosida qayd etib o‘tilgan komissiyalar tomonidan aniqlangan mehnat faoliyati davrlari umumiyligi stajga, Shuningdek, imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi maxsus hujjatlar bilan tasdiqlangan ish vaqtida stajga qo‘shiladi.

Mavjud ish staji to‘g‘risida ma’lumotlar bo‘limgan va harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar, halokatlar, falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar munosabati bilan ularni olish imkoniyati bo‘lmasa, mehnat staji, Shu jumladan, imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi mehnat staji ariza beruvchini bir korxona, muassasa, tashkilot, jamoa xo‘jaligi yoki bir tizimda u bilan birga ishlagan va uni bilgan kamida ikki guvohning ko‘rsatmasi asosida belgilanadi.

Arxiv ma’lumotlari yo‘qligi sabablardan qat’i nazar, mavjud ish staji to‘g‘risidagi hujjatlarni olish imkoniyati bo‘limgan hollarda 1965 yilgacha jamoa xo‘jaligida ishlash davri yuqoridagi tartibda guvohlarning ko‘rsatmalari bilan tasdiqlanadi.

Umumiyligi mehnat staji to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lgan taqdirda imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi ishning xarakteri guvohlarning ko‘rsatmalari bilan belgilanmaydi.

Mehnat faoliyatini tasdiqlash uchun taqdim etiladigan hujjatlar mansabdor shaxslar tomonidai imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Mehnat daftarchasidagi yozuvlar ushbu daftarchani to‘ldirish va yuritish paytida amal qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mehnat daftarchalarini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomalariga talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi kerak.

Mehnat daftarchalaridagi va boshqa hujjatlardagi yozuvlar belgilangan qoidalardan chetga chiqqan holda amalga oshirilgan hollarda ularni mehnat stajining isboti sifatida qabul qilish mumkinligi to‘g‘risidagi masala Moliya vazirligi qoshidagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi tomondan hal etiladi.

3.Ayrim turdagisi mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mehnat stajini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari.

1. Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish³⁸. Tadbirkor davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yish bilan bir paytda byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badal to‘lovchi sifatida davlat ijtimoiy sug‘urtalanadigan shaxsga aylanadi.

Tadbirkor o‘zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta’minlanish va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqaning o‘zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi. Biroq, eng kam miqdori har oyda O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo‘limgan miqdorni, yoshiga oid pensiya olish huquqiga ega bo‘lgan, Shuningdek I va II guruh nogironlari bo‘lgan tadbirkorlar uchun esa eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug‘urta badallari to‘lanishining hisobi umumiy belgilangan tartibda tadbirkorning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlarida yuritiladi.

³⁸ Қаранг : Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2001 йил 24 августдаги 351-сон қарори билан тасдиқланган “Юридик шахс бўлмасдан тадбиркорлик фаолияти билан шугулланувчи жисмоний шахсларнинг меҳнат стажини хисобга олиш ва уларнинг бюджетдан ташқари пенсия жамғармасига бадаллар ажратиши ТАРТИБИ”. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. 2001 й. 15,16 –сон. 2001.

Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik bilan o‘rindoshlik bo‘yicha shug‘ullanuvchi shaxsning xohishiga ko‘ra mehnat daftarchasiga tadbirkor sifatidagi faoliyat davri to‘g‘risidagi yozuv kiritilishi mumkin. Yozuv ro‘yxatdan o‘tkazish joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan kiritiladi.

Tadbirkorning mehnat stajiga u byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan davrlar kiritiladi.

Pensiya va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash uchun mehnat stajini hisoblab chiqishda, agar to‘langan badallar summasi ushbu yilning barcha oylari uchun belgilangan eng kam badaldan kam bo‘lmasa (to‘langan penyalarni hisobga olmagan holda), stajga kalendar yil qo‘shiladi.

Tadbirkorning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lanishidan qat’i nazar pensiya va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash uchun mehnat stajiga qo‘shiladi.

To‘liq kalendar yil mobaynida tadbirkorning asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlari etishtirish va qayta ishslash bo‘lgan hollarda, agar mazkur yilda badallar kamida 9 oy mobaynida to‘langan bo‘lsa stajga kalendar yil qo‘shiladi.

Mehnat daftarchasi bo‘lмаган yoki yo‘qotilgan taqdirda tadbirkorning pensiya yoki ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stoji hisobga olish kartochkasi yoki hisobga olish daftaridagi yozuvalar bo‘yicha hisoblab chiqiladi.

Tadbirkor sifatidagi ish faoliyati va uning davomiyligi guvohlik ko‘rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

2. Dehqon xo‘jaligi a’zolarini ijtimoiy sug‘urtalash va ularning mehnat stajini hisobga olish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 avgustdagи 351-sон qarori bilan tasdiqlangan "Dehqon xo‘jaligi a’zolarini ijtimoiy sug‘urtalash va ularning ijtimoiy ta’minoti to‘g‘risida NIZOM" ga ko‘ra³⁹ Dehqon xo‘jaligi a’zolari ixtiyoriylik asosida ijtimoiy sug‘urta qilinadi.

³⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2001 й.. 15,16 -сон

Mazkur Nizom qoramol boqish va chorvachilik mahsulotlari etishtirish bilan band bo‘lgan dehqon xo‘jaliklari a’zolariga tatbiq etilmaydi.

Ijtimoiy sug‘urtalanish xohishini bildirgan dehqon xo‘jaligi a’zosi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badal to‘lovchi sifatida davlat soliq xizmati organlarida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishi shart.

Dehqon xo‘jaligi a’zosi o‘zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta’milanish va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqaning o‘zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi, biroq sug‘urta badallarining eng kam miqdori bir yilda eng kam oylik ish haqining to‘rt yarim barobaridan kam bo‘lмаган miqdorni tashkil etishi kerak.

Mehnat daftarchasi dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Yuridik shaxs bo‘lmasdan tashkil etilgan dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat daftarchasi dehqon xo‘jaligi a’zosi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi tuman (shahar) ijtimoiy ta’midot bo‘limida u sug‘urta badallari to‘laydigan butun muddat mobaynida saqlanadi va yuritiladi.

Agar dehqon xo‘jaligi a’zosi sug‘urta badallari to‘lash boshlangunga qadar mehnat daftarchasiga ega bo‘lмаган bo‘lsa, ijtimoiy ta’midot bo‘limi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda unga mehnat daftarchasi ochadi.

Agar dehqon xo‘jaligida ishslash fuqaro uchun o‘rindoshlik hisoblansa, uning mehnat daftarchasi asosiy ish joyida yuritiladi.

Dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat stajiga u byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan davrlar kiritiladi.

Pensiya va davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash uchun mehnat stajini hisoblab chiqishda, agar dehqon xo‘jaligi a’zosi ushbu yilda 12 oy ishlagan va kamida 9 oy badal to‘lagan bo‘lsa, stajga kalendar yil qo‘shiladi.

Dehqon xo‘jaligi a’zosining mehnat daftarchasi bo‘lмаган yoki yo‘qotilgan taqdirda pensiya yoki ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa

tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish staji hisobga olish kartochkasi yoki hisobga olish daftaridagi yozuvlar asosida hisoblab chiqilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi a’zosi tomonidan sug‘urta badallari to‘lanishi va uning qancha davom etganligi guvohlik ko‘rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqayotgan va etishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotayotgan fuqarolarning mehnat stajini hisoblash.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 21 apreldagi 67-sonli" 2006-2010 yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida gi Qarori ga ko‘ra shaxsii yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida ui xo‘jaligi a’zolarining mulki bo‘lgan yoki ijara shartlarida olingan qoramolni boqishni hamda chorvachilik mayda tovar mahsulotlari etishtirishni va ularni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotishni amalga oshiruvchi mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar band hisoblanadilar hamda ularga agar ular ish beruvchilar bilan mehnat munosabatlarida turmasa yoki belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan xususiy tadbirkorlar hisoblanmasa yoxud o‘quv yurtlarida o‘qimasa ularga belgilangan namunadagi mehnat daftarchasi ochiladi (yuritiladi).

Ushbu shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga bir yilda eng kam oylik ish haqining to‘rt yarim barobaridan kam bo‘limgan miqdorda sug‘urta badallari to‘langan taqdirda qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lingan davrlar "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga qo‘shiladi.

Qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan fuqarolarga mehnat daftarchasi berish tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan shaxslarning mehnat stajini hisobga olish byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langanligi to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlaridan olingan ma’lumotlar asosida tuman (shahar) ijtimoiy ta’midot bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

Mehnat daftarchasiga ega bo‘lgan (avval mehnat faoliyati bilan shug‘ullangan) shaxslar uchun faoliyatning ko‘rsatilgan turi bilan bandlik to‘g‘risidagi yozuvlar tuman ijtimoiy ta’midot bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaligida qoramol boqish va etishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan fuqaro byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari miqdorini mustaqil ravishda, o‘zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya ta’mnotinining xohlangan miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin bir yilda eng kam oylik ish haqining to‘rt yarim barobaridan kam bo‘lmagan miqdorda belgilaydi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lashning shaxsiy hisobi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi tomonidan, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarida qoramol boqish va etishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo‘lgan shaxslar tomonidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘langanligi to‘g‘risida davlat soliq xizmati organlari ma’lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Diniy tashkilotlarda 1991 yil 1 yanvargacha mehnat shartnomasi bo‘yicha ishslash davri bu ishni bajarish to‘g‘risidagi mehnat shartnomasi kasaba uyushmasi organlari ishtirokida tuzilgan hollarda mehnat stajiga qo‘shiladi.

4. Uzoq yillik xizmat davri va uning pensiya ta’mnotinini amalga oshirilishidagi ahamiyati.

Davlat hizmatining muayyan turlari bilan band bo‘lgan fuqarolar, shuningdek, qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan hollarda ma’lum lavozimda yoki faoliyatning muayyan turi bilan band bo‘lingani hollarda bu davr mehnat stajiga hisoblanishdan tashqari qo‘srimcha imtiyozlar berilishiga ham asos bo‘lishi

mumkin. Bunday davrni o‘zoq yillik hizmat davri deb nomlanadi.

Ma’lum lavozim yoki vazifada uzoq vaqt mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish hodimga maxsus unvon va martabalar berilishida, mehnat ta’tillari miqdorini belgilanishida, davlat pensiyalari tayinlanishida qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa hollarda imtiyoz va yengilliklar berilishiga olib keladi.

Masalan, O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qarori bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risida nizomning 30 bandiga ko‘ra davlat soliq organlari mansabdor shaxslariga maxsus unvonlar berish ularning uzoq yillik hizmat davri hisobga olingani holda amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga uzok yillar xizmat qilganlik uchun har oylik ustama haq miqdorlari ham ularning uzoq yillik hizmat davri muddatiga ko‘ra belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining "Prokuratura to‘g‘risida"gi qonuniga ko‘ra (yangi tahriri)⁴⁰ Prokuratura organlari xodimlariga egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi.

Prokuratura organlari xodimlariga muddati o‘ttiz kalendar kunidan iborat haq to‘lanadigan yillik ta’til beriladi. O‘n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan prokuratura organlari xodimlariga besh kalendar kun, yigirma besh yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlarga esa o‘n kalendar kun qo‘srimcha ta’til beriladi.

Uzoq yillik hizmat davri o‘rtta umum ta’lim, kasb-hunar bilim yurtlarida, sog‘liqni saqlash muassasalarida va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ahmiyatga ega.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Mehnat staji nima ?
2. Mehnat stajining ijtimoiy ta’motni amalga oshirilishidagi axamiyati qanday ?
3. Mehnat stajining qaysi turlarini bilasiz ?
4. Umumiyl mehnat staji nima ?

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2001 й. 9-10-сон, 168-модда

5. Maxsus mexnat staji va uning axamyati to‘g‘risida so‘zlab bering.
6. Mehnat stajini hisoblash qanday amalga oshiriladi ?
7. Mexnat staji guvohlar ko‘rsatmasiga ko‘ra aniqlanishiga yo‘l qo‘yiladimi ?
8. Mehnat stajini imtiyozli hisoblash nima ?
9. Mehnat stajini tasdiqlovchi qaysi xujjatlarni bilasiz?
10. Yakka tadbirkorlar, dehqon xo‘jaligi a’zolari, uyda qoramol boquvchi fuqarolarning mehnat stajini hisoblash tartibi qanday ?
11. Chet elda ishlagan davrni mehnat stajiga qo‘shib xisoblash shartlarini bilasizmi ?

Tayanch so‘z va iboralar

Mehnat staji. Maxsus mehnat staji. Uzoq yillik hizmat davri.Davlat ijtimoiy sug‘urtasi badallari.Mexnat stajini hisoblash tartibi. Mehnat stajini tasdiqlovchi xujjatlar. Mehnat stajini guvohlar yordamida belgilash. Mehnat stajini imtiyozli hisoblash. Mexnat daftarchasi. Yakka tadbirkolar mexnat stajini hisoblash tartibi. Yuridik shaxs ta’sis etmagan dehqon ho‘jaligi a’zosining mexnat staji. O‘zini o‘zi ish bilan ta’minlayotgan fuqarolar faoliyatini mexnat stajiga qo‘shib hisoblash.

Glossariylar.

Ish staji - deganda hodim uchun Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqai Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lanishi sharti bilan amalga oshirilgan mehnat va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ijtimoiy foydali faoliyat davri (vaqt) nazarda tutiladi.

Mehnat staji- uning miqdori va sifati fuqaroga ijtimoiy ta’midot berilishida muhim o‘rin tutvchi omil bo‘lib sanaladi. Mehnat staji odatda fuqaroning korxona yoki tashkilotdagi mehnat faoliyat davridan iborat bo‘ladi.

Umumiy ish staji-har qanday ish davri, Shuningdek, quyidagi vaqlar ham umumiy ish stajiga qo‘shib hisoblanadi va pensiya ta’midotida hisobga olinadi.

Maxsus mehnat staji -deganda esa imtiyozli shartlarda ijtimoiy ta'minot (pensiya bilan ta'minlanish) huquqini beradigan ishlar, kasblar, vazifalarda ishlagan davr nazarda tutiladi.

Uzoq yillik xizmat davri-davlat hizmatining muayyan turlari bilan band bo'lgan fuqarolar, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda ma'lum lavozimda yoki faoliyatning muayyan turi bilan band bo'lingani hollarda bu lavr mehnat stajiga hisoblanishdan tashqari qo'shimcha imtiyozlar berilishiga ham asos bishi mumkin. Bunday davnri o'zoq yillik hizmat davri deb nomlanadi.

Testlar.

1.Mehnat staji deganda:

- A)*pensiya jamg'armasiga badallar to'langan davr tuShuniladi
- B)korxonalarda yollanib ishlangan davr tuShuniladi
- S)harbiy xizmat davri tuShuniladi
- D)zararli ish sharoitlarida mehnat qilingan davr tuShuniladi

2.Maxsus mehnat staji deganda:

- A)*ijtimoiy ta'minot olishda imtiyoz beradigan har qanday mehnat staji tuShuniladi.
- B)zararli ish sharoitlarida mehnat qilingan davr tuShuniladi
- S)alohida tusga ega bo'lgan ishlarda ishlangan davr tuShuniladi
- D)harbiy xizmat davri tuShuniladi

3.Katag'on tufayli qamoqda bo'lgan davr mehnat stajiga:

- A)*ikki hissa miqdorida qo'shiladi;
- B)uch hissa miqdorida qo'shiladi;
- S)bir yarim hissa miqdorida qo'shiladi;
- D)uch hissa miqdorida qo'shiladi;

4.Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjat, bu:

- A)*mehnat daftarchasi;
- B)mehnat faoliyatiga oid har qanday yozma hujjatlar;
- S)guvohlar ko‘rsatmasi;
- D)oylik maosh olganlik to‘g‘risidagi hujjatlari

5.Ikkinchi jahon urushida qatnashgan davr mehnat stajiga:

- A)*uch hissa miqdorida qo‘shiladi;
- B)ikki hissa miqdorida qo‘shiladi
- S)bir yarim hissa miqdorida qo‘shiladi;
- D)bir hissa miqdorida qo‘shiladi;

6. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun umumiy qoidaga asosan erkaklarga talab qilinadigan yosh va mehnat stajini aniqlang:

- A) *erkaklar - 60 yoshdan, 25 yillik ish staji bilan
- B)erkaklar - 50 yoshdan, 30 yillik ish staji bilan;
- S)erkaklar – kamida 25 yillik ish staji bilan;
- D)erkaklar - 55 yoshdan, 30 yillik ish staji bilan;

7.Yoshga doir pensiyaga chiqish paytida berilishiga asos bo‘ladigan kasblar va ishlarining ro‘yhatlari:

- A) *uchta
- B)ikkita;
- S)beshta;
- D)to‘rtta

8.Talab etiladigan 20 yillik mehnat stoji mavjud bo‘lмаган тақдирда 55 yoshga kirgan ayolga:

- A)*mavjud ish stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi
- B)yoshga doir pensiya tayinlanaveradi
- S)tayinlanmaydi;
- D)20 yillik staj to‘liq bo‘lgan taqdirda tayinlanadi

9. Mehnatdagi jarohat tufayli nogiron bo‘lgan shaxslarga nogironlik pensiyasi tayinlash uchun ish staji:

- A) *talab qilinmaydi;
- B)yoshiga mutanosib ravishda talab qilinadi;
- S)kamida 5 yil talab qilinadi
- D)TMEK xulosasi asosida

10.Yoshga doir pensiyalarning eng kam miqdorini aniqlang:

- A)* o‘rtacha ish haqining 55 foizi miqdorida;
- B)eng kam oylik ish haqi miqdorida;
- S)18630 so‘m
- D)eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida;

11.YOshga doir pensiyalarning eng ko‘p tayanch miqdorini aniqlang:

- A)* eng kam ish haqi o‘n baravarining 55 %
- B)eng kam oylik ish haqining 7 baravari miqdorida
- S)o‘rtacha ish haqining 75 foizi miqdorida;
- D)202. 730 so‘m.

Tarqatma materiallar.

Mavzuni o‘rganishga doir vaziyatli masalalar

1. Fuqaro Boliev Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga pensiya tayinlashlarini so‘rab murojaat etdi. Yoshi 63 da. Mehnat stoji 12 yil. O‘rtacha ish haqi 250000 so‘m. Bolievga yoshga doir pensiya tayinlash mumkinmi? Agar mumkin bo‘lsa, pensiya miqdorni aniqlang va umumiyl belgilangan yoshdan uch yil keyin murojaat qilganlikning huquqiy oqibati qanday bo‘ladi?

2. Fuqaro Bekaeva Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilib, ayollarga beriladigan imtiyozga muvofiq 54 yoshdan yoshga doir pensiya tayinlashlarini so‘rab murojaat etdi. Biroq Pensiya jamg‘armasi bo‘limi ushbu fuqaroning mehnat stoji 18 yil ekanligi uchun 54 yoshdan pensiya tayinlay olmasliklarini bildirdi. Fuqaro Bekaeva “Fuqarolarning davlat pensiya taminoti to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq bor stajga mutanosib ravishda pensiya tayinlash mumkinligini va shuning uchun o‘ziga 54 yoshdan stajiga mutanosib ravishda pensiya tayinlashlarini talab qildi.

Fuqaro Bekaevaning talabi o‘rinlimi? Ayollarga umumiy belgilangan yoshdan bir yil oldin pensiya tayinlash shartlari nimadan iborat?

3. Fuqaro Berdiyorova Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilib, 2014 yil yoshga doir pensiyaga chiqqanligini va Shu yildan beri mehnat qilib kelayotganligini aytib, pensiya tayinlangandan keyin ishlagan davrini mehnat stajiga qo‘sib, o‘z pensiya miqdorini qayta hisoblashlarini so‘radi. Fuqaro Berdiyorovaning talab qilinganidan ortiqcha ishlaganligi uchun pensiya miqdori ko‘paytiriladimi?
4. Fuqaro Mamajonov Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilib, yoshga doir pensiyaga chiqqanligini va hozirda mehnat shartnomasi asosida emas, balki xususiy tadbirkorlik bilan Shug‘ullanayotganligini aytib, pensiyani yarmini emas, to‘liq to‘lanishini talab qildi?
Fuqaro Mamajonovning talabi o‘rinlimi?
5. Fuqaro Rahimov Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilib, pensiyasini miqdorini hisoblashda ovqat puli, mukofotlar va boshqa ijtimoiy yordam pullarini hisobga olinmaganligi ustidan shikoyat qildi.
Fuqaro Rahimovning talabi o‘rinlimi? Pensiya miqdorini belgilashda qanday to‘lov turlari hisobga olinishini fuqaroga tuShuntirib bering.

4-mavzu. Yoshga doir pensiyalar va nogironlik pensiyalari.

- 4.1. Yoshga doir pensiyalar tushunchasi, turlari va tayinlanishining umumiy asoslari.
- 4.2. Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayinlash va uning shartlari.
- 4.3. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash asoslari.
- 4.4 To‘liqsiz mehnat staji bilan yoshga doir pensiya tayinlash.
- 4.5 Yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash.
- 4.6. Nogironlik pensiyalari tushunchasi, turlari.
- 4.7. Nogironlikni belgilash tartibi.
- 4.8. Nogironlik pensiyasi tayinlash asoslari va shartlari

4.1. Yoshga doir pensiyalar tushunchasi, turlari va tayinlanishining umumiy asoslari.

Pensiyaga chiqish yoshiga etgan fuqaro belgilab qo‘yilganidan (erkaklar - kamida 25 yil, ayollar - kamida 20 yil) kam, ammo kamida 5 yil mehnat stajiga ega bo‘lgani taqdirda ham (masalan 5 yil yoki 10 yillik ish staji bilan) pensiya tayinlashlarini «Yoshga doir pensiya» tushunchasi qonunchiligidan nisbatan yangi bo‘lib, dastavval O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarni davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan qonunida muomalaga kiritildi. Qarilik va yoshga doir pensiya tayinlash yoshi tuShunchalari o‘rtasida jiddiy tafovut bor bo‘lib, yoshga doir pensiya tayinlanganligi har doim ham fuqaroning qari ekanligini anglatavermaydi va qonunchilikda 50 yosh, 45 yosh va hatto 40 yoshdan pensiyaga chiqish mumkinligini nazarda tutiladi. Vaholanki 40 yoshli, 50 yoshli va hatto 60 yoshli shaxsni qariya deb atash ko‘pchilik hollarda g‘ayrioddiy tuyuladi.

Turmush kechirish darajasining yaxshilanib borishi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sifatining ortib borishi tufayli o‘rtacha umr kechirish yoshining uzayishi, keksalik chegarasi yanada ortishi kuzatiladi. Mamlakat aholisining qarib borishi ko‘rsatkichi shuni ko‘rsatadiki, pensiya yoshidagi aholining soni o‘sish tendensiyasiga ega (2010 yildagi aholining umumiy soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018 yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9 foizdan ortadi va 2025 yilga borib 11 foizga etadi (2011 yildagi 6,2 foizga nisbatan).

Shu bilan birga, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu pensiya yoshi hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar Shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun –58 yosh. Qozog'istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga etkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo'li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi⁴¹.

Bugungi kunda Jahon bankining bergan prognozlariga ko'ra O'zbekiston aholisi 2050 yilga borib 39 mln. kishiga etishi kutilmoqda. Mamlakatdagi o'rtacha umr davomiyligi ko'rsatkichi 68 yildan 72 yilga oshadi va 65 yoshdan katta bo'lган iqtisodiy faol aholi ulushi 4,4%dan 13,4%ga etishi mumkin⁴².

Yoshga doir pensiya fuqaroning mehnat qobiliyati yo'qolishi yoki pasayishi bilan bog'lanmagan bo'lib, muayyan yoshga etishi va qonunda nazarda tutilgan hajmdagi ish stoji mavjudligi asosida butun umrga tayin etiladigan davlat ta'minoti turlaridan biri hisoblanadi hamda bunda fuqaroning mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan bo'lishi lozimligi talab etilmaydi. Yoshga doir pensiya aslida fuqaroning o'tgan davrlardagi mehnat faoliyati, jamiyat boyliklari ko'payishiga qo'shgan hissasi uchun jamiyat unga beradigan moddiy ta'minot, mamlakat milliy daromadining taqsimlanishidan iboratdir.

Hozirgi paytda amalda bo'lган «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi hamda «Harbiy xizmatchilarni pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunlarga muvofiq yoshga doir pensiyalarning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

- 1) Umumiy asoslardagi yoshga doir pensiya;
- 2) Imtiyozli shartlar bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
- 3) To'liqsiz ish stoji bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
- 4) Muddatidan oldin tayinlanadigan yoshga doir pensiya;

⁴¹ Молия вазирлиги хузуридаги Бюджетдан ташкари Пенсия жамғармаси давлат пенсия тизимини ислоҳ қилиш концепцияси лойихаси ишлаб чиқди. 2018 йил

⁴² www.interfinance.uz

5) Xarbiy xizmatchilarning uzoq yillik xizmat uchun pensiyalari.

4.2. Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayinlash va uning shartlari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasiga ko‘ra har kim qariganda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega.

23-moddaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuning 1 - moddasiga esa «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta’minlanish huquqiga egadirlar, deb ko‘rsatilgan.

Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy istiqomat qiluvchi chet el fuqarolari va fuqaroligi yo‘q shaxslarni pensiya bilan ta’minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, basharti davlatlararo bitimlar (shartnomalar)da o‘zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar.

Ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta’minlanish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo‘yadi».

Demak, korxona va tashkilotlarda yollanib (mehnat shartnomasi tuzib) ishlagan yoki bo‘lmasa boshqacha tarzda ijtimoiy foydali faoliyat (jamoa xo‘jaligi, fermer-dehqon xo‘jaligi, yakka tartibdagi tadbirkor sifatida, erkin ijodkor tarzida va hokazo) bilan shug‘ullangan shaxslar, basharti ular uchun ish beruvchilar tomonidan (kooperativlar, yakka tartibdagi tadbirkorlarning o‘zlarii tomonidan) byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga davlat ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lab kelingan bo‘lsa; yoshga doir pensiya olishga haqli bo‘ladilar. Basharti ish beruvchining aybi bilan (bo‘yin tovashi yoki to‘lovga qobiliyatsizligi sababli)

sug‘urta badallari to‘lanmagan bo‘lsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 283-moddasida xodimlarning yoshga doir pensiyalarni va boshqa pensiyalarni olish huquqlari kafolatlanaverishi ko‘rsatib quyilgan.

Faoliyatning muayyan turlari bilan mashg‘ul bo‘lgan shaxslar (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organi xodimlari, boshqa ba’zi davlat xizmatchilari) ular uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘langan to‘lanmaganligidan qat’i nazar umumiy asoslarda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston hududidan tashqarida yashayotgan fuqarolar pensiya ta’mnoti masalalari umumiy qoidaga ko‘ra ular yashayotgan mamlakatning milliy qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Fuqarolarni pensiya ta’mnoti sohasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama davlatlararo yoki hukumatlararo xalqaro shartnomalar tuzilishi yo‘li bilan o‘zaro hamkorlik amalga oshiriladi, ushbu asosda bir davlat fuqarolarini boshqa bir davlatda ijtimoiy himoyalash, shu jumladan yoshga doir pensiyalar bilan ta’minalash amalga oshiriladi. Bugungi kunda ana shunday o‘zaro yordam ko‘rsatish masalasi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining bir qator davlatlar bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama ahslashuvlari mavjud bo‘lib, amal qilib kelmokda⁴³.

Fuqarolarda pensiya olish huquqi paydo bo‘lganida (muayyan yoshga etgan va ish stajiga ega bo‘lganda) istagan paytda pensiya tayinlanishini so‘rab murojaat qilish huquqi berilgan yoki bu huquqdan voz kechganlari holda o‘zlari xohlagan vaqtgacha mehnat faoliyatlarini davom ettirishlari mumkin.

Fuqaro qonunga ko‘ra bir necha pensiya turini olishga ayni paytda haqli bo‘lib qolgani taqdirda (masalan, nogironlik pensiyasi yoki uzoq yillik xizmat pensiyasini olib kelgan shaxs qarilik pensiyasi olish yoshiga etsa) bu pensiyalardan faqat bittasini olishga haqli bo‘ladi va pensiya turini tanlash huquqi fuqaroga berilgan.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasiga ko‘ra yoshga doir pensiya olish huquqiga:

⁴³ Каранг: Мустақил давлатлар қамдўстлиги аъзоси бўлган мамлакатлар ўртасида 1992 йил 13 январдаги хукуматлараро битим ва бошқалар.

erkaklar - 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar - 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar.

Yoshga doir pensiya tayinlash paytida O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunining 37-moddasida sanab ko‘rsatilgan barcha faoliyat turlari mehnat stajiga qo‘sib hisoblanadi. Ammo bunda haqiqiy ishlagan davrga ko‘ra hisoblanadigan mehnat staji bilan shartli ravishda e’tiborga olinadigan mehnat staji (bolalar parvarishi bilan mashg‘ul bo‘lgan davr, amalda ishlamagan bo‘lsada, qonun hujjatlariga ko‘ra ish stajiga qo‘sib hisoblanadigan boshqa davrlar) o‘rtasidagi o‘zaro nisbat nazarda tutib qo‘yilgan.

Xullas, fuqarolarga umumiylasoslarda yoshga doir pensiya tayinlanishining asosiy shartlari va bunday huquq yuzaga kelishiga sabab bo‘ladigan yuridik fakt bo‘lib quyidagilar sanalishi mumkin :

- a) fuqaroning belgilangan yoshga yetganligi;
- b) muayyan hajmdagi ish stajiga ega ekanligi;
- v) fuqaroni yoshga doir pensiya tayinlashlikni so‘rab ariza bilan murojaat qilishi .

4.3. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash asoslari.

Qonun hujjatlarida fuqarolarga ularning kasbi, mehnat sharoitlarining xususiyatlari va boshqa omillar e’tiborga olingani holda odatdagidan afzalroq shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash nazarda tutilgan. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlanishi aslida shaxs noqulay, zararli yoki ruhiy-fiziologik jihatdan tang sharoitlarda ishlaganligi, Shu orqali o‘z sog‘lig‘i va hayotini xavf ostida qoldirgani holda jamiyatga ko‘proq foyda keltiruvchi faoliyat turi bilan Shug‘ullanganligi uchun jamiyat tomonidan tovon to‘lanishidan iboratdir.

Bunda fuqaro yoshga doir pensiyaga chiqish paytida quyidagi imtiyozlarni qo‘lga kiritishi mumkin:

- 1) pensiyaga chiqish uchun belgilangan yoshning odatdagidan kamroq belgilanganligi;

- 2) talab etiladiganidan kamroq mehnat stajiga ega bo‘lgan hollarda ham pensiya tayinlanishi;
- 3) pensiya miqdorini hisoblash paytida afzallik berilishi;
- 4) pensioner ishni davom ettirgani taqdirda ham afzallik berilishi va boshqalar.

Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlashning umumiy asoslari «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunning 9-moddasida nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ro‘yxatlarga⁴⁴ muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega.

Jumladan, "Fuqarolarning davlat pensiya taminoti to‘g‘risida"gi qonunni 10-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 1-sonli ro‘yxatiga ko‘ra yoshidan qat’i nazar quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:

- a) kon sanoatidagi etakchi kasb egalari bo‘lgan xodimlar-basharti, ular ana Shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo‘lsalar (1-sonli ro‘yxat, I qism);
- b) bevosita er osti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko‘mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar-basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo‘lsalar (1-sonli ro‘yxat, II qism);
- v) uchuvchilar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (1-sonli ro‘yxat, III qism).

⁴⁴ Қаранг : Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 12 майдаги 250-сон қарори билан тасдиқланган “Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқукини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхати”. Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорлари тўплами. 1994., 5-сон, 27-модда. (Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 1 мартағи 103-сонли ва 2001 йил 6 апрелдаги 162-сонли қарорлари билан ўзгаришишлар киритилган)

Yuqorida qayd etib o‘tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko‘ra uchish ishlaridan bo‘shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini-erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo‘lsalar;

g) teatrler va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari:

ijodiy ish staji kamida 20 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, IV qism); ijodiy ish staji kamida 25 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, V qism); ijodiy ish staji kamida 30 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, U1 qism);

d) sportchilarning ayrim toifalari-ish staji kamida 20 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, VII qism).

"Fuqarolarning davlat pesiya taminoti to‘g‘risida"gi qonunni 11-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydag‘i 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 2-sonli ro‘yxatiga ko‘ra :

Oxirgi ish joyidan qat’i nazar, quyidagilar belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:

a) yer osti ishlarida, mehnat sharoiti o‘ta zararli va o‘ta og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar (2-sonli ro‘yxat, I qism):

erkaklar-ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 10 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda;

ayollar-ish staji kamida 15 yil bo‘lib, bundan kamida 7 yilu 6 oyi ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda.

Yer osti ishlaridagi mehnat staji erkaklarda 10 yildan kam va ayollarda 7 yilu 6 oydan kam bo‘lgan hollarda xodimlarga bu ishlardagi har bir to‘liq yil uchun ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi 1 yilga qisqartiriladi.

"Fuqarolarning davlat pesiya taminoti to‘g‘risida"gi qonunni 12-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 3-sonli ro‘yxatiga ko‘ra :

Oxirgi ish joyidan qat‘i nazar, quyidagilar 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar:

- a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- b) mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan xodimlar (3-sonli ro‘yxat, I qism):

erkaklar-ish staji kamida 25 yil bo‘lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda;

ayollar-ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 10 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda. Mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda erkaklar kamida 6 yilu 3 oy, ayollar kamida 5 yil-ishlagan xodimlarga pensiya ushbu Qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi erkaklarning bunday ishdagi har 2 yilu 6 oy uchun va ayollarning bunday ishdagi har 2 yili uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

v) qishloq xo‘jaligi xodimlarining ayrim toifalari (3-sonli ro‘yxat, II qism):

erkaklar-umumiyl ish staji kamida 25 yil bo‘lib, bundan kamida 20 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda;

ayollar-umumiyl ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 15 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda;

g) traktorchi-mashinist, traktorlar va ekskavatorlar negizida yig‘ilgan qurilish, yo‘lsozlik va yuk ortish-tushirish mashinalarining mashinisti bo‘lib ishlagan ayollar-umumiyl ish staji kamida 20 yil bo‘lib, bundan kamida 15 yili ko‘rsatib o‘tilgan ishlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda (3-sonli ro‘yxat, III qism);

e) to‘qimachilik ishlab chiqarishi dastgohlari va mashinalarida ishlagan

ayollar-ko'rsatib o'tilgan ishdagi staji kamida 20 yil bo'lган taqdirda (3-sonli ro'yxat, V qism);

j) shahar yo'lovchilar tashish transporti haydovchilari (3-sonli ro'yxat, VI qism):

erkaklar-kamida 25 yil ish stajiga ega bo'lib, bundan kamida 20 yili ko'rsatib o'tilgan ishga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar-kamida 20 yil ish stajiga ega bo'lib, bundan kamida 15 yili ko'rsatib o'tilgan ishga to'g'ri kelgan taqdirda;

z) besh va undan ortiq farzand tuqqan va ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan ayollar hamda bolalikdan nogiron farzandlarning onalari ularni Shu yoshgacha tarbiyalagan bo'lsalar-bolani parvarishlash uchun ketgan vaqtini qo'shib hisoblaganda (37- moddaning "d" va "j" bandlari) ish staji kamida 20 yil bo'lsa yoki bolani parvarishlash uchun ketgan vaqt qo'shilmaganda ish staji kamida 15 yil bo'lган takdirda.

Basharti, ayol o'gay o'g'il va o'gay qizni ular 8 yoshga to'lguncha kamida 5 yil tarbiyalagan bo'lsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadilar;

i) ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar: erkaklar-umumiyl ish staji kamida 25 yil bo'lib, bundan kamida 20 yili ko'rsatib o'tilgan mintaqaga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar-umumiyl ish staji 20 yil bo'lib, bundan kamida 15 yili ko'rsatib o'tilgan mintaqaga to'g'ri kelgan taqdirda;

k) Ixtisolashtirilgan o'rta maxsus ta'lim muassasalarining o'qituvchilari - maxsus ish staji kamida 25 yil bo'lган taqdirda (3-sonli ro'yxat, VII qism);

l) Maxsus davolash muassasalarinin shifokorlari va boshqa tibbiy xodimlar- maxsus ish staji qishloq joyda kamida 25 yil va shaharlarda kamida 30 yil bo'lган taqdirda (3-sonli ro'yxat, VIII qism);

m) ijtimoiy ta'minot tizimining qariyalar, nogironlar va yolg'iz fuqarolarga xizmat ko'rsatishda bevosita band bo'lган xodimlari (3-sonli ro'yxat, IX qism):

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi va Ijtimoiy ta’minot vazirliklarining 1994 yil 26 iyundagi qarori bilan «Yoshga doir imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarning 1, 2 va 3-ro‘yxatlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi tushuntirish tasdiqlangan bo‘lib⁴⁵, unda ro‘yxatlardagi imtiyozlarni turli sharoitlarda tatbiq etishning alohida jihatlari hamda o‘ziga xos qoidalari belgilab berilgan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunni 12-1-moddasiga ko‘ra mazkur Qonunning 37-moddasi “a”, “b”, “v” va “g” bandlarida nazarda tutilgan kamida yigirma yillik ish staji bo‘lgan ayollar ellik to‘rt yoshga to‘lganda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar;

Xususan, bunday imtiyozdan foydalanish huquqini beradigan ish staxdari jumlasiga quyidagilar kiradi :

- faoliyat turi, mulk va xo‘jalik yuritish shakllaridan qat’i nazar,xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug‘urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan bo‘lsa.

1965 yildan keyingi davr uchun jamoa xo‘jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda, agar jamoa xo‘jaligi a’zosi uzsiz sabablarga ko‘ra jamoa xo‘jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo‘lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi.

Ijodiy faoliyat bilan mashg‘ul xodimlarning ish stajini, basharti ular O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari to‘lagan bo‘lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e’lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e’tiboran belgilaydilar;

⁴⁵ Каранг: «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонунига шархлар. Т., 1996 йил, 20-бет.

- harbiy xizmat va partizan otryadlari hamda qo'shilmalarida bo'lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;
- idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soqchilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog'-kon-qutqaruv qismlaridagi xizmat;
- yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan yakka (guruqli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo'jaligidagi faoliyat-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan taqdirda. Bunday imtiyoz berilishida mehnat stajining boshqa turlari (Mas.bola parvarishlar vaqt, nogiron yoki keksa yoshdag'i oila a'zosiga qarab turgan vaqt va boshqalar) hisobga olinmaydi.

O'zbekiston respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunni 13-moddasida liliputlar va pakanalarga imtiyozli yoshga doir pensiya nazarda tilgan. Unga ko'ra:

gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga basharti erkaklar-ish staji kamida 20 yil bo'lganda va ayollar-ish staji kamida 15 yil bo'lganda ushbu asos bilan yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'ladilar.

4.4 To'liqsiz mehnat staji bilan yoshga doir pensiya tayinlash.

Bunday holda fuqaroga mavjud mehnat stajiga mutanosib ravishda va to'liq pensiyaning taqdim etilgan mavjud mehnat stajiga mos keluvchi hajmda to'liq bo'limgan yoshga doir pensiya tayinlanishi mumkin. Bunday pensiyani hisoblab chiqarish qoidalari, pensiyaning eng kam miqdori va boshqa masalalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tarzda hisoblanadi.

Ish staji to'liq bo'limgan chog'dagi pensiyalar (8 - modda) bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish staji to'liq bo'limgan chog'dagi pensiyalar:

yoshga doir pensiyalar uchun-eng kam oylik ish haqining 50 foizidan kam bo'lmashligi lozim.

Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, aspiranturada, doktoranturada va klinik ordinaturada kunduzgi o‘qish, Shu jumladan chet elda o‘qish davri, onaning go‘daklik yoshida parvarishlagan vaqt, (lekin ko‘pi bilan hammasini jamlaganda 3 yil doirasida), ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarning, praporshchiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari xizmat harbiy xizmatchilarining xotinlari, ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo‘lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, (lekin 10 yildan oshmagan davr), O‘zbekiston Respublikasi muassasalari va xalqaro tashkilotlar xodimlari xotinlarining chet elda bo‘lgan vaqt (lekin 10 yildan oshmagan davr).

4.5 Yoshga doir pensiyalarini muddatidan oldin tayinlash

Mehnat shartnomasining ish beruvchi tashabbusiga ko‘ra va hodimga bog‘liq bo‘lmagan hamda u aybdor bo‘lmagan tarzda bekor bo‘lishi chog‘ida qonun ishdan bo‘shatilgan xodimga qo‘srimcha kafolat va imtiyozlar beradi. Muddatidan avval pensiyaga chiqarish ana shunday imtiyozlardan sanaladi. "Fuqarolarni davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida" gir qonunni 14-moddasiga ko‘ra: texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e’tirof etilgan shaxslar:

erkaklar-58 yoshga to‘lganda va ish stoji kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda;

ayollar-53 yoshga to‘lganda va ish stoji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar. O‘zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 7 yanvarda 588-son bilan davlat ro‘yxatigaoligan "Alovida asoslarga ko‘ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo‘shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomasi"ga ko‘ra⁴⁶ Muddatidan oldin yoshga doir pensiya texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar,

⁴⁶ "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2008 йил, 50-сон, 498-модда.

xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi, yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashuvchi markazi (bundan keyingi o‘rinlarda Bandlikka ko‘maklaShuvchi markaz deb yuritiladi) tomonidan belgilangan tartibda ishsiz deb e’tirof etilgan, pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo‘lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonun hujjatlarida belgilangan umumiy asoslarga ko‘ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin) pensiya tayinlanadi.

Pensiya yoshi arafasidagi fuqarolarga muddatidan oldin pensiya:
erkaklarda ish staji kamida 25 yil;
ayollarda ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda tayinlanadi.

Ishdan ozod etilgan shaxslar mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan so‘ng o‘n kun ichida o‘zlarining yashash joyidagi Bandlikka ko‘maklashish markaziga ish qidiruvchi shaxs sifatida murojaat qilsalar, Bandlikka ko‘maklashish markazi xodimlari bunday shaxslarga uch oy muddat ichida, agarda ular o‘n kalendar kundan keyin murojaat qilsalar o‘n kun muddat ichida maqbul keladigan ishni topishda yordam berishlari kerak.

Bandlikka ko‘maklashish markazi ishsiz deb e’tirof etilgan va muddatidan oldin yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarga belgilangan shaklda taqdimnomalar tayyorlaydi va 5 kun muddat ichida tegishli tuman (shahar) Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman bo‘limiga topshiradi va ijtimoiy ta’minot bo‘limi tomonidan muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlashga asos bo‘lib hisoblanadi va Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman bo‘limi tomonidan mudjdatidan oldin pensiya tayinlanishi uchun asos bo‘ladi.

Muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to‘lash byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ajratiladigan Ish bilan ta’minlashishga ko‘maklashuvchi davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Pensiyani olayotgan fuqarolar umumiy asoslarda pensiya olish yoshiga (erkaklar 60 yoshga, ayollar

55 yoshga) etgunga qadar ishga kirgan hollarda muddatidan oldin pensiya to‘lash to‘xtatiladi.

Mehnat shartnomasi boshqa sabablarga ko‘ra bekor qilinsa, muddatidan oldin pensiya qayta tayinlanmaydi va avval tayinlangan pensiya to‘lovi ham tiklanmaydi.

4.6. Nogironlik pensiyalari tushunchasi, turlari.

Mamlakatimizda izchil amalga oshirib kelinayotgan kuchli ijtimoiy muofazalash siyosatida nogironlar huquq va manfaatlarini ta’minlash, ular uchun qo‘sishimcha kafolat va imtiyozlar berishga qaratilgan tadbirlar etakchi o‘rinda turadi hamda ijtimoiy himoya uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag‘larning katta qismi nogironlar uchun qulay hayot va mehnat sharoyitlari yaratish, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish maqsadlariga yo‘naltiriladi. (2019 y.8 yanvar holatiga-bolalikdan nogirironlarga pensiya miqdori: 396.500).

Nogironlarga nisbatan yuritilayotgan ijtimoiy himoya siyosatimiz mazmun-mohiyati bu sohadagi qonunchiligidan, uning huquqiy bazasini tubdan yangilashga qaratilgan ishlarimizda o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan, 2008 yil 11 iyulda "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonunni yangi taxrirda qabul qilinishi⁴⁷, nogironlar huquqlarini yanada kuchliroq muxofaza etishga qaratilgan yangi qonun hujjatlarini qabul qilinishi, nogironlarni moddiy-ijtimoiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash yuzasidan Davlat dasturi va boshqa tadbirlari qabul qilinib, amalga oshirib kelinayotgani fikrimzning dalili bo‘laoladi.

"Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi qonunni 5-moddasiga ko‘ra: "Davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida ularning ijtimoiy yordam hamda himoya chora-tadbirlariga bo‘lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta’minlanishini, nogironlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlaridagi dasturlar amalga oshirilishini, nogironlarning jamiyat bilan uyg‘unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini, nogironlarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilishni ta’minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilishini kafolatlaydi". Davlatimizning nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi siyosati quyidagi

⁴⁷ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2008 й. 7-сон, 353-модда

asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

nogironlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

nogironlarning kmsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

nogironlarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish;

nogironlarning huquqlari va ular uchun imkoniyatlar tengligini ta’minlash;

nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash;

nogiron bolalarning maktabgacha va maktabdan tashqari ta’limini, nogironlarning kasb tayyorgarligini, umumiyl o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim olishini ta’minlash;

davlat organlari hamda ular mansabdar shaxslarining nogironlar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash borasidagi faoliyatining oshkorligini hamda ochiq-oydinligini ta’minlash;

nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

nogiron deganda jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklangan, qonun hujjatlarida belgalangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs nazarda tutiladi.

- jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan shaxslar nogiron bolalar sanaladilar.

nogironlarga turmush faoliyati cheklanganligini bartaraf etishi, qoplashi (kompensatsiya qilishi) uchun shart-sharoitlarni ta’minlovchi hamda ularga jamiyat hayotida boshqa fuqarolar bilan teng ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tazimi nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini tashkil qiladi.

Muayyan shaxs organizmining barcha tizimlarini kompleks tekshirish asosida uning sog‘lig‘ini yo‘qotganlik darajasini, organizmi funksiyalari turg‘un buzilishi oqibatida turmush faoliyatining cheklanganlik darajasini, nogironlik guruhini, nogironlikning yuz berganligi sabablari hamda vaqtini aniqlash, shuningdek shaxs uchun sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra amalga oshirishi mumkin bo‘lgan mehnat faoliyati turlari va mehnat sharoitlari, o‘zgalarning parvarishiga, sanatoriy-kurortda davolanishning tegishli turlariga hamda ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojlari haqida tavsiyalar tayyorlash tibbiy-ijtimoiy ekspertiza qilish orqali aniqlanadi.;

Shaxsni, shu jumladan o‘n olti yoshdan katta fuqarolarni nogiron deb topish tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan, o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolalarni nogiron deb topish esa, tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nogironlarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- pul to‘lovlar (pensiyalar,, bir yo‘la beriladigan to‘lovlar);
- texnika vositalari yoki boshqa vositalar, shu jumladan avtomobillar, o‘rindiqli aravachalar, protez-ortopediya buyumlari, maxsus harfli matbaa nashrlari, ovoz kuchaytirgich apparatlar va signalizatorlar bilan ta’minlash;
- tibbiy, kasbiy, ijtimoiy reabilitatsiya qilish va maishiy xizmatlar ko‘rsatish;
- transport xizmatlari ko‘rsatish;
- dori vositalari bilan ta’minlash.

4.7. Nogironlikni belgilash tartibi. Nogironlik guruhlari va nogironlik sabablari

Nogironlik pensiyalari tayinlash paytida qonunchilik va ijtimoiy adolatni ta'minlash shartlaridan biri - o'z vaqtida, to'g'ri, holisona yondashgan holda nogironlik yuz bergenligi faktining belgilanishidir.

Nogironlik pensiyalari tayinlash uchun nogironlikni, uning sabablari, yuz bergen muddatini belgilash vakolati tibbiy mehnat ekspertizasi komissiyasi (TMEK)ga berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 8 avgustdagি 175-son qaroriga muvofiq "Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari to'g'risida nizom" tasdiqlangan bo'lib⁴⁸⁴⁹, ularga shaxsni nogiron deb e'tirof etish vakolati berilgan.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari faoliyati hududiy prinsip bo'yicha amalga oshiriladi.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarining xulosalari kollegial, TMEK a'zolarining mutlaq ko'pchilik ovoz berishi asosida qabul qilinadi hamda uning tavsiyalari ish beruvchilar, davolash-profilaktika, tibbiy-ijtimoiy, sport muassasalari va boshqa tashkilotlar uchun majburiy hisoblanadi.

Quyidagilar TMEKning asosiy vazifalari hisoblanadi:

-davolash-profilaktika muassasalari tomonidan taqdim etilgan tibbiy hujjatlar va fuqarolarni ko'rikdan o'tkazish natijalari asosida hayot faoliyatining cheklanganligini ekspertiza qilish, nogironlik guruhini, sabablarini, uning boshlangan vaqtini va nogironlik muddatlarini belgilash;

-nogironlar uchun ijtimoiy muhofaza chora-tadbirlarini belgilash; -nogironlarni rehabilitatsiya qilishning yakka tartibdagи dasturlarini ishlab chiqish va ularni bajarishga ko'maklashish hamda nogironning hayot faoliyatini yoki organizmi funksiyalarini to'liq yoki qisman tiklash,

nogironlik guruhini pasaytirish yoki barqarorlashtirish asosida ushbu tadbirlarning samaradorligini baholash;

-nogironlikning holatini, o'zgarishini va unga sabab bo'lgan omillarni tahlil qilish, nogironlikning oldini olish, nogironlarni tibbiy-mehnat ekspertiza,

⁴⁸ "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2008 йил, 33-сон, 314-модда

reabilitatsiya, ijtimoiy muhofaza qilish sohasida kompleks dasturlarni ishlab chiqishda qatnashish.

Fuqarolarni tibbiy tekshirishdan o'tkazish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi :

mehnatga layoqatlilikning holatini, nogironlik guruhi, sabablari, boshlanish vaqtini va muddatlarini aniqlash;

-mehnat majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan yoki sog'lig'i boshqacha shikastlangan ishlovchilarning mehnatga layoqati yo'qolganligi darajasini va ularning yordamning qo'shimcha turlariga muhtojligini aniqlash;

-nogironlarning sog'lig'ining holati va mehnat layoqatini hisobga olgan holda ularni tibbiy va ijtimoiy-mehnat jihatidan reabilitatsiya qilish choralarini belgilash;

-nogironlarni ishga joylashtirish yuzasidan tavsiyalar berish .

Fuqarolarni tibbiy tekshirishdan o'tkazish TMEKda bepul amalga oshiriladi.

Tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limlarining yo'llanmasi bo'yicha tibbiy tekshirish maqsadlari ko'rsatilgan holda TMEK 16 yoshdan kichik shaxslarni ham tibbiy tekshirish uchun qabul qilishi mumkin.

Aynan bir kasallik bilan bog'liq holatda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangan kundan boshlab uzluksiz muddat birvarakayiga 4 oydan ortiqni tashkil etadigan uzoq muddat kasal bo'lgan shaxslar (sil kasalligiga chalingan bemorlardan tashqari);

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri aynan bir kasallikka chalinganda tanaffuslar bilan 6 oy mobaynida, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangan kundan boshlab 12 oy mobaynida davom etgan shaxslar (sil kasalligiga chalingan bemorlardan tashqari);

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri kasallik aniqlangan kundan boshlab kamida 10 oyni tashkil etadigan kasallik birinchi marta aniqlangan silga chalingan bemorlar, Shuningdek asosiy kasallik kuchayganda - vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangan kundan boshlab kamida 6 oy silga qarshi muassasalarda hisobda turgan sil kasaliga chalingan bemorlar tibbiy tekshirish uchun qabul

qilinadilar.

Tibbiy tekshirish TMEK majlisida to‘liq tarkibda o‘tkaziladi.

Tibbiy tekshirishdan o‘tkazish shaxsni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va kasallik tarixini, ambulatoriya kartasini, Shuningdek bemor ular asosida tibbiy tekshirishga yo‘naltirilgan boshqa hujatlarni o‘rganish yo‘li bilan amalgamashiriladi. Tibbiy tekshirish ma’lumotlari va TMEK qarori o‘sha kuni to‘ldiriladigan, TMEK raisi va a’zolari tomonidan imzolanadigan va muhr bilan tasdiqlanadigan tibbiy tekshirish dalolatnomasiga va TMEK majlisi bayonnomasiga kiritiladi.

TMEK tibbiy tekshirishi dalolatnomasidan ko‘chirma "Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan pensiyalarga ustamalarni hisoblab chiqishda nogironlik bo‘yicha pensiya tayinlash, Shuningdek zarur hollarda boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya tayinlash uchun asos hisoblanadi

TMEK tibbiy tekshirish natijalari bo‘yicha nogironlik guruhini, sabablari va muddatlarini belgilash to‘g‘risida;

qo‘sishimcha ravishda tekshirish va klinik tashxisni aniqlashtirish uchun DPMga yuborish to‘g‘risida;

tibbiy tekshirishdan o‘tayotgan to‘liq davolanishi zarurligi munosabati bilan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini uzaytirish to‘g‘risida;

protez-ortopediya buyumlari, nogironlik aravachalari va reabilitatsiyaning boshqa texnik vositalari bilan ta’minalashga ehtiyoj to‘g‘risida;

mehnat qilish bilan bog‘liq tavsiya, nogironning o‘qish yoki qayta o‘qishga ehtiyoji to‘g‘risida;

o‘zganing parvarishiga muhtojlik to‘g‘risida xulosalarini chiqarishi mumkin:

Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 8 avgustdagি 175-sон qaroriga ko‘ra" tibbiy tekshirishdan qayta o‘tkazish muddati ko‘rsatilmasdan nogironlik guruhi belgilanadigan kasalliklar RUIXATI" tasdiqlangan bo‘lib, bu Ro‘yxatga:

I. Ichki organlar kasalliklari ;

II. Asab-psixik kasalliklar;

III. Jarrohlik kasalliklari hamda anatomik nuqsonlar va deformatsiyalar;

IV. Qulqoq, tomoq va burun kasalliklari;

V. Ko‘z shikastlanishi va kasalliklari kiritilgan.

Shuningdek, mazkur Ro‘yxatga nogironlik guruhi muddatsiz belgilanadigan hollar ham ilova qilingan va quyidagi hollarda nogironlik muddatsiz belgilanadi:

60 yoshdan katta nogiron erkaklarga va 55 yoshdan katta nogiron ayollarga.

Keyingi 5 yil va undan ortiq yil mobaynida nogironlikning I yoki II guruhi belgilangan, 5 yil mobaynida DPMda to‘liq dispanser ko‘rigidan o‘tgan, reabilitatsiya dasturlari bajarilgan, Shuningdek reabilitatsiyaning barcha turlari istiqbolsiz bo‘lgan, tiklab bo‘lmaydigan anatomik-funksional buzilishlar yoki zo‘rayuvchi kasalliklarga duchor bo‘lgan nogironlarga.

Oxirgi 7 yil mobaynida nogironlik guruhi o‘zgarmagan III guruh nogironlariga.

4.8. Nogironlik pensiyasi tayinlash asoslari va shartlari

Nogironlik pensiyalariga chiqish huquqiga ikki xil sababga ko‘ra nogiron bo‘lib qolgan va belgilangan tartibda nogiron ekanligi tasdiqlangan fuqarolar ega bo‘ladilar.

Bular: birinchidan, mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish, ushbu sabablarga tenglashtirilgan holdagi (urush nogironlari, harbiy xizmat burchini bajarish paytida yuz bergen va boshqa sabablarga ko‘ra sodir bo‘lgan nogironliklar bo‘lsa; ikkinchidan, turmushda olingan jarohatlar (maishiy sabablarga ko‘ra mayiblanish) yoki umumiy kasalliklar (ish bilan bog‘liq bo‘lmasan) oqibatidagi nogironliklardan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish yoki kasb kasalliklari tufayli nogironlik yuz bergenida nogiron shaxsning mehnat staji va uning miqdoridan qat’i nazar pensiya to‘liq miqdorda tayinlanaveradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagি

qarorining 7-ilovasida nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida kelib chiqqan deb hisoblanadigan nogironlik sabablari ro‘yxati ko‘zda tutilgan.

Agar nogironlik keltirib chiqaruvchi jarohatlanish, zaharlanish, issiq urishi, kuyish, sovuq urishi, cho‘kish yoki avariyalari tufayli salomatlikning boshqacha shikastlanishi quyidagi hollarda sodir bo‘lsa (elektr toki yoki yashin urishi, Shuningdek, tabiiy ofatlar g‘ayriqonuniy xatti-harakatlardan tashqari), nogironlik mehnatda mayiblanish tufayli sodir bo‘lgan deb hisoblanadi:

- a) mehnat vazifalarini bajarishda (shu jumladan, xizmat safari vaqtida), shuningdek, korxona yoki tashkilot manfaatlari yo‘lida hatto maxsus topshiriqsiz biron ish bajarganda;
- b) korxona, tashkilot xududida yoki boshqa ish joyida ish vaqt davomida (belgilangan tanaffus vaqtি ham shunga kiradi), shuningdek, ish boshlanishi yoki tugashi oldidan ishlab chiqarish qurollarini, kiyim-bosh va boshqalarni tartibga keltirish uchun zarur bo‘lgan vaqt davomida;
- v) ish vaqt davomida (belgilangan tanaffuslar ham Shunga kiradi) korxona, tashkilot yoki boshqa ish joyi yaqinida, agar u erlarda bo‘lish ichki mehnat tartibi qoidalariga zid bo‘lmasa;
- g) ishga borayotganda yoki ishdan qaytayotganda;
- d) vaxtali shaharcha hududida vaxta-ekspeditsiya usuli bilan va tabiiy ofat vaqtida smenali dam olishda bo‘lgan xodim bilan yuz berganda;
- e) davlat yoki jamoat vazifalarini bajarishda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalariга muvofiq belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan jamoat tashkilotlarining topshiriqlarini (garchi bu topshiriqlar asosiy ish bilan bog‘liq bo‘lmasa ham) bajarishda;
- j) inson hayotini saqlab qolish, O‘zbekiston Respublikasi davlat va jamoat mulkini, fuqarolar mulkini, huquq-tartibotni qo‘riqlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi burchini bajarish vaqtida;

z) ish kuni davomida ma'muriyatning (bo'lim, bo'linma, sex, uchastka rahbarlarining va shu kabilarning) xodimning vazifasiga kirmaydigan topshiriqlarini bajarish vaqtida;

i) donorlik vazifasini bajarish munosabati bilan.

Nogironlikning yuz berish sabablari ishlab chiqarishda yuz bergen voqeahodisalar bilan qay darajada bog'liqligini aniqlash paytida yuqorida keltirilgan ro'yxatdan tashqari, Vazirliklar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 11 fevraldagagi 60-sonli qarori bilan "Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli etkazilgan zararni to'lash Qoidalari"⁴⁹ hamda O'zbekiston Respublikasi xukumatining 1997 yil 6 iyundagi qarori bilan tasdiqlangan «Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarни va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida»gi nizom talablariga⁵⁰ amal qilinmog'i lozim bo'ladi.

Nogironlik kasb kasalligi oqibatida yuz bergen deb hisoblanishi uchun xodimga ishlab chiqarishning zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillari (shovqin, radiatsiya, ximiyaviy, fizik, biologik va boshqa ta'sirlar) oqibatida kasallik kelib chiqqan, vaqt o'tishi bilan kuchaygan bo'lishi lozim. Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi qarorining 6-ilovasida kasb kasalliklari ro'yxati keltirilgan bo'lib, unda 7 qismdan iborat bo'lgan 126 xil kasallik turlari sanab ko'rsatib qo'yilgan⁵¹.

Urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar ham pensiya ta'minoti sohasida urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar ham ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar yoki kasb kasalligi yuz berishi oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar bilan teng huquqlarga egadirlar.

Urush nogironlari tushunchasi tarifi va urush nogironlariga tenglashtirilgan shaxslar doirasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 sentyabrdagi qarori 2-ilovasida bayon etilgan⁵².

⁴⁹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1994 йил, 2-сон, 7-модда.

⁵⁰ Каранг: Ўша манбаа, 1997 йил, 6-сон, 21-модда.

⁵¹ Каранг: Ўзбекистон Республикасининг имтиёзли пенсия таъминоти бўйича норматив қўжжатлари тўплами. Т., «Мекнат», 1994 йил, -Б. 49-53.

⁵² Ўша манба. -Б. 43-44.

Vatan urushi va boshqa urushlarda harakatdagi armiya tarkibida harbiy xizmatni o‘tagan, O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishda yaralangan, kontuziya bo‘lib qolgan, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatlar urush nogironlari hisoblanadilar.

Urush nogironi sanalmasalarda, ammo nogiron bo‘lib qolish holatlari va sabablariga ko‘ra ularga tenglashtirilgan shaxslarning ro‘yxati tarkibiga 9 ta sababga ko‘ra nogiron bo‘lib qolgan harbiylar va harbiy xizmatchi sanalmaydigan boshqa shaxslar kiritilgan.

Davlat va jamoat vazifalarini, mahalliy hokimiyat organlarining kasbiy yoki jamoat tashkilotlarining maxsus topshiriqlarini bajarishda bu topshiriqlar asosiy ish bilan bog‘liq yoki bog‘liq emasligidan qat’i nazar mehnatda mayiblanish hisoblanadi.

Respublika fuqarosi burchini bajarishda, inson hayotini saqlab qolishda, davlat va jamoat mulkini, fuqarolar mulkini asrashda, huquq-tartibotni himoya qilishda sodir bo‘lgan nogironlik mehnatda mayiblanish hisoblanadi.

Safarda baxtsiz hodisa natijasida yuzaga kelgan nogironlik, agar baxtsiz hodisa mehnat vazifasini bajarish davrida yoki safarga jo‘natilgan erga borayotgan vaqtda yoki qaytib kelayotganda, shuningdek, safar vaqtida xizmat qatnovlarida yuz bergen bo‘lsa, mehnatda mayiblanish hisoblanadi⁵³.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasiga ko‘ra «Sog‘lig‘i yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi».

Shaxs II guruh nogironi deb e’tirof etilish uchun kishi organizmi, uning a’zolari funksiyasi birmuncha buzilgan bo‘lishi, mehnat qilish qobiliyati barqaror tarzda doimiyga yoki uzoq muddatga yo‘qolgan, jiddiy ravishda pasaygan bo‘lishi

⁵³ Каранг: «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонунига шарклар». Т., 1996 йил, -Б. 90.

lozim.

Umumiy kasallik (maishiy jarohatlanish) tufayli nogiron bo‘lib qolgan va yoshiga mos ravishda talab qilinadigan ish stajiga to‘liq ega bo‘limgan fuqarolarga (masalan, 25 yoshda nogiron bo‘lib qolgan shaxs 3 yillik mehnat staji o‘rniga bor-yo‘g‘i 1 yillik stajga ega bo‘lsa) nogironlik pensiyasi ularning mavjud mehnat stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi.

Bunda nogironlik pensiyasi faqat I va II guruh nogironi deb topilgan shaxslargagina tayinlanadi.

Ish staji to‘liq bo‘limganda nogironlik pensiyasi to‘lanishi chog‘ida har qanday mehnat staji ham (bolalarni parvarishlash davri, o‘qish davri va hokazo) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinaveradi.

Nazorat savollari

- 1.Yoshga doir pensiya tayinlashning umumiy shartlari qanday ?
- 2.Yoshga doir pebnsiya tayinlash chog‘ida hisobga olinadigan va hisobga olinmaydigan mehnat staji haqida so‘zlab bering.
- 3.Umumiy asoslardagi yoshga doir pensiya deganda qanday pensiya nazarda tutiladi ?
- 4.Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayishlash qachon amalga oshiriladi?
- 5.Imtiyozli shartlarlarda yoshga doir pensiya tayinlash chog‘ida 1-sonli ro‘yxatning ahamiyati qanday ?
- 6.Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlashga asos bo‘ladigan ishlar,kasblar, vazifalar, lavozimlar va ko‘rsatkichlarnshg 1, 2, 3 - sonli ro‘yxatlari qachon va kim tomonidan tasdiqlangan ?
- 7.To‘liqsiz mexnat staji bilan yoshga doir pensiya tayinlash shartlari haqida so‘zlab bering.
- 8.Muddatidan avval yoshga doir pensiya kimgarga va qaysi hollarda tayinlanadi ?

- 9.Pakanalar va mitttar(Gipofizar nanizm kasaliga chalinganlar) ga yoshga doir pensiya tayinlash qachon amalga oshiriladi ?
- 10.Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish deganda nimalar nazarda tutiladi ?
- 11.O‘zbekiston Respublikasining "Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni haqida so‘zlab bering.
- 12.Nogironlik guruhlari nima ?
- 13.Nogironlik sabablari haqida gapirib bering.
- 14.Nogironlik qaysi organ tomonidan belgilanadi ?
- 15.Tibbiy mexnat ekspertlar komissiyasi va uning huquqiy maqomi haqida gapirib bering.
- 16.Umumiy kasalliklar (turmushdagi maishiy jarohatlar) tufayli nogron bo‘lib qolganda pensiya tayinlash shartlari qanday ?
- 17.To‘liqsiz mehnat staji bilan nogironlik pensiyasi tayinlasa bo‘ladimi ?
- 18.Nogironlik qaysi xollarda umumrbodga belgilanadi ?
- 19.Nogiron qayta ko‘rikdan o‘tishga kelmasa nima yuz beradi ?

Tayanch so‘z va iboralar.

Pensiya ta’minoti. Pensiya yoshi. Pensiyaga chiqish uchun talab qilinadigan mehnat stoji. Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayishlash. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash. To‘liqsiz mehnat staji bilan yoshga doir pensiya tayinlash. Muddatidan avval yoshga doir pensiya tayinlash. Imtiyozli yoshga doir pensiya tayinlashda 1-sonli, 2-sonli va 3-sonli Ro‘yhatlar. YOshga doir pensiya tayinlashda mehnat stajlarini o‘zaro hisobga o‘tkazilishi. Nogironlik. Nogironlik pensiyalari. Nogironlik guruhlari. Nogironlik sabablari. Nogironlik yuz bergen vaqt. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi qonun. Tibbiy mexnat ekspertiza komissiyasi (TMEK). Nogironlkni belgilash. TMEK Xulosasi. Nogironlarni qayta ko‘rikdan o‘tkazish. Umumiy kasalliklar va maishiy jaroxatlardan nogiron bo‘lish. Umumiy kasalliklar va maishiy jaroxatlardan nogiron bo‘lganda pensiya tayinlash. Mexnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo‘lganda pensiya tayishlash. To‘liqsiz mexnat staji bilan nogironlik pensiyasi tayinlash.

Glossariylar.

Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlanishi -aslida shaxs noqulay, zararli yoki ruhiy-fiziologik jihatdan tang sharoitlarda ishlaganligi, Shu orqali o‘z sog‘lig‘i va hayotini xavf ostida qoldirgani holda jamiyatga ko‘proq foyda keltiruvchi faoliyat turi bilan Shug‘ullanganligi uchun jamiyat tomonidan tovon to‘lanishidan iboratdir.

Nogiron deganda- jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklangan, qonun hujjatlarida belgalangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs nazarda tutiladi.

Shaxs II guruh nogironi deb- e’tirof etilish uchun kishi organizmi, uning a’zolari funksiyasi birmuncha buzilgan bo‘lishi, mehnat qilish qobiliyati barqaror tarzda doimiyga yoki uzoq muddatga yo‘qolgan, jiddiy ravishda pasaygan bo‘lishi lozim.

Mehnatda mayiblanish- safarda baxtsiz hodisa natijasida yuzaga kelgan nogironlik, agar baxtsiz hodisa mehnat vazifasini bajarish davrida yoki safarga jo‘natilgan erga borayotgan vaqtida yoki qaytib kelayotganda, Shuningdek, safar vaqtida xizmat qatnovlarida yuz bergen bo‘lsa, mehnatda mayiblanish hisoblanadi.


O‘zbekiston respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi qonunni 13-moddasida liliputlar va pakanalarga imtiyozli yoshga doir pensiya nazarda tutilgan. Unga ko‘ra:

gipofizar mittilik kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakanalar belgilangan yoshni 15 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga basharti erkaklar-ish staji kamida 20 yil bo‘lganda va ayollar-ish staji kamida 15 yil bo‘lganda ushbu asos bilan yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo‘ladilar.

Tarqatma materiallar


1-chizma

Ёшга доир пенсия, ижтимоий суғурта давлат жамғармасидан қайтарылмаслик шарты билан, моддий таъминлаш учун фуқароларга аввалги мешнат муносабати туфайли мунтазам ва бир умрга бериладиган тўловдир.



2-chizma.

Ногиронлик пенсияси – фуқаро мешнат қобилиятини тўлиқ ёки қисман йўқотгани ҳолда тайинланадиган ва мунтазам тўланадиган, қайтариб олинмайдиган тўловдан иборат



1.Fuqaro Xalilova 50 yoshga to‘lganda mehnat faoliyatini to‘xtatgan. Uning umumiy ish staji 17 yil. 58 yoshga to‘lganda pensiya tayinlashlarini so‘rab Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qildi. Pensiya jamg‘armasi bo‘limi ushbu fuqaroga zarur mehnat staji mavjud emasligini hamda o‘z vaqtida murojaat qilmaganligini aytib pensiya tayinlamadi.

Pensiya jamg‘armasi bo‘limining xatti-harakatlari qonuniymi?

Zarur mehnat stajiga ega bo‘lmasa pensiya tayinlanadimi?

Pensiya mazkur holatda necha yoshdan to‘lanadi?

2.Fuqaro Omonova Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilib, o‘zining o‘rta tibbiy xodim bo‘lganligini va 1967 yildan buyon FHDYOda mudiralik qilganligini, 1997 yilda “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlanganligini, biroq 170200 so‘m, yani kam miqdorda pensiya tayinlanganligi ustidan shikoyat qildi. Fuqaro Omonova o‘ziga “Fuqarolarning davlat pensiya taminoti to‘g‘risida”gi qonunning 28-moddasi, “k” bandi (O‘zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo‘lgan shaxslarga) tatbiq etilib, pensiya miqdori oshirilishini talab qildi.

Fuqaro Omonovaning talabi o‘rinlimi?

3.Fuqaro Yangiev o‘ziga tayinlangan 2-guruh nogironlik pensiyasini to‘lash asossiz to‘xtatib qo‘yilganligi ustidan shikoyat qildi. Shikoyatni tekshirish chog‘ida Yangievga nogironlik guruhi biryilga belgilanganligini va ushbu muddat o‘tgan bo‘lsa-da, Yangiev qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun kelmaganligi aniqlandi.Yangievning shikoyati o‘rinlimi? Uzrli sabablarga ko‘ra qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tishga kela olmagan bo‘lsa, nogironlik pensiyasini to‘lash tartibi qanday bo‘ladi?

4.Fuqaro Oltievga umumiy kasallik bo‘yicha 2-guruh nogironlik belgilandi. Yoshi 30 da. Umumiy mehnat staji 10 yil. Hisoblab chiqilgan o‘rtacha oylik ish haqi 200500 so‘m. Fuqaro Oltievga tayinlanadigan pensiya miqdorini aniqlang.

5.Fuqaro Hakimov ishlab chiqarishda yuz bergen baxtsiz hodisa tufayli P guruh nogironi bo‘lib qoldi. Yoshi 38 da. Umumiy mehnat staji 8 yil. Ijtimoiy taminot bo‘limi Hakimovga to‘liqsiz mehnat staji bo‘yicha nogironlik pensiyasini tayinladi.

Fuqaro Hakimovga pensiya to‘g‘ri tayinlanganmi? Nogironlik pensiyasini tayinlashda mehnat stajining ahamiyati qanday?

Testlar.

1.Nogironlik, uning sabablari va guruhlarini kim belgilashligini aniqlang:

- A)*Tibbiy mehnat ekspertizasi komissiyasi
- B)tibbiy maslahat komissiyasi
- C)fuqaro istiqomat joyidagi poliklinika;
- D)korxona tibbiy — sanitariya qismi;

2.Mehnatdagi jarohat tufayli nogiron bo‘lgan shaxslarga nogironlik pensiyasi tayinlash uchun ish staji:

- A)*talab qilinmaydi;
- B)yoshiga mutanosib ravishda talab qilinadi;
- C)kamida 5 yil talab qilinadi
- D)TMEK xulosasi asosida

3.III- guruuh nogironi pensiyasining tayanch miqdorini toping?

- A)* o‘rtacha oylik ish haqisining 30 foizi;
- B)eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- C)eng kam pensiya miqdorining 30 foizi;
- D)Eng kam oylik ish xaqining 50 foizi

4. II guruuh nogironi eng kam pensiyasining miqdori:

- A) * eng kam oylik ish haqi miqdorida
- B)50000 so‘m miqdorida;
- C)eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;
- D)18600 so‘m miqdorida

5.Ishlayotgan pensionerlarga nogironlik pensiyalarini to‘lash qancha miqdorda amalga oshiriladi?

- A) *100 foiz;
- B)50 foiz;
- C)75 foiz
- D)30 foiz

6.Mehnat stajiga ega bo‘lmagan qariyalarga necha yoshdan nafaqa tayinlanadi?

- A)* erkaklarga 65 yoshdan, ayollarga 60 yoshdan boshlab;
- B)erkaklarga 60 yoshdan, ayollarga 60 yoshdan boshlab;
- S)erkaklarga 60 yoshdan, ayollarga 55 yoshdan boshlab;
- D)erkaklarga 60 yoshdan, ayollarga 50 yoshdan boshlab

7.Sahovat uylariga fuqarolarni qaysi organ joylashtiradi

- A)* tuman Pensiya jamg‘armasi bo‘limi;
- B)tuman maorif bo‘limi;
- S)tuman mehnat bo‘limi;
- D)Fuqarolar yig‘ini

8.Ikkinchи jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga sihatgoh va oromgohga:

- A) *1 yilda bir marta yo‘llanma beriladi;
- B)2 yilda bir marta yo‘llanma beriladi;
- S)3 yilda bir marta yo‘llanma beriladi;
- D)hozirda berilmaydi

9.Nogiron fuqarolar kommunal xizmat haqlarini to‘lashdan:

- A) * hozirda ozod qilinmaydilar;
- B)100 foiz ozod qilinadilar;
- S)50 foiz ozod qilinadilar;
- D)ularni ozod qilish tuman (shahar) hokimi qaroriga asosan belgilanadi

10.Nogironlik guruuhlarini olish uchun fuqarolar qaysi muassasaning 88 shakldagi ma’lumotnomasini taqdim etadilar?

- A) * sog‘liqni saqlash muassasalari
- B)Ijtimoiy ta’milot bo‘limlari
- S)Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyalari;
- D)Mehnat bo‘limlari

5- mavzu. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari.

Reja:

- 1.Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari.
- 2.Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olishga haqli bo‘lgan shaxslar qaramog‘ida bo‘lish.

1. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari.

Davlat tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, ularning moddiy farovonlik darajasini oshirish, keksa avlod manfaatlarinint himoya qilinishini ta’minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy, aqliy va manaviy jihatdan barkamol insonlar bo‘lib voyaga etishi uchun shart-sharoit yaratish davlatimiz olib borayotgan kuchli ijtimoiy himoya siyosati negizini tashkil etadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda aniq yo‘naltirilgan va tabaqaqlashgan yondashuvni yanada kuchaytirish, kam ta’minlangan oilalarni zarur moddiy yordam ko‘rsatish orqali qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash ijtimoiyadolat va qonuniylik tamoiillariga rioya etilgani holda amalga oshirilishiga erishish -davlatimiz va jamiyatimiz oldidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Turli sabablar bilan ota-onasi parvarishi va moddiy ta’minotidan mahrum bo‘lib qolgan etim bolalar, yolg‘iz nogironlar va qariyalar, moddiy madadga ehtiyojmand bo‘lgan boshqa toifadagi fuqarolarga davlat g‘amxo‘rлиgi ko‘rsatilad va ular moddiy ta’minotiga ko‘maklashish - davlat ijtimoiy siyosatining muhim jihatlaridan bo‘lib, bozor munosabatlari qaror topishi sharofatida aholini kuchli ijtimoiy himoyalash tamoyiliga mos keladi.

Fuqarolarga tayinlanadigan va to‘lanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensmyasi davlat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashining ana shunday muhim shakllaridan sanaladi hamda aniq va manzilli ijtimoiy himoyalashga oid ijtimoiy siyostimiz va qonunchiligidiz real mazmunga ega ekanligini yaqqol namoyish etadi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi marhum boquvchi shaxsning oldingi mehnat faoliyati va uning uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lab borilganligi bilan bog‘liq ravishda tayinlanadigan mehnat pensiyalarining bir turi sanaladi va uning tayinlanish shartlari amaldagi qonun hujjatlai bilan aniq belgilab qo‘yilgandir.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonuni 19-moddasida ko‘rsatilishicha: "Vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda farzandlarga va ushbu moddaning "v" bandida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog‘ida turgan-turmaganidan qat’i nazar tayinlanadi.

Marhumning qaramog‘ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag‘ manbaidan mahrum bo‘lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a’zolari hisoblanadilar:

a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to‘limgan bo‘lsa yoki 16 yoshdan katta bo‘lsa ham 16 yoshga to‘lmasdan nogiron bo‘lib qolgan

bo‘lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo‘lmasa;

b) ota, ona, o‘gay ota, o‘gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to‘lgan yoki nogiron bo‘lsalar;

v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat’i nazar, ota va onadan biri yoki er(xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar boqish bilan mashg‘ul bo‘lsa va ishlamasasi;

g) buva va buvi-agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo‘lgan kishilar bo‘lmasa.

O‘quvchilar 18 yoshga to‘lgunga qadar boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

O‘gay o‘g‘il va o‘gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliman olmagan bo‘lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar.

O‘gay ota va o‘gay ona, agar vafot etgan o‘gay o‘g‘ilni (qizni) 18 yoshga to‘lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo‘lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Qonunning vafot etganlar oilalariga taalluqli hamma qoidalari bedarak yo‘qolganlarning oilalariga ham, agar boquvchining bedarak yo‘qolganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lsa, tegishli ravishda joriy qilinadi”.

Oila a’zolari, agar ular marhumning to‘lig‘ bog‘uvida bo‘lgan yoki undan yordam olib turgan bo‘lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag‘ining manbai hisoblangan bo‘lsa, marhumning qaramog‘ida turgan deb hisoblanadilar.

Marhumning biron turdagи pensiya olayotgan oila a’zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag‘ining manbai hisoblangan bo‘lsa-boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasiga o‘tish huquqiga egadirlar.

Ammo marhum boquvchining farzandlariga hamda yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat‘i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, ukalari, singillari yoki nabiralarini ular uch yoshga yetgunlariga qadar boqish (parvarishlash) bilan mashg‘ul bo‘lsalar, marhum bilan birga yashagan-yashamaganliklaridan qat‘i nazar, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanaverishi nazarda tutilgan.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi fuqarolarni ijtimoiy ta’minalash, pensiya ta’mintoni amalga oshirish shakllaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra moddiy ta’mint berib kelgan, turmush kechirishning asosiy manbai bo‘lib kelgan shaxsni vafot

etishi munosabati bilan uning qaramog‘ida bo‘lib kelgan shaxslarga qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda, shartlarda va miqdorlarda ular voyaga etgunlariga qadar, mehnat qilish qobiliyatları qayta tiklangunicha yoki bo‘lmasa tegishli hollarda butun umrga davlat ijtimoiy ta’minot mablag‘lari hisobidan tayin etiladigan, qaytarib olinmaydigan, haq olinmaydigan, muntazam ravishda to‘lab boriladigan pul to‘lovlaridan iborat.

- 1) Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar, ishda olingan jarohatlar yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida vafot etgan shaxslarning qaramog‘idagilarga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi;
- 2) Ishlab chiqarishdagi sabablarga ko‘ra vafot etgan shaxslarga tenglashtirilgan holatlarda (urush harakatlari, harbiy burchni bajarish, fuqarolik burchini bajarish paytlarida va hokazo) vafot etganlarning oila a’zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari;
- 3) Umumiy kasallikkdan (turmushdagi jarohatlarning oqibatida) vafot etgan shaxslarning oila a’zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi kabilar o‘zaro farqlanadi.
- 4) Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dastlabki ikki holat tufayli vafot etgan marhumlarning qaramog‘ida bo‘lib kelgan mehnatga yaroqsiz oila a’zolariga marhum mehnat stoji miqdoridan qat’iy nazar pensiya tayinlanaveriladi.

Uchinchi sababga ko‘ra, ya’ni umumiy kasallik (turmushdagi jarohatlanish) tufayli vafot etgan marhumlarning oila a’zolariga esa marhum boquvchi shaxs vafot etgan paytdagi yoshiga mos keluvchi muayyan hajmdagi mehnat stajiga ega bo‘lgan bo‘lsa to‘liq miqdorda, belgilanganidan kam ish stajiga ega bo‘lsa - to‘liq bo‘lмаган miqdorda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunning 21-moddasiga muvofiq:

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot

etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Basharti boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo'lган (17-modda) bo'lsa, umumiylasallik yoki ish bilan bog'liq bo'lмаган mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

Boshqa mamlakatlardan ko'chib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, basharti boquvchi O'zbekiston Respublikasida ishlaragan bo'lsa, pensiyalar quyidagi hollarda, ya'ni:

- a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olgan oilalarga - boquvchisining ish stajidan qat'i nazar;
- b) pensiya olmagani oilalarga - basharti, boquvchi ishlash to'xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo'lган (17-modda) bo'lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa boquvchining stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Ushbu qonunning 22-moddasiga ko'ra esa:

Umumiylasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini to'liq tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lмаган (17-modda) boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib ravishdagi miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

Er (xotin) vafot etganligi sababli uning xotini (eri)ga tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi pensiya oluvchi xotin (er) turmush qurgani (yangi nikohga kirgani) taqdirda ham saqlanib qolishi ko'zda tutilgan.

2. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli bo'lган shaxslar qaramog'ida bo'lish

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlashda ushbu pensiya turini olishga haqli bo'lган shaxslar doirasining to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega, chunki uning noto'g'ri belgilanishi fuqarolarning asossiz ravishda pensiya olishlariga yoki bo'lmasa pensiya olishga haqli bo'lган shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarining g'ayriqonuniy tarzda cheklab qo'yilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasiga kirish uchun quyidagi talablar qo‘yiladi:

- a) Mehnatga yaroqsizlik yoki mehnatga yaroqli bo‘lsa-da, marhumning 3 yoshga etmagan farzandlari parvarishi bilan band bo‘lishlik;
- b) Marxum boquvchi bilan qarindoshlik aloqasida bo‘lishlik;
- v) Marhum boquvchi qaramog‘ida bo‘lganlik;
- g) Marhum boquvchi bilan bir oila a’zosi bo‘lib yashaganlik.

Mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari tushunchasi va mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari tarkibiga kiruvchi shaxslar "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi qonunning 3-qismida belgilangan bo‘lib, ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

- a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to‘lmagan bo‘lsa yoki 16 yoshdan katta bo‘lsa ham 16 yoshga to‘lmasdan nogiron bo‘lib qolgan bo‘lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo‘lmasa;
- b) ota, ona, o‘gay ota, o‘gay ona, xotin, er; basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to‘lgan yoki nogiron bo‘lsalar;
- v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat’i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari, yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lgunga qadar boqish bilan mashg‘ul bo‘lsa va ishlamas;
- g) buva va buvi - agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo‘lgan kishilar bo‘lmasa;

o‘quvchilar 18 yoshga to‘lgunga qadar boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

o‘gay o‘g‘il yoki o‘gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo‘lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar.

o‘gay ota va o‘gay ona, agar vafot etgan o‘gay o‘g‘ilni (qizni) 18 yoshga to‘lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo‘lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqi vafot etgan shaxslar bilan bir qatorda belgilangan tartibda bedarak ketgan yoki o‘lgan deb e’lon qilingan shaxslarning⁵⁴ oila a’zolarida ham paydo bo‘ladi.

Marhum boquvchi bilan qarindoshlik aloqalari O‘zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi» qoidalari bilan belgilanadi⁵⁵.

Jumladan, ushbu kodeksning 57-moddasiga muvofiq:

Bir umumiyl uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o‘rtasidagi to‘g‘ri shajara bo‘yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya’ni tug‘ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to‘g‘ri shajaratagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-ukasi va opa-singili hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o‘xshashlar yon shajara bo‘yicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo.

To‘g‘ri shajara bo‘yicha qarindoshlar yon shajara bo‘yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir.

Ikki shaxs o‘rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darjalarning soni yoki Shu shaxslardan birining

o‘zini hisobga qo‘shtay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

xisob ajdodlar tomon to‘g‘ri shajara bo‘yicha ular uchun umumiyl bo‘lgan

⁵⁴ Карап: Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 33, 34, 36-моддалари; Фуқаролик процессуал кодексининг 286-290-моддалари.

⁵⁵ Карап: Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарқлар. Т., «Адолат», 2000 йил.

shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa avlodlar tomon ulardan boshqasiga qarab olib boriladi.

Tug‘ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi qarindoshlikning uchinchi, tog‘avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa to‘rtinchi darajasida turadilar.

«Oila kodeksining» 58-moddasiga ko‘ra esa: aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh bo‘lishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo‘lsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha ona bir ota boshqa bo‘lsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tug‘ishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar o‘gay hisoblanadi. Er-xotinning ilgarigi nikohlaridan bo‘lgan bolalari o‘zaro qarindosh hisoblanmaydi.

Er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayinbo‘yinchilik va quda-andachilik) o‘zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Bolaning nasl-nasabini belgilash asoslari «Oila kodeksi»ning 60-moddasida belgilab qo‘yilgan va bolaning Shu onadan tug‘ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko‘ra, bola tibbiy muassasada tug‘ilmagan hollarda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o‘limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so‘ng uch yuz kun ichida tug‘ilgan bolasi nikohda tug‘ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug‘ilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo‘lsa, bola yangi nikohda tug‘ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida imzolashish huquqiga ega ekanliklari belgilangan.

Ota-onsa rasmiy qayd etilmagan nikoh munosabatlarida (fuqarolik nikohida) bo‘lganlari holda tug‘ilgan farzandlarning nasl-nasabi (onasi ham, otasi ham, er-xotinning ixtiyoriy tarzda birgalikda bergen arizasiga ko‘ra, bunday ariza mavjud

bo‘lмаган va otalikni ixtiyoriy tan olishdan bo‘yin tovlanayotgan hollarda otalik belgilangan tartibda sud yo‘li bilan aniqlanishi mumkin⁵⁶.

Marhum boquvchi fuqaroning qaramog‘ida bo‘lganlik tuShunchasi ta’rifi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunning 20-moddasida bayon etib berilgan.

Ushbu moddada ko‘rsatilishicha, qonunda nazarda tutib qo‘yilgan oila a’zolari yuqoridagi qonunning 19-moddasi) agar ular marhumning to‘liq boquvida bo‘lgan yoki undan yordam olib turgan bo‘lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag‘ining manbai hisoblangan bo‘lsa, marhumning qaramog‘ida turgan deb hisoblanadilar.

Marhumning biron turdagи pensiya olayotgan oila a’zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag‘ining manbai hisoblangan bo‘lsa, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasiga o‘tish huquqiga egadirlar.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanishini so‘rab murojaat qilayotgan va hech qanday daromadga ega bo‘lмаган oila a’zolarini (yosh bolalar, pensiya olmaydigan nogironlar va boshqalar) marhum boquvchi shaxs qaramog‘ida bo‘lib kelganligi faktini aniqlash hollari qiyinchilik tug‘dirmaydi va osonlikcha hal etilishi mumkin.

Biroq marhum boquvchi hayotlik paytida bir oila bo‘lib yashagan, umumiyl daromadga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, ammo mustaqil ish haqi (pensiya, NAFAQA) yoki boshqa daromadga ega bo‘lgan shaxslarning marhum qaramog‘ida bo‘lib kelganligini aniqlash muayyan murakkabliklar tug‘diradi.

Bunda marhumning ish haqi, stipendiya yoki pensiya oluvchi oila a’zolari uning qaramog‘ida turgan-turmaganligi masalasini hal qilishda ko‘rsatiladigan moddiy yordam doimiy xarakterga va boshqa daromadlarga qaraganda qanday hajmda ekanligini aniqlash lozim bo‘ladi.

Oila a’zosining ish haqi, stipendiya yoki pensiya olishi uni oilaning qaramog‘ida deb tan olishga monelik qilmasligi kerak, buning uchun sanab

⁵⁶Каранг: Ўзбекистон Республикаси «Оила кодекси»нинг 61-62-моддалари; Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 2001 йил 1 майдаги «Оталикин белгилаш қақидаги ишларни кўришда судлар томонидан конунларнинг татбиқ этилиши тўғрисида»ги карори. «конун номи билан», 2001 йил, 3-4 сон, -Б. 31.

o‘tilgan oila a’zolarining daromadi emas vafot etgan shaxsning yordami yashash uchun asosiy va doimiy mablag‘ manbai bo‘lishi kerak.

Bolalar ota-onalarining ish haqlari miqdori qancha bo‘lishidan qat’i nazar har ikkalasining qaramog‘ida deb hisoblanadilar. Uy xo‘jaliklari bilan shug‘ullanuvchi ishlamaydigan onalarning bolalari uning qaramog‘ida deb tan olinadi. Ota o‘lgandan keyin tug‘ilgan yoki tug‘ish paytida onasi o‘lgan bola qaramoqda deb hisoblanadi.

Marhum boquvchining qaramog‘ida bo‘lganlik masalasida nizo kelib chiqqani taqdirda ushbu masala qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud yo‘li bilan ko‘rib, hal etiladi⁵⁷.

Nazorat savollar:

1. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi kimgarga tayinlanadi ?
2. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlash shartlari qanday ?
3. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlashda mexnat staji qanday ahamiyatga ega bo‘ladi ?
4. To‘liqsiz mehnat staji bilan xam boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlasa bo‘ladimi ?

Tayanch so‘z va iboralar.

Boquvchisiz qolganlik pensiyasi. Qaramog‘da bo‘lish. Marhum boquvchi shaxs. Boquvchi shaxs bilan yaqin qarindoshlik. Mexnatga yaroqsizlik. Marxum boquvchi shaxsning umumiylashtirishiga jarohatlanish) dan vafot etishi. Mexnatdagi baxtsiz xodisa yoki jaroxatlanishdan yohud kasb kasalligidan vafot etganlik. Marxum boquvchining mexnat staji. N-1 shakldagi dalolatnoma. Marxum boquvchi to‘liqsiz mehnat stajiga ega bo‘lganda qaramog‘dagilarga to‘liqsiz boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlash.

Glossariylar.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi- marhum boquvchi shaxsning oldingi mehnat faoliyati va uning uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lab borilganligi bilan bog‘liq ravishda tayinlanadigan mehnat pensiyalarining bir turi sanaladi va uning tayinlanish shartlari amaldagi qonun hujjatlai bilan aniq belgilab qo‘yilgandir.

⁵⁷ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодексининг 31-боби; 283-модданинг 2-банди; Ўзбекистон Республикаси Олий Суди Пленумининг 1991 йил 20 декабрдаги (1997 йил 2 май ва 1998 йил 11 сентябрдаги қўшимча ва ўзгартиришлари билан) «Юридик ақамиятга эга бўлган фактларни белгилаш қақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги қарори.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar - doirasiga kirish uchun quyidagi talablar qo‘yiladi:

- a) Mehnatga yaroqsizlik yoki mehnatga yaroqli bo‘lsa-da, marhumning 3 yoshga etmagan farzandlari parvarishi bilan band bo‘lishlik;
- b) Marxum boquvchi bilan qarindoshlik aloqasida bo‘lishlik;
- v) Marhum boquvchi qaramog‘ida bo‘lganlik;
- g) Marhum boquvchi bilan bir oila a’zosi bo‘lib yashaganlik.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqi vafot etgan shaxslar bilan bir qatorda belgilangan tartibda bedarak ketgan yoki o‘lgan deb e’lon qilingan shaxslarning oila a’zolarida ham paydo bo‘ladi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to‘g‘ri shajaratagi **birinchi**, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan **ikkinchi**, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan **uchinchi** darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo. Tug‘ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi qarindoshlikning uchinchi, tog‘avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa **to‘rtinchi** darajasida turadilar.

Tarqatma materiallar.

Mavzuni o‘zlashtirishga doir vaziyatli masalalar

1. Fuqaro Akromova fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organiga murojaat qilib, eri to‘rt yildan beri qaerda ekanligi nomalumligini, o‘zi anchadan buyon kasal ekanligini, voyaga etmagan farzandlari borligini aytib o‘ziga ijtimoiy yordam ko‘rsatishlarini so‘radi.

Fuqaro Akramovaga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlash mumkinmi? Ushbu fuqaro yana qanday ijtimoiy yordam turlarini olishi mumkin?

2. Kasb kasalligidan vafot etgan G‘ofurovning ikkita voyaga etmagan farzandlariga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini tayinlashni so‘rab murojaat qilindi. G‘ofurovning yoshi 40 da, mehnat stoji 15 yil, hisoblab chiqarilgan o‘rtacha ish haqi 202.730 so‘mni tashkil qiladi.

Oilaga va bolalarning har biriga tayinlanadigan pensiya miqdorini aniqlang.

3. Fuqaro Murodova Pensiya jamg‘armasi bo‘limiga murojaat qilib, eri 36 yoshida umumiy kasallikdan vafot qilganligini, vafot qilguncha yakka tartibdagi

tadbirkorlik bilan 10 yil shug‘ullanganligini, hozirda qaramog‘ida 3 ta voyaga etmagan farzandlari borligini va o‘zi ham hech qaerda ishlamasligini aytib boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlashlarini so‘radi. Pensiya jamg‘armasi bo‘limi voyaga etmagan farzandlarnigina hisobga olib pensiya tayinladi. Fuqaro Murodova hozirda voyaga etmagan farzandlar tarbiyasi bilan mashg‘ulligini inobatga olib pensiya oluvchilar doirasiga o‘zining ham kiritilishini talab qildi.

Fuqaro Murodovaning talabi o‘rinlimi? Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini tayinlashda mehnat staji yuridik ahamiyatga egami?

1-chizma

Боқувчисини йўқотганлик пенсияси боқувчи вафот этгани туфайли таъминотсиз қолган меҳнатга яроқсиз шахсларга мунтазам тўланадиган ижтимоий таъминот туридир

Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар ва касб қасаллиги (уларга тенглаштирилган бошқа ҳолатлар) туфайли боқувчи шахс вафот этганида мархум иш стажидан қатъи назар тайинланади

Турмушдаги (умумий) қасалланиш ёки майший жароҳатланиш туфайли вафот этган боқувчи оила аъзоларига – мархум муайян меҳнат стажига эга бўлганида (17-модда) тайинланади

2-chizma

Боқувчисини йўқотган шахс сифатида пенсия олувчилар қаторига: болалар, ногирон ака-ука, опа-сингил, бобо-буви, эр ёки хотин, ўгай ота – ўгай оналар, ўгай ўғил-қизлар, фарзандликка олинганлар (одатдаги тарзда) кирадилар

Мархум боқувчи билан қариндошлик алоқасида бўлиш (муайян вақт бирга яшаганлик)

Мархум боқувчининг қарамоғида былиб турганлик (бошқа турмуш кечириш манбаига эга эмаслик, мархум берган таъминот асосий турмуш манбаи эканлиги

Меҳнатга яроқсизлик (16 ёшга етмаган) (ўқувчилар 18 ёшга етмаган), пенсия ёшига етганлик, I-II гурух ногирони эканлиги

Testlar.

1.Marhum boquvchini bolaligida (18 yoshga etguncha) ta'minlagan o'gay ota boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqlimi:

A)* agar marhumni kamida 5 yil ta'minlab kelgan bo'lsa, haqli;

B)haqli

S)haqli emas;

D)Pensiya jamg'armasi bo'limi xodimi qaroriga bog'liq

2.Har bir oila a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayanch miqdori qancha:

A)* boquvchi o'rtacha oylik ish haqisining 30 foizi;

B)ish haqining 30 foizi;

S)eng kam ish haqining 30 foizi

D)eng kam ish haqining 50 foizi

3.Ish staji to'liq bo'lmasa boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanadimi:

A)* mavjud mehnat stajiga mutanosib tarzda

B)yo'q

S)ha

D)Pensiya jamg'armasi bo'limi hohishiga bog'liq;

4.Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari qaysi manba hisobidan hisoblab chiqiladi?

A) * vafot etgan boquvchining ish haqisidan;

B)eng kam ish haqi miqdoridan

S)qonunda belgilangan miqdordan

D)202730 so'mdan

5. Ariza tushgan kundan e'tiboran qancha muddatda ko'rib chiladi va tegishli hujjatlar bilan tuman (shahar)Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi?

A) * 10 kunlik muddat ichida;

B)20 kunlik muddat ichida;

S)30 kunlik muddat ichida;

D)5 kunlik muddat ichida.

7.Tayilanadigan pensiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil bu...

A)* xodimning besh yillik ish haqi;

B)o‘rtacha oylik ish haqi;

S)Respublikada o‘rnatilgan eng kam ish haqi;

D)uch yillik ish haqi.

8.Ish staji to‘liq bo‘lmasa boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanadimi?

A)* mavjud stajiga mutanosib tarzda

B)tayinlanmaydi

S)ijtimoiy nafaqa tayinlanadi

D)hokimning qaroriga muvofiq

9. Pensiyalarning tayanch miqdorini hisoblab chiqarishda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining necha baravarigacha miqdori olinadi ?

A)eng kam ish haqining sakkiz baravarigacha

B)eng kam ish haqining etti baravarigacha

S)*eng kam ish haqining o‘n baravarigacha

D)eng kam ish haqining ikki baravarigacha

6-mavzu: Pensiyalarni tayinlash, hisoblash, qayta hisoblash va to‘lash tartibi.

Reja:

- 1.Pensiyalarning tayinlashning umumiyligi va asosiy qoidalari.
2. Pensiya tayinlashda o‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi
- 3 .Pensiyalarni hisoblab chiqarish.
4. Pensiyalarni to‘lash
- 5 .Harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash va to‘lash
- 6 .Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasining miqdori.

1. Pensiyalarni tayinlashning umumiyligi va asosiy qoidalari

Davlat pensiyalarini tayinlash pensiya tayinlash vakolatiga ega bo‘lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiya tayinlash huquqiga hozirgi paytda quyidagi organlar haqlidirlar:

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limlari;

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati davlat qo‘mitasi pensiya tayinlash hamda to‘lash organlari.

Barcha fuqarolarga, shu jumladan muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarga pensiyalar Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limlari tomonidan tayinlanadi.

Ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar, praporshiklar, michmanlar va boshqa muddatidan tashqari xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyatlar vazirligi, Chegara qo‘shinlari davlat qo‘mitasining boshliqlar hamda oddiy askarlar tarkibidan bo‘lgan harbiy xizmatchilariga mudofaa vazirligi yoki boshqa vazirlik, idoraning pensiya bo‘limlari tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya tayinlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi qonunining 43-moddasida belgilab qo‘yilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 11 maydagi 249-

songli ""Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida" o'zbekiston respublikasining qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida" gi Qarori bilan "Pensiyalar tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni takdim etish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlangan bo'lib⁵⁸, mazkur Nizomga ko'ra pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza oxirgi ish joyidagi korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati, fermer xo'jaligi boshlig'i yoki qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi orqali beriladi

Ish vaqtlarini hisobga olib bo'lmaydigan shaxslarga va ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash xaqidagi ariza arizachining bevosita yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga beriladi.

Pensiya tayinlanadigan shaxs balog'atga etmagan yoki huquqiy muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda, ariza uning ota-onasi yoki vasiysi tomonidan ularning yashash joylari orqali beriladi.

Pensiya tayinlash yoki to'xtatib qo'yilgan pensiyani tiklash uchun pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab istalgan vaqtda, biror muddat bilan cheklanmagan xolda murojaat etish mumkin.

Yoshga doir pensiya tayinlanishini so'rab pensiya yoshiga to'lmasdan avval xam murojaat etish mumkin, lekin bu mazkur pensiyani olish huquki paydo bo'lishidan bir oydan oldin bo'lmasligi kerak.

Pensiya tayinlash to'g'risidagi arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan xollarda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limi qo'shimcha yana qanday hujjatlar taqdim etilishi lozimligini korxona, tashkilot ma'muriyatiga yoki arizachiga ma'lum qiladi. **Agar ular qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi lozimligi to'g'risida bildirish xati olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza kabul qilingan kun yoki ariza yuborilgan joydagi pochta shtempelida ko'rsatilgan sana pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza qabul qilingan kun hisoblanadi.**

Yoshga doir pensiya tayinlash to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси ҳукуматининг қарорлари тўплами. 1994 йил, 5-сон, 27-модда.

a) mehnat stajini (umumiylar va maxsus) tasdiqlaydigan hujjatlar;

b) ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

v) bola tug‘ilganligi va u sakkiz yoshgacha tarbiya qilinganligi haqidagi hujjat;

g) arizachining farzandi bolalikdan nogiron yoki nogiron bola ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

d) arizachi urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

e) davolash muassasasining arizachi gipofizar mittillik kasaliga chalingan (liliput)ligi va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan, pakana ekanligi to‘g‘risidagi hujjati.

Urush nogironlariga "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Qonuni* 12-moddasining "a" bandiga muvofiq pensiya tayinlanganda va ularning pensiyalariga Qonunning 28-moddasi "a", "b", "v" bandlariga muvofiq ustamalar hisoblanganda Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi arizaga tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK)dan olingan tekshiruv dalolatnomasidan ko‘chirmani ilova qiladi.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida I va II guruh nogironi bo‘lgan vaqt ish stajiga qo‘shiladigan hollarda arizaga TMEK tekshirish dalolatnomalaridan ko‘chirmalar ilova qilinadi.

Nogironlik pensiyasini tayinlash to‘g‘risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) mexnat stajini (umumiylar va maxsus) tasdiqlovchi hujjatlar;

b) ish xaqi to‘g‘risidagi ma’lumotnoma;

Agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lsa, unda baxtsiz xodisa haqidagi dalolatnoma (yoki boshqa rasmiy hujjat) taqdim etiladi.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

v) arizachining yolg‘iz va o‘zgalar yordamiga muhtoj deb tan olinganligi to‘g‘risidagi xujjat;

g) arizachining urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjat.

Ijtimoiy ta'minot bo'limi arizaga tibbiy-xizmat ekspert komissiyasi (TMEK)dan olingan tekshiruv dalolatnomasidan ko'chirmani ilova qiladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasinn tayinlash to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

- a) pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport;
 - b) oila a'zosining vafot etgan boquvchiga qarindoshligi munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;
 - v) fuqarolik holati aktlarini qayd qilish bo'limining boquvchining vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomasi yoki uning bedarak yo'qolganligini tasdiqlovchi hujjat;
 - g) oila boquvchisining yoshi to'g'risidagi hujjat (agar vafot etganlik xaqidagi guvohnomada yoshi ko'rsatilmagan bo'lsa);
 - d) boquvchining mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar;
 - e) boquvchining ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma.
- Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:
- j) boquvchining qaramog'ida bo'lgan uning oila a'zolari tarkibi to'g'risida mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlari) fuqarolari yig'ininint ma'lumotnomasi yoki boshqa hujjatlar;
 - z) umumta'lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining oilaning 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan a'zolari o'quvchilar ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalari;
 - i) mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlari) fuqarolari yig'inining vafot etganning ota-onasi, turmush o'rtog'i, buvasi, buvisi, akasi (ukasi) yoki opasi (singlisi) vafot etganning 3 yoshga to'limgan bolalari, aka-ukalari, opasingillari yoki nabiralariga qarash bilan bandligini va ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi.

Agar boquvchining o'limi mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, baxtsiz hodisa haqidagi dalolatnomasi (yoki boshqa rasmiy hujjat) ham taqdim etiladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi arizaga oilaning boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqi balog‘at yoshidagi oila a’zolariga ularning nogironliklari oqibatida berilayotganligi to‘g‘risida TMEKdan olingan tekshiruv dalolatnomalaridan ko‘chirmalarni ilova qiladi.

Vafot etgan pensionerning oilasiga pensiya tayinlash to‘g‘risidagi arizaga shu bandning "a" - "v" va "j" kichik bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlar, zarur hollarda esa shu bandning "z" va "i" kichik bandlarida ko‘rsatilgan hujjatlar xam ilova qilinishi kerak. Pensionerning ish haqi uning pensiya yig‘ma jildidagi xujjatlar bo‘yicha aniqlanadi.

Boquvchining mehnatda yoki kasb kasalligi oqibatida I va II gurux nogironi bo‘lgan vaqt mehnat stajiga qo‘shilgan hollarda arizaga TMEK ning tekshiruv dalolatnomasidan ko‘chirmalar ilova qilinadi.

Basharti vasiylik ostidagi shaxsga pensiya tayinlanishi xususida vasiy murojjat qilayotgan bo‘lssa, u holda vasiyning arizasiga vasiylikni belgilovchi organning vasiy etib tayinlash haqidagi qarori ilova qilinadi. Ota-onalar va vasiylar yashash joylari to‘g‘risida hujjatlar topshiradilar.

Mehnat stajini (umumiyl va maxsus) tasdiqlovchi sifatida qabul qilish mumkin bo‘lgan hujjatlar pensiya tayinlash uchun mehnat stajini tasdiqlash tartibi qonun hujjatlariga ko‘ra belgilanadi⁵⁹.

Pensiyani hisoblab chiqish uchun taqdim etiladigan ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi shakli va uni to‘ldirishga oid qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ish haqini guvohlar ko‘rsatmasi asosida aniqlashga yo‘l qo‘yilmaydi. Lavozim maoshlari shtat jadvalidan ko‘chirmalar va jamoat tashkilotlari a’zolik biletlari haqiqiy ish haqini tasdiqlaydigan hujjat o‘rnini bosa olmaydi.

Ish xaqi to‘g‘risidagi ma’lumotlar butunlay yoki kisman yo‘q bo‘lsa, pensiyani hisob-kitob qilish uchun pensiyani tayinlash kunida rasman belgilangan eng kam ish haqi miqdori olinadi.

⁵⁹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 1994 йил 11 майдаги 249 – сонли карори билан тасдиқланган “Пенсия тайинлаш учун меҳнат стажини тасдиқлаш тартиби тўғрисида НИЗОМ”.

Qaramog‘ida mehnatga layoqatsiz oila a’zolari borligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlari) fuqarolari yig‘inining ma’lumotnomasi qabul qilinadi. Mazkur ma’lumotnomada har bir oila a’zosining familiyasi, ismi, otasining ismi, marhum boquvchiga qarindoshlik aloqasi, ular uning qaramog‘ida bo‘lganligi ko‘rsatiladi.

Ko‘rsatib o‘tilgan hujjat yo‘q bo‘lsa va uni olishning imkoni bo‘lmasa karamog‘ida bo‘lganlik masalasi sud qarori bilan hal etilishi mumkin.

Arizachining urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjat sifatida Ulug‘ Vatan urishi ishtirokchisi guvohnomasidan ko‘chirma, baynalmilalchi jangchilarga beriladigan imtiyoz olish huquqi haqidagi guvohnoma, Shuningdek, ular urush ishtirokchisiga tenglashtirilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qabul qilinadi.

Arizachining urush nogironi ekanligini tasdiqlovchi hujjat sifatida TMEKning tekshirish dalolatnomasidan ko‘chirma, urush nogironi guvohnomasi, shuningdek, urush nogironiga tenglashtirilganligini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar qabul qilinadi.

Bola tug‘ilganligi fakti tug‘ilish haqidagi guvohnoma asosida, o‘n sakkiz yoshgacha tarbiyalaganlik esa - pasport, vafot etganlik haqidagi guvohnoma, mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlarida) fuqarolari yig‘ini ma’lumotnomasi va boshqa hujjatlar asosida belgilanadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur hujjatlarning asl nusxasi ham, ularning notarial tartibda, arizachini pensiya tayinlashga taqdim etayotgan korxona muassasa, tashkilot ma’muriyati yoki Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi tasdiqlagan nusxalari xam topshirilishi mumkin.

Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar faqat asl nusxada topshiriladi. Biroq mehnat stajini tasdiqlovchi xujjat faqat mehnat daftarchasi bo‘lgan hollarda, undan ohirgi ish joyidagi korxona, muassasa, tashkilot ma’muriyati yoki Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma topshirilishi mumkin.

Har yilning boshida kelgusi yilda pensiya yoshiga etadigan barcha ishchi,

xizmatchi, fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari va boshqa kooperativlarning barcha ishchilari, xizmatchilari, a’zolari uchun ular ishlayotgan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlar ma’muriyati (boshqaruvi) tomonidan ularning shaxsiy varaqalari va mexnat daftarchalari asosida maxsus ro‘yxatlar tuziladi.

Ro‘yxatga mazkur korxonaning ham umumiyligi, ham imtiyoziyli shartlarda pensiya olish huquqini oluvchi barcha xodimlari kiritiladi.

Korxona ma’muriyati ro‘yxatda ko‘rsatilgan xodimlarga pensiya tayinlash uchun oldindan hujjatlar tayyorlashga kirishadi. Zarur hollarda yetishmayotgan hujjatlarni so‘rab olish, tegishli hollarda esa xodimning fikri bo‘yicha uning ish davrlarini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan guvohlarni qidirib topish choralari ko‘rilishi kerak.

Korxona ma’muriyati to‘plagan barcha xujjatlar asosida pensiya tayinlash uchun taqdimnomani rasmiylashtiradi.

Korxona ma’muriyati xodim pensiya yoshiga yetgan kundan kechiktirmay uning pensiya olish huquqiga ega bo‘lganligini bildirishga majburdir,

Hujjatlar va taqdimnomalar xodimniig arizasi bilan birga arizachining yashash joyidagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limiga yuboriladi. Korxona ma’muriyati pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlarni to‘play olmagan hollarda, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limiga bor xujjatlar topshiriladi, etishmagan xujjatlar esa nazarda tutilgan muddatlarda qo‘srimcha ravishda taqdim etiladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo‘lgan oila a’zolarining barchasi uchun bitta umumiyligi pensiya tayinlanadi. Oilan a’zosining talabiga ko‘ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to‘lanadi.

Agar tug‘ilgan vaqtini ko‘rsatuvchi hujjatda aniq kun ko‘rsatilmay oy ko‘rsatilgan bo‘lsa, tegishli oyning 15 kuni tug‘ilgan kun hisoblanadi.

Agar taqdim etilgan hujjatda faqat tug‘ilgan yili ko‘rsatilib tug‘ilgan oyini ko‘rsatilmagan bo‘lsa, Shu yilning 1 iyuli tug‘ilgan kun hisoblanadi.

Pensionerlarga rasmiy hujjat hisoblanadigan pensiya guvohnomasi

beriladi. Fuqarolarning pensiya ta'minotidagi barcha o'zgarishlar ularning pensiya guvohnomalarida o'z vaqtida aks ettirilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007 yil 3 sentyabrda 1710-son bilan ro'yxatga olingan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2007 yil 23 iyuldagagi 118-son buyrug'i bilan "Pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to'ldirish qoidalari hamda pensionerlar yig'ma jildini rasmiylashtirish va yuritish tartibi haqida haqidagi Yo'riqnomalarining tasdiqlangan bo'lib⁶⁰, ushbu Yo'riqnomalar Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarida pensiya tayinlash uchun hujjatlarni qabul qilish, pensiya hujjatlarining shakllari, to'ldirilish qoidalari, pensiya ishi yig'ma jildini rasmiylashtirish, pensiya tayinlash bo'yicha barcha zarur hujjatlar va ro'yxatga olish kitoblarini bir xil tartibda yuritilishini tashkil etilishini ta'minlaydi.

2. Pensiya tayinlashda o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi

Tayinlanadigan pensiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil - o'rtacha oylik ish haqidan iborat. Shu sababli o'rtacha oylik ish haqi to'g'ri aniqlanishi va to'g'ri hisoblanishi muhim ahamiyatga egadir.

Pensiya tayinlash chog'ida o'rtacha oylik ish haqini hisoblashning uumimiy tartibi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunni 31-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yil uchun (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) amaldagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. O'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmis kalendor oydagagi ish haqining umumiyligi miqdorini oltmishtga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga qarab, ishga kirish yoki ishdan bo'shash munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmasan oylar ishlangan to'liq kalendor oylar sifatida hisobga olinadi.

Pensiya so'rab murojaat etgan kishi besh yildan oz vaqt ishlagan hollarda

⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига 2007 йил 3 сентябрда 1710-сон билан рўйхатга олинган. "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2007 йил, 35-36-сон, 368-модда.

o‘rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylaridagi ish haqining umumiy miqdorini Shu oylar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo‘lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda amaldagi o‘rtacha oylik ish haqi istalgan ketma-ket besh mavsumdagi ish haqini oltmishga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam ish haqining sakkiz hissasidan ortiq bo‘limgan ish haqi olinar edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi, 2019 yilning 1 yanvardan «Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-5597-sonli Farmoniga asosan: -“Pensionerlarni ijtimoiy jihatdan yanada qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda ularning salohiyati, tajribasi va bilimini to‘laqonli jalb qilish, pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda xalqaro tamoyil va standartlarni joriy etish maqsadida:

1. Belgilab qo‘yilsinki, 2019 yil 1 yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to‘liq miqdorda to‘lanadi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining **2019 yil 1 yanvardan pensiyani hisob-kitob qilish uchun ish haqining maksimal miqdorini eng kam oylik ish haqining sakkiz barobaridan o‘n barobarigacha oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.**
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi 2019 yil 1 yanvardan pensiyani hisoblashda qabul qilinadigan ish haqining maksimal miqdori oshirilishini hisobga

olgan holda pensiyalar miqdori qaytadan hisoblab chiqilishini ta'minlasin”⁶¹ - deb belgilandi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo'lган yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar umuman bo'lмаган hollarda ish staji uchun pensiya eng kam oylik ish haqiga qarab hisoblab chiqariladi.

Ish haqining natural qismi ijtimoiy sug'urtaga o'tkazilgan badallar miqdoriga qarab baholanadi.

Boshqa davlatlardan ko'chib kelgan, O'zbekiston Respublikasida ishlamagan fuqarolarga pensiyalar O'zbekistondagi tegishli kasb hamda malakadagi xodimlarning pensiya tayinlanayotgan vaqtagi o'rtacha oylik ish haqiga asoslangan holda hisoblab chiqariladi.

Basharti, bunday kasb hamda malakalar respublikada bo'lmasa, o'rtacha oylik ish haqini aniqlash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi. Chet elda ishlashga yuborilgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarishda ular chet elga yuborilishidan oldin olgan ish haqi hisobga olinadi. Turli davrlarda tayinlangan davlat pensiyalarini barobarlashtirish maqsadida joriy qilingan tuzatish koeffitsentlari qo'llash tartibi bekor qilindi⁶².

3. Pensiyalarni hisoblab chiqarish

Pensiyalar miqdorini hisoblab chiqarish paytida ish haqi miqdori va mehnat stoji hajmi muhim o'rinn tutadi. «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunning 25-moddasiga ko'ra pensiyalarning qat'iy miqdori uch tarkibiy qism:

- a) pensiyaning tayanch miqdori;
- b) ish stoji uchun pensiyaning oshirilishi;
- v) pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tashkil topadi.

Ushbu uch tarkibiy qismning aniqlanishi turli pensiya turlarida bir munka

⁶¹ Каранг. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги, 2019 йил 1 январдан “Фуқароларнинг пенсия таъминоти тизими самарадорлигини ошириш ва пенсионерларни ижтимоий қўллаб кувватлашни кучайтиришга оид кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5597-сонли Фармони.

⁶² Каранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йилнинг 1 майидан бошлаб иш ҳақи, пенсиялар, типендиялар ва ижтимоий нафакалар микдорини ошириш тўғрисида”ги ПФ-3596-сонли Фармони. “Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами”, 2005 йил, 15-16-сон, 110-модда.

o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularni hisoblab chiqarilishida ular asos qilib olinadi.

Pensiyaning tayanch miqdori. a) yoshga doir to‘liq pensiya uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun (31 va 33-moddalar) olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

v) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a’zosiga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

g) ota-onasidan judo bo‘lgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolg‘iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

Ish staji uchun pensiyaning oshirilishi. To‘liq pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to‘liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari quyidagicha oshiriladi:

a) yoshga doir pensiyalar-pensiyani hisoblab chiqarish uchun (31 va 33-moddalar) olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

g) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a’zosi uchun-boquvchining o‘rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Otasidan ham, onasidan ham judo bo‘lgan (chin etim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish

haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining sakkiz hissa miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Yoshga doir pensiyalarning va I hamda II guruh nogironlariga belgilanadigan nogironlik pensiyalarining miqdori-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqining 75 foizidan;

Pensiya miqdorini hisoblashdagi uchinchi tarkibiy qism - pensiyalarga qo'shiladigan ustama haqlardir.

hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

- a) I guruh urush nogironlariga-eng kam oylik ish haqining 150 foizi;
- b) II guruh urush nogironlariga-eng kam oylik ish haqining 125 foizi;
- v) ko'zi ojizlik bo'yicha I guruh nogironlariga-eng kam oylik ish haqining 100 foizi;
- g) I guruh nogironlariga-eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- d) II guruh yolg'iz nogironlariga-eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- e) urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga-eng kam oylik ish haqining 50 foizi;
- j) Ulug' Vatan urushi yillarida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga-eng kam oylik ish haqining-30 foizi;
- z) vafoti harbiy xizmat burchlarini bajarish bilan bog'liq harbiy xizmatchilarining ota-onalari va xotinlariga (yangi nikohdan o'tmaganlarga)-eng kam oylik ish haqining 30 foizi;
- i) O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo'lgan shaxslarga-xizmatlariga qarab-eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;
- l) yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga-eng kam oylik ish haqining 75 foizi;
- m) teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'ati ijodiy xodimlari tayyorlovchi o'quv muassasalarining professor-o'qituvchilari va konsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi

belgilaydigan ro‘yxatga ko‘ra-eng kam oylik ish haqining-50 foizi.

Ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish staji to‘liq bo‘lmagan chog‘dagi pensiyalar:

yoshga doir pensiyalar uchun-eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

I guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun-eng kam oylik ish haqining 100 foizidan;

II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun-eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a’zosiga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun-eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

ham otasi, ham onasidan judo bo‘lgan (chin etim) har bir bolaga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun-eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam bo‘lmasligi lozim.

Ustama haqlar tayinlanayotgan pensiyaning turidan qat’i nazar qo‘shib hisoblanadi.

Pensiya so‘rab murojaat etgan kishiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ustama haq bilan bir paytda O‘zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo‘lgan shaxslarga-xizmatlariga qarab-eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha ko‘rsatilgan ustama haq qo‘shib hisoblanishi mumkin.(ikkita ustama haq berilishi mumkin).

Tayinlangan pensiyalar keyinchalik qayta hisoblanishi mumkin. Pensiyani qayta hisoblashga asos bo‘ladigan ana Shunday holatlar «Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida»gi qonunning 49-moddasida ko‘rsatib qo‘yilgan bo‘lib, ular quyidagi hollarda qayta hisoblanadi:

pensioner pensiya miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo‘lgan ish staji va ish haqi to‘g‘risidagi hamda boshqa) qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;

nogironlik guruhi o‘zgarganda;

boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oladigan oila a’zolari soni

o‘zgarganda;

eng kam oylik ish haqi miqdorlari o‘zgargan taqdirda;

mintaqaviy koeffitsient belgilangan (bekor qilingan) yoki uning miqdori o‘zgargan taqdirda;

daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana Shunday huquq paydo bo‘lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin.

Pensiyani oshirish huquqi paydo bo‘lganida tayinlangan pensiyani qayta hisoblash pensioner pensiyani qayta hisoblash uchun murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan amalga oshiriladi.

Pensiya miqdorini kamaytirishga sabab bo‘ladigan holatlar vujudga kelgan taqdirda qayta hisoblash ana shu holatlar paydo bo‘lgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

4. Pensiyalarni to‘lash

Tayinlangan pensiyalarni to‘lash tartibi "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi qonunda belgilab berilgan. Shuningdek, ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni ular istiqomat qilib turgan joydagи ijtimoiy ta’minot bo‘limlari to‘laydi.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo‘yilgan, lekin uning tomonidan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya puli pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr uchun to‘lanadi.

Pensiyani tayinlovchi yoki to‘lovchi organning aybi bilan o‘z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o‘tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to‘lanadi.

Nogironlik pensiyasini oluvchi shaxs uzrsiz sabablarga ko‘ra belgilangan muddatda qayta ko‘rikdan o‘tish uchun TMEKga bormagan hollarda unga pensiya to‘lash to‘xtatib qo‘yiladi. Keyinchalik uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda to‘xtatib qo‘yilgan kundan, lekin ko‘pi bilan o‘tgan bir oydan boshlab pensiya to‘lash davom ettiriladi.

Qayta ko'rikdan o'tish muddati uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilganda, agar TMEK uni ana shu davrda nogiron bo'lgan deb topsa, pensiya to'lash to'lov to'xtatib qo'yilgan kundan boshlab to qayta ko'rikdan o'tish kunigacha, lekin ko'pi bilan o'tgan uch yil uchun davom ettiriladi. Bunda nogiron qayta ko'rikdan o'tkazish chog'ida nogironlikning boshqa guruhiba (yuqori yoki past guruhga) o'tkazilgan bo'lsa, pensiya ko'rsatib o'tilgan vaqt uchun avvalgi guruh bo'yicha to'lanadi.

Umumiy kasallik oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotgan nogironga mehnat qobiliyati tiklanganligi sababli pensiya to'lash to'xtatilgan yoki uzsiz sabablarga ko'ra qayta ko'rikdan o'tishga kelmaganligi oqibatida to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda, agar pensiyani to'lash to'xtatilganidan keyin besh yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa, ilgari tayinlangan pensiyani to'lash nogironlik belgilangan kundan boshlab davom ettiriladi. Agar besh yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa, pensiya yana umumiy asoslarda tayinlanadi.

Chin etim (otasidan ham, onasidan ham judo bo'lgan) bolalarga ular to'liq davlat ta'minotida turgan davrida pensiya eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida pensiya to'lanadi.

Ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida turgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya to'lanadi.

Shu davrdagi to'lanishi lozim bo'lgan pensiya puli bolaning nomiga jamg'arma bankida ochilgan omonatga o'tkazib qo'yiladi.

Pensioner vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a'zolariga to'lanadi. Ota-onasi, eri (xotini), shuningdek pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashab turgan oila a'zolari bu pulni, ular boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensiya va nafaqa faqat pensionerning yoki nafaqa oluvchining yashash joyida (ro'yxatdan o'tgan erda) to'lanadi. Shu sababli topshiriqnomalar va ro'yxat

pensiya yoki nafaqa oluvchining yashash joyidagi aloqa bog‘lamasi (pochtamt) uchun haqiqiy hisoblanadi.

Pensiya va nafaqalarni to‘lash to‘lov hujjatlarida ko‘rsatilgan qat’i belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Oylik to‘lash muddati pensionerga birinchi to‘lash paytida ma’lum qilinadi.

Pensiya va nafaqalarni to‘lash muddati dam olish kuniga yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelganda respublika banki bilan kelishib, joriy oy davomida belgilangan to‘lash muddatidan uch kun oldin amalga oshiriladi.

Pensiya birinchi marta to‘langanda pensiya oluvchi tomonidan topshiriqnomalariga pasporti asosida to‘lg‘iziladi, pensiya puli miqdorini, pensiya olingan kunni ko‘rsatib, imzo chekadi. pasport ma’lumotlri pochta xodimi tomonidan tekshirib ko‘riladi.

Agar pensiya yoki nafaqa pulini oluvchi imzo qo‘ya olmasa (savodsiz, salomatlik holati bo‘yicha), u boshqa kishini yoki qarindoshini chaqirishi kerak (ijtimoiy ta’minot va aloqa bog‘lamasi xodimlaridan tashqari). U pul olishga qo‘l qo‘yadi va o‘z pasportining raqami, seriyasi, kim tomondan va qachon berilganligini ko‘rsatadi. Pochtachi bu ma’lumotlarni ko‘rsatilgan hujat bilan solishtirib tekshiradi.

Pensioner, nafaqa oluvchi pensiya, nafaqa olish vakolatini boshqa kishiga ishonch qog‘ozni orqali berishi mumkin (8-ilova), bunda ishonchnoma notarial tartibda yoki oluvchi yashaydigan joydagisi mahalla, qishloq (posyolka), ovul fuqarolari yig‘inida yoki ishonchnomani bergen pensioner davolanayotgan davolash muassasalari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Pensiya va nafaqani ijtimoiy ta’minot va pochta aloqasi xodimlariga ishonchnoma bo‘yicha to‘lash qat’iyan ta’qiqlanadi.

Chet elga doimiy yashash uchun chiqib ketishdan oldinroq tayinlangan pensiyalar tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limiga chiqib ketish to‘g‘risida ariza berilgan kundagi holatga ko‘ra pensiya miqdori hisobidan chet elga chiqib ketish oldidan 6 oyligi oldindan to‘lanadi.

Bu fuqarolarning chet elda bo‘lgan vaqtini uchun, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o‘zga qoidalar nazarda tutilmagan bo‘lsa, mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan pensiyalargina to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 23 iyundagi qarori bilan «Mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi tufayli tayinlangan pensiyalarni boshqa mamlakatlarga o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom tasdiqlangan.

Pensiyalar to‘lash sohasida Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi a’zosi bo‘lgan davlatlar o‘rtasida 1992 yil 13 martada o‘zaro bitim tuzilgan bo‘lib, bitim asosida bu sohadagi o‘zaro hamkorlik tartibga solinadi.

Pensiyalar va ular qo‘shib beriladigan ustama haqlardan soliq olinmasligi belgilangan.

Pensioner ishdan bo‘shatilgani taqdirda korxona yoki muassasa pensiya to‘lashni to‘xtatadi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining

penioner yashash joyidagi bo‘limiga qaysi davrga qadar pensiya to‘langanini ko‘rsatib, habar yuboradi.

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy havfsizdik vazirligida hisobda turgan pensionerlarga pensiyalar ular amalda doimiy yashab turgan erlarida xalq banki muassasalari orqali to‘lanadi.

Mehnat shartnomasi asosida kalendar yil davomida ikki oydan ko‘p bo‘limgan vaqt davomida ishlaganlari taqdirda pensiya to‘la hajmda to‘lanadi.

Pensioner to‘liq yoki to‘liqsiz ish vqaqtি rejimida ishlashidan qat’iy nazar bir kalendar yilda ikki oydan ko‘p muddat ishlagani taqdirda tayinlangan pensiyaning 50 foyizi to‘lanadi. Xozirda esa O‘zbekiston Renspublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi PF-5597 Farmoniga asosan 2019 yil 1 yanvardan barcha ishlovchilarga pensi 100 foiz to‘lanadi.

Korxona va tashkilotlarning raxbarlari pensionerlarni ishga qabul qilganlari taqdirda 5 kunlik muddat ichida bu haqda pensioner yashab turgan erdagи byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limiga xabar berishga majburdirlar.

Pensioner ishga kirgani yoki xususiy tadbirkorlik bilan Shug‘ullana boshlagani haqida Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limini xabardor qilishi loim va aks xolda undan ortiqcha to‘langan pensiya pullari qaytarib undirib olinadi.

o‘rindoshlik bilan ishovchi pensionerlarga pensiya asosiy ish joyidan to‘lanadi.

O‘zi uchun boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oluvchi shaxslar ishga kirgan hollarda pensiya 50 foiz miqdorida ish joyidan to‘lanar edi.

Boshqa oila a’zolariga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oluvchi ishlovchi fuqarolarga (vasylarga) pensiya ularning yashash joyidan to‘liq miqdorda to‘lanadi. Xususiy (shaxsiy) tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi pensionerlarga, shuningdek, dehqon (fermer) xo‘jaligida ishlovchilarga pensiya ularning yashash joyidagi ijtimoiy ta’milot idoralari tomonidan 50 foiz miqdorida to‘lanar edi. Xozirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrdagi, 2019 yilning 1 yanvardan «Fuqarolarning pensiya ta’miloti tizimi

samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5597-sonli Farmoniga asosan: -“Pensionerlarni ijtimoiy jihatdan yanada qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda ularning salohiyati, tajribasi va bilimini to'laqonli jalb qilish, pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, mazkur yo'nalishda xalqaro tamoyil va standartlarni joriy etish maqsadida:

1. Belgilab qo'yilsinki, 2019 yil 1 yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanadi”.

5. Harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash va to'lash

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilariga (ofitserlar, praporshiklar, michmanlar va boshqa muddatdan tashqari harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar) sobiq SSSRning bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lib turgan «xarbiy xizmatchilarni pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunga muvofiq quyidagi pensiyalar tayinlanadi:

- a) uzoq yillik harbiy xizmat pensiyasi;
- b) harbiy xizmat nogironlik pensiyasi;
- v) harbiy xizmatchi vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga yaroqsiz shaxslarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Yuqorida eslatib o'tilgan qonunda ushbu pensiyalarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi, pensiya tayinlash asoslari va shartlari ko'rsatib qo'yilgan.

Xarbiy xizmatchi va uning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash, pensiyani tayinlash hamda to'lash tegishli harbiy organlarning pensiya bo'limlari tomonidan qonun hujjalarda belgilab qo'yilgan tartib hamda muddatlarda amalga oshiriladi.

- 1) xarbiy xizmatchilarga uzoq yillik xizmat qilganlik pensiyasini tayinlash «xarbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunni 13-

moddasiga ko‘ra uzoq yillik xizmat pensiyasini olish huquqiga quyidagilar ega bo‘ladilar:

- a) ofitserlar, praporshiklar, michmanlar, muddatidan tashqari xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlarning boshliqlar hamda oddiy xizmatchilar tarkibidan bo‘lgan shaxslari - kamida 20 yil va undan ko‘p xizmat qilgan bo‘lsalar;
- b) ofitserlar, praporshiklar, michmanlar, o‘rta, katta va oliv boshliqlar tarkibiga kiruvchi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlarning xodimlari - 50 yosh va undan keyin ushbu harbiy xizmatdan yoshi tufayli yoki kasalligi, shtatlar soni qisqartirilganligi yoxud salomatligi ahvoli cheklanganligi oqibatida harbiy xizmatdan bo‘shatilgan bo‘lsalar hamda xizmatdan bo‘shatilgan kunga kelib kamida 12 yil-u 6 oy harbiy xizmat muddatiga, kamida 25 yil umumiy mehnat stajiga ega bo‘lsalar.

Uzoq yillik xizmat pensiyasining miqdori quyidagicha bo‘ladi:

- a) 20 yillik harbiy xizmat davri uchun pul to‘lovlarning 40 foizi, yoshi yoki kasalligi tufayli xizmatdan bo‘shatilgan harbiy xizmatchilarga esa - yillik to‘lovlarning 45 foizi; 20 yildan ortiqcha harbiy xizmatning har bir yili uchun tegishli oylik to‘loving 3 foizi, ammo uning 75 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda.

Kamida 12 yilu 6 oy xizmat qilgan, umumiy mehnat staji 25 yildan kam bo‘lmagan 50 yoshdan oshgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlar xizmatchilari uchun umumiy 25 yillik ish staji uchun harbiy xizmatchi oyligining 40 foizi va 25 yildan ortiqcha har bir to‘liq mehnat staji yili uchun 1 foizdan qo‘srimcha haq miqdorida pensiya tayinlanadi.

xarbiy xizmatchilarning eng kam pensiyasi miqdori pensiyalarning rasman belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak.

xarbiy xizmatchilarning uzoq yillik xizmat pensiyalariga ular qaramog‘ida mehnatga yaroqsiz oila a’zolari borligi, ular I guruh nogironi, 80 yoshdan oshgan pensionerlar ularning qaramog‘larida ekanligi hisobga olinib ustamalar qo‘sib

berishlik nazarda tutilgan.

2) xarbiy xizmatchilarga nogironlik pensiyasini tayinlash
xarbiy xizmatchi sifatida nogironlik pensiyasini olishga quyidagilar haqli
bo‘ladilar:

- a) agar nogironlik harbiy xizmat burchini o‘tash paytida yuz bergen
bo‘lsa;
- b) harbiy xizmatdan bo‘shatilganlaridan so‘ng uch oy o‘tmasdan yuz bergen
bo‘lsa;
- v) nogironlik keyinchalik yuz bergen bo‘lsa-da, ammo uning sabablari
harbiy xizmatni o‘tash davrida olingan yaralanish, kontuziya yoki jarohatlar
oqibatida yuz bergen bo‘lsa.

Nogironlik guruhlari, sabablari va yuz berish vaqtini TMEK tomonidan qonun
hujjatlarda belgilangan tartibda belgilanadi. Nogironlik, uning sabablariga ko‘ra
urush nogironi va harbiy xizmat bilan bog‘liq bo‘lmagan nogironlikka bo‘linadi.

Xarbiy xizmatchilarga quyidagi miqdorda nogironlik pensiyasi tayinlanadi:

- a) 1-P guruh urush nogironlariga ular oylik pul to‘lovlarining 75
foizi;
- b) III guruh urush nogironlariga - oylik maoshlarining 50 foizi;
- v) boshqa nogironlarga: 1-P guruhlar uchun 55 foiz, III guruh
nogironlari uchun esa 30 foiz oylik maoshlari miqdorida.

Xarbiy xizmatchilarning nogironlik pensiyalariga qonun hujjatlarda belgilab
qo‘yilgan miqdorda ustamalar qo‘shib beriladi («Xarbiy xizmatchilarning pensiya
ta’mnoti to‘g‘risida»gi qonunning 27-moddasi).

3) xarbiy xizmatchilarning oila a’zolariga boquvchisini yo‘qotganlik
pensiyasini tayinlash

Xarbiy xizmatchilarning oila a’zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini
olishga quyidagi hollarda haqli bo‘ladilar:

- a) agar boquvchi harbiy xizmatni o‘tash davrida vafot etgan bo‘lsa;
- b) agar boquvchi harbiy xizmatdan bo‘shatilgach uch oy o‘tmasdan turib
vafot etsa;

v) agar boquvchi xizmatdan bo'shatilgach, 3 oydan ko'p vaqt o'tgach vafot etgan bo'lsa-da, ammo uning o'limiga xizmatni o'tash davrida yuz bergen yaralanish, kontuziya va boshqa jarohatlar sabab bo'lga bo'lsa;

g) vafot etgan pensioner harbiy xizmatchi pensiya olayotgan davrda yoki pensiya to'lash to'xtatilganidan so'ng 5 yil o'tmasdan turib vafot etgan bo'lsa;

d) harbiy xarajatlar davrida bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari vafot etgan harbiy xizmatchi oila a'zolariga tenglashtiriladilar.

Harbiy xizmatchi oila a'zosi sifatida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga uning qaramog'da bo'lib kelgan, mehnatga yaroqsiz bo'lga quyidagi shaxslar haqli sanaladilar:

a) marhum harbiy xizmatchining 18 yoshga to'limgan bolalari, 18 yoshga yetmagan uka-singillari, nabiralari, 18 yoshga etgan bo'lsa-da nogiron bolalari, uka, singillari, nabiralari (agar ularning mehnatga yaroqli otonalari bo'lmasa);

b) 60 yoshdan oshgan otasi, 55 yoshdan oshgan onasi yoki bu yoshga tetmasalarda - nogiron bo'lsalar;

v) marhumning 8 yoshga yetmagan bolasi parvarishi bilan band bo'lga va ishlamayotgan xotini (eri), ota-onasi, bobosi, buvasi, opa-singillari yoshidan qat'i nazar;

g) marhumning bobosi va buvisi agar qonun bo'yicha ularni boqishga majbur bo'lga boshqa qarindoshlari bo'lmasa.

Ota-onasidan mahrum bo'lib qolgan (chin etim) harbiy xizmatchining yetim bolalariga ular to'liq davlat ta'minotida bo'lga hollarda ham pensiya 100 foiz to'lanadi. Boshqa yetim bolalar (harbiy xizmatchi bolalari) davlat ta'minotida bo'lgnalarida esa tayin etilgan pensiyaning 25 foizi to'lanadi.

Harbiy xizmatchining xotini (eri) yangi nikohga kirganida ham boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqini saqlab qoladi.

O'gay ota, o'gay ona basharti vafot etgan harbiy xizmatchi o'gay farzandni kamida 5 yil tarbiyalagan yoki ta'minlagan bo'lsa boquvchisini yo'qotganlik

pensiyasi olishga haqli oila a'zolar tarkibiga kiradi.

Farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar umumiy asoslarda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli bo'ladilar.

6. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasining miqdori

O'zbekistonni himoya qilish paytida va boshqa harbiy harakatlar paytidagi yaralanish, kontuziya yoki jarohatlardan vafot etgan harbiy xizmatchilar (Ichki ishlar vazirligi Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlarning xodimlari)ning pensiya olishga haqli bo'lgan mehnatga yaroqsiz har bir oila a'zosiga marhum harbiy xizmatchi oylik maoshining 40 foizi miqdorida pensiya tayinlanadi.

xarbiy xizmat va harbiy burchni bajarish bilan bog'liq bo'limgan sabablar tufayli vafot etgan harbiy xizmatchilarning qaramog'ida bo'lgan mehnatga yaroqsiz oila a'zolarining har biriga marhum harbiy xizmatchi oylik maoshining 30 foizi miqdorida pensiya tayinlanadi.

xarbiy xizmatchi oila a'zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasining eng kam miqdorlari qonun hujatlarida belgilangan (harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunning 40-moddasi).

xarbiy xizmatchi oila a'zolariga yagona pensiya tayinlanadi va har bir oila a'zosi talabi bilan umumiy boquvchisini yo'qotganlik pensiyasidan tegishli hissa ajratib berilishi mumkin.

xarbiy xizmatchilarga va ularning oila a'zolariga pensiyalar tayinlash tartibi, muddatlari hamda pensiyalarning to'lanish tartiblari «Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunda (qonunning VI (51-54-moddalari) va VII (55-63-moddalari) bo'limlarida hamda tegishli harbiy idora (Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqalar) tomonidan qabul qilinadigan idoraviy

me'yoriy hujjatlar bilan⁶³ tartibga solinadi. Xarbiy xizmatchi yoki uning oila a'zolari harbiy xizmat pensiyasi o'rniga o'z xohishlari bilan umumiy (fuqarolik) pensiyalarini olishga ham haqli bo'ladilar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Pensiya tayinlashni so'rab qachon murojaat qilish mumkin ?
2. Pensiya tayinlash xaqidagi arizaga qaysi hujjatlar ilova qilinadi ?
3. Pensiyalar qaysi davlat organi tomonidan tayinlanadi ?
4. Ishlayotgan xodimlar uchun pensiya tayinlash haqidagi hujjatlar kim tomonidan taqdim qilinadi ?
5. Pensiya tayinlashga oid hujjatlar qansa muddat ichida ko'rib chiqilishi lozim ?
6. Harbiy xizmatchiga yoki uning oila a'zolariga pensiya kim tomonidan tayinlanadi ?
7. Pensiya tayinlash chog'ida o'rtacha oylik ish xaqi qanday xisoblanadi ?
8. Ishni to'xtatgan shaxslarga va yakka tadbirkor fuqarolarga pensiya qanday tayinlanadi ?
9. Tayinlangan pensiyalarni to'lash tartibi qanday ?
10. Ishni davom ettirayotgan pensionerlarga pensiya tayinlash qanday tartibda amalga oshiriladi ?
11. Pensiyalardan chegirma qilish qanday tartibda amalga oshirilishi mumkin ?

Tayanch so'z va iboralar.

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilish. Pensiya tayinlash uchun zarur hujjatlar. Pensiya tayinlovchi organlar. Ishlayotgan xodimlarga pensiya tayinlash. Pensiya tayinlashga oid hujjatlarni ko'rib chiqish . Pensiya tayinlashni rad etish. Xarbiy xizmatchiga yoki uning oila a'zolariga pensiya tayinlash

Glossariylar.

Tayinlanadigan pensiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil – o'rtacha oylik ish haqidagi iborat. Shu sababli o'rtacha oylik ish haqi to'g'ri aniqlanishi va to'g'ri hisoblanishi muhim ahamiyatga egadir

Xarbiy xizmatchi oila a'zosi sifatida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga uning qaramog'da bo'lib kelgan, mehnatga yaroqsiz bo'lgan quyidagi shaxslar haqli sanaladilar:

- a) marhum harbiy xizmatchining 18 yoshga to'limgan bolalari, 18 yoshga

⁶³ Масалан, Каранг: Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 1999 йил 21 декабрда рўйқатга олинган «Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги пенсионерларига пенсияларни тўлашнинг вактинчалик тартиби.

etmagan uka-singillari, nabiralari, 18 yoshga etgan bo‘lsa-da nogiron bolalari, uka, singillari, nabiralari (agar ularning mehnatga yaroqli otonalari bo‘lmasa);

- b) 60 yoshdan oshgan otasi, 55 yoshdan oshgan onasi yoki bu yoshga etmasalarda - nogiron bo‘lsalar;
- v) marhumning 8 yoshga etmagan bolasi parvarishi bilan band bo‘lgan va ishlamayotgan xotini (eri), ota-onasi, bobosi, buvasi, opa-singillari yoshidan qat’i nazar;
- g) marhumning bobosi va buvisi agar qonun bo‘yicha ularni boqishga majbur bo‘lgan boshqa qarindoshlari bo‘lmasa.

Xarbiy xizmatchining xotini (eri) yangi nikohga kirganida ham boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqini saqlab qoladi.


-o‘gay ota, o‘gay ona basharti vafot etgan harbiy xizmatchi o‘gay farzandni kamida 5 yil tarbiyalagan yoki ta’milagan bo‘lsa boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olishga haqli oila a’zolar tarkibiga kiradi.

Farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar umumiylasoslarda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olishga haqli bo‘ladilar.


Tarqatma materiallar.

9-chizma

Pensiya tayinlovchi organlar



10-chizma



Testlar.

1.Harbiy xizmatchilarga qanday pensiya turlari tayinlanadi?

- A)* uzoq yillik harbiy xizmat pensiyasi;
- B)umumiylar nogironlik pensiyasi
- S)umumiylar boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi
- D)yoshga doir pensiyalar.

2.Harbiy xizmatchilar uzoq yillik xizmatlari uchun pensiyasining miqdori oylik pul to‘lovlarining qancha miqdorigacha bo‘ladi?

- A)* 75 % gacha
- B)50 % gacha
- S)30 % gacha
- D)100 % gacha

3.Harbiy xizmatchilarga tayilanadigan pensiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil bu...

- A)* oylik to‘lovi
- B)Respublikada o‘rnatilgan eng kam ish haqi;
- S)besh yillik ish haqi;
- D)uch yillik ish haqi

4.Harbiy xizmatchi yoki uning oila a’zolari harbiy xizmat pensiyasi o‘rniga o‘z hohishlari bilan umumiylar (fuqarolik) pensiyalarini olishga haqli bo‘ladilarmi?

- A) * haqli bo‘ladi
- B)haqli bo‘lmaydi;
- S)qonuniy asos yo‘q;
- D)Respublikada o‘rnatilgan eng kam ish haqi miqdorida haqli bo‘ladi

5.Tayilanadigan pensiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil bu...

- A)* xodimning besh yillik ish haqi;
- B)o‘rtacha oylik ish haqi;
- S)Respublikada o‘rnatilgan eng kam ish haqi;
- D)uch yillik ish haqi.

6. Pensiyalarning tayanch miqdorini hisoblab chiqarishda amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq eng kam ish haqining necha baravarigacha miqdori olinadi ?

- A)eng kam ish haqining sakkiz baravarigacha
- B)eng kam ish haqining etti baravarigacha
- S)*eng kam ish haqining o‘n baravarigacha
- D)eng kam ish haqining ikki baravarigacha

7. Pensiyalar tayinlashga oid munosabatlar ijtimoiy ta’minot huquqining:

- A)*ob’ekti sanaladi
- B)sub’ekti sanaladi;
- S)ob’ekti ham, sub’ekti xam bo‘la olmaydi;
- D)mehnat huquqi ob’ekti sanaladi

8. Ijtimoiy ta’minot soxasida qonunchilikka rioxasi etilishi ustidan nazoratni:

- A)* Prokuratura organlari amalga oshiradilar
- B)Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi organlari amalga oshiradilar
- S)Moliya vazirligi organlari amalga oshiradilar
- D)“Nuroni” jamg‘armasi jamoat nazorati olib boradi

7-mavzu. Nafaqalar va ularni tayinlash.

1. Nafaqalar tushunchasi, ularning umumiy tasnifi va ijtimoiy ta'minot huquqida tutgan o'rni.
2. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash.
3. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi
4. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa
5. Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa (suyunchi puli)
6. Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa
7. Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa
8. Byudjet hisobidan to'lanadigan ijtimoiy ta'minot va ularning turlari

1. Nafaqalar tushunchasi, ularning umumiy tasnifi va ijtimoiy ta'minot huquqida tutgan o'rni.

Bozor munosabatlari qaror topishi sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy ta'minoti shakllaridan biri - fuqarolarga tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalardan iborat bo'lib, ular o'zining miqyosi va keng qamrovligi jihatdan pensiyalardan keyin ikkinchi o'rinda turadi va aholining muayyan nochor tabaqalariga aniq yo'naltirilganligi, odatda ehtiyojmandlarga tayinlanishi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Qanchalik qiyin bo'lmasin, davlat va jamiyat pensionerlar, serfarzand oilalar, talabalar hamda aholining kuchli ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan boshqa tabaqalari xususida g'amxo'rlik qilishni bir daqiqa bo'lsa ham unutgani yo'q»⁶⁴.

Nafaqa ijtimoiy ta'minot huquqiga oid kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari, davlat byudjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, mutazam ravishda yoki bir marta ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat bo'lib, pensiyalardan farq qiladi va odatda yordamchi xususiyatga ega bo'ladi hamda fuqaro turmush kechirishning

⁶⁴ Каранг: Ислом Каримов. «Хозирги босқичда демократик ислоқохларни чукурлаштиришнинг муким вазифалари». «Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби». 5-том, Т., «Ўзбекистон», 1997 йил, -Б. 113.

asosiy manbai bo‘lib hisoblanmaydi. Pensiyalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar - pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan va tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir.

Pensiyalardan farqli o‘laroq, nafaqa vaqtinchalik xususiyatga ega, turmush darajasini ta’minlashning qo‘sishimcha manbai bo‘lib sanaladi va tayinlanishida nafaqa oluvchining avvalgi mehnat faoliyati va mehnat staji har doim ham unchalik katta ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

To‘lanish manbalariga ko‘ra nafaqalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘laridan (byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan) to‘lanadigan ;
2. Davlat byudjet mablag‘laridan to‘lanadigan ;
3. Boshqa manbalardan to‘lanadigan nafaqalarga bo‘linadi.

Davriyligiga ko‘ra:

- 1) Muntazam tarzda uzoq muddat davomida to‘lanadigan ;
- 2) Muayyan muddat davomida to‘lanadigan ;
- 3) Bir marta to‘lanadigan nafaqalarga bo‘linadi.

Nafaqani oluvchilar toifasiga ko‘ra:

- 1) Fuqarolarga tayinlanadigan;
- 2) Oilaga yaxlit ko‘rinishda tayinlanadigan nafaqalar mavjud.

Bulardan tashqari, nafaqa:

- 1) korxona va tashkilotlarning xodimlariga to‘lanadigan;
- 2) bolalarga to‘lanadigan;
- 3) nogironlarga to‘lanadigan;
- 4) yolg‘iz qariyalarga to‘lanadigan va boshqa turdagi bo‘lishi mumkin.

Nafaqalarning turlarini, ularni tayinlash va to‘lashga oid qonunchilik qoidalarini bilish bu sohada qonuniylikn ta’minlanishi, ijtimoiyadolat qaror toptirilishida katta ahamiyatga ega.

2. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarni tayinlash va to‘lash.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlanadigan va to‘lanadigan nafaqalar fuqarolarni ijtimoiy-moddiy ta’minlashda etakchi o‘rin tutadi.

Ijtimoiy ta’minotning ushbu shakli fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan muhim huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (XVI bob, 282-294-moddalar)⁶⁵; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 24 avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lash tartibi» hamda «Dehqon xo‘jaligi a’zolari ijtimoiy sug‘urtasi va ijtimoiy ta’minoti to‘g‘risida»gi nizom⁶⁶ va nihoyat O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 14 may kuni ro‘yxatga olingan «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi nizom bilan⁶⁷ va boshqa bir qator me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqa olishga talabgor fuqaroning (yoki uning oila a’zosini) mehnat faoliyati bilan, uning uchun ish beruvchilar tomonidan yoki bevosita o‘zi tomonidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy sug‘urtasi badallari o‘z vaqtida, to‘liq va muntazam ravishda to‘lab berilganligi bilan bog‘liq qilib qo‘yilgan. Ya’ni ijtimoiy sug‘urta badallari to‘lanmaydigan ish faoliyati bilan shug‘ullanish yoki sug‘urta badallarini muntazam to‘lanmaganligi odatda ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqa olish huquqining paydo bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi, «Sug‘urta badallari to‘lanmagan bo‘lsa nafaqa ham tayinlanmaydi» degan tamoyil amal qiladi. Ammo O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 284-moddasi, ikkinchi qismiga ko‘ra: «Ish beruvchining davlat ijtimoiy sug‘urtasi uchun badal to‘lamaganligi sug‘urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan

⁶⁵ Каранг: Ўзбекистон Республикасининг Мекнат Кодекси, Т., «Адолат», 1999 йил.

⁶⁶ Каранг: Ўзбекистон Республикасининг қонун қўжатлари тўплами, 2001 йил, 16-сон, 109-модда.

⁶⁷ Каранг: Ўзбекистон Республикаси вазирликлари, давлат қўмиталари, идоралари меърий қўжатлари Акборотномаси. 2002 йил, 9-сон.

ta'minlanish huquqidan mahrum qilmaydi». Korxonalar ixtiyoriy to'lamagan yoki kechiktirgan sug'urta badallari soliq boqimandalariga tenglashtirilgani holda moliyaviy sanksiyalar qo'llanilib keyinchalik majburiy tarzda undirib olinadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa sug'urtalangan xodimlarga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan hollarda, boshqa fuqarolarga ham beriladi. Umumiy qoidaga ko'ra xodim ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida (sinov davrida ham) bo'lgan davrda unda nafaqa olish huquqi paydo bo'ladi. Ayrim hollarda, ya'ni mehnat shartnomasi alohida asoslarga ko'ra bekor qilingandan (Mehnat kodeksining 67-moddasi) keyin bir oy ichida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlangan bo'lsa, nafaqa yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'lanadi.

Nafaqa, mehnat qobiliyati tiklangan, nogironlik belgilangan, homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagan, vafot etgan yoki bola tug'ilgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida murojaat kilinganda to'lanadi. Bunda, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi uni olish uchun murojaat qilingan kungacha bo'lgan 12 oydan oshmagan davr uchun beriladi.

Vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) kunlari xodimning ishdan noqonuniy bo'shatilgani to'g'risida nizo ko'rيلayotgan davrga to'g'ri kelgan hollarda, u ishga tiklangan taqdirdagina (barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun) nafaqa olish huquqiga ega bo'ladi.

«Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida»gi 1-bandiga ko'ra byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha quyidagi beriladi:

- homiladorlik va tug'ish uchun;
- bola tug'ilgani uchun;
- qo'shimcha dam olish kuni uchun;
- dafn etish marosimi uchun.

2007 yil 1 yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to'lash bilan bog'liq xarajatlar byudjet tashkilotlari tomonidan -mehnat haqi

jamg‘armasiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari doirasida;

- Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan - foyda solig‘ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirining 2007 yil 25 iyundagi "Davlat ijtimoiy sug‘urtasi nafaqalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida"gi Nizomga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi M-31-sonli buyrug‘i).

Endi ushbu nafaqalarni tayinlashning o‘ziga xos xususiyatlarini batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

3. Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik paytida beriladigan nafaqa turli sabablar bilan (kasalligi, yosh bolalar yoki boshqa bemor oila a’zolarini parvarishlash va boshqalar) tufayli to‘lash va ish haqi olish imkoniyatidan maxrum bo‘lib qolgan xodimlar va ularning oila a’zolarini moddiy qo‘llab-quvvatlashning muhim shakli sanaladi.

«Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik» tuShunchasi qonun hujjatlarida keng ma’noda talqin etiladi va kasallik yoki jarohat olish tufayli mehnat layoqati vaqtincha yo‘qolib qolishdan boshqa bir qator holatlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

«Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning 9-bandiga ko‘ra quyidagi hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yuz berishi nazarda tutilgan:

- a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda);
- b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- v) kasallangan oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;
- g) karantinda;
- d) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;
- e) mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a’zo (protez) qo‘ydirish uchun

reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Demak, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tuShunchasi ancha keng ma'noga ega.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi faqat belgilangan tartibda, berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asosidagina tayinlanishi mumkin.

«Ishlayotgan fuqarolarning va o'quvchilarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligini O'zbekiston Respublikasi davolash-profilaktika muassasalarida ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi nizom» O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 19 yanvarda ro'yxatga olingan bo'lib⁶⁸, unga asosan nogiron bo'lmasa-da, muayyan mehnat sharoitiga muhtoj shaxslar uchun tavsiya etiladigan ishlar; uzoq yoki doimiyga mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslarni aniqlash va ularni tekshirish uchun TMEKlarga yuborish; davolash-diagnostika jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mehnatga layoqatsizlik sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur nizomga ko'ra vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlikni ekspertizadan o'tkazishga vakolatli bo'lgan davolash-profilaktika organlari, ularning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlar hamda javobgarliklari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 19 yanvar kuni «Mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari va ma'lumotnomalarini berish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaga ro'yxatga olingan⁶⁹.

Ishlamayotgan, ish haqi saqlanmagan holdagi ta'tilda bo'lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar (erkin yollanganlardan tashqari), attestatsiya qilingan Ichki ishlar vazirligi xodimlariga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi berilmaslik ko'zda tutilgan.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi bilan quyidagi holatlar tasdiqlanadi:

- a) xodimning o'z ishidan ozod etilganligi;
- b) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik paytida nafaqa olishga bo'lgan huquqi;

⁶⁸ Каранг: Ўзбекистон Республикаси вазирлклари, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий кужжатлари Ақборотномаси, 2000 йил, 2-сон.

⁶⁹ Каранг: ўша манба.

v) kasallik yuz bergenligi fakti hisobga olinganligi.

Mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi o'rniga ma'lumotnomma berilganida uning vositasida:

a) xodimning ishdan ozod etilganligi;

b) kasallik yuz bergenligi fakti hisobga olinganligi tasdiqlanadi.

Mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi yoki bu haqdagi ma'lumotnomma vakolat berilgan davlat-profilaktika muassasalari tomonidan, istisno tariqasida va maxsus tartibga ko'ra nodavlat tibbiyat muassasalari tomonidan berilishi mumkin bo'ladi.

«Mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi va ma'lumotnommasini berish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaning 8-bandiga muvofiq mehnatga layoqatsizlik varaqasi quyidagi hollarda beriladi:

a) vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan holda kasal bo'lib qolish (jarohat olish);

b) homiladorlik va tug'ish ta'tili boshlanganda;

v) bemor oila a'zosini parvarishlashi zarur bo'lib qolganida;

g) sanatoriya-kurort (ambulatoriya-kurort)da davolanish paytida;

d) sil kasalligi yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;

e) karantin yuz bergenida;

j) statsionar protez-ortopediya korxonasida protezlash amalga oshirilganida.

Ambulatoriya-poliklinika sharoitida davolanganida mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi davolovchi vrach tomonidan 5 kungacha muddatga berilishi mumkin. 5 kun o'tgach, har safar 10 kungacha muddatga davolovchi vrach tomonidan bo'lim boshlig'i bilan birgalikda, bo'lim boshlig'i bo'limganida esa vrachlar maslahat komissiyasi (VKK) raisi bilan birgalikda bemor sog'ayguniga qadar yoki u tibbiy mehnat ekspert komissiyasiga yuborilguniga qadar uzaytirilishi mumkin.

Uzoq vaqt kasal bo'lgan shaxslar mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan

kundan boshlab uzog‘i bilan 3 oy ichida (bir xil kasallik bilan 12 oy davomida jami bo‘lib 4 oy mehnatga qobiliyatsiz bo‘lib qolganda) TMEKga jo‘natilishlari lozim.

Alkogolli ichimlik iste’mol qilishi oqibatida kasal bo‘lgan yoki jarohat olgan shaxslarga mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi o‘rniga ma’lumotnomha beriladi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo‘qolgan hollarda, nafaqa, uning o‘rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa mehnat qobiliyati yo‘qolgan birinchi kundan to u tiklangunga qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilangunga qadar, hatto bu davrda xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham beriladi.

Oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga nafaqa ular ishga chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Xodimning mehnatga qobiliyatsizlik kunlari yillik (asosiy va qo‘sishimcha) ta’til davriga to‘g‘ri kelgan hollarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa to‘lanadi.

Sanatoriylar davolanishda, agar asosiy va qo‘sishimcha ta’til xodimning sanatoriyyada davolanishi uchun etarli bo‘lmasa, nafaqa beriladi. Bunday holda sanatoriylar davolanishning barcha davri uchun (yo‘llanma, davolanish muddati) sanatoriya borish-kelish vaqtini qo‘sib, ammo xodimning yillik ta’tilini chiqarib tashlagan holda nafaqa beriladi.

Asosiy va qo‘sishimcha ta’tildan sanatoriya borishdan oldin foydalangan bo‘lsa ham nafaqa uni chiqarib tashlagan holda beriladi. Bunda ish beruvchi ta’tilning etmaydigan vaqtini uchun xodim bilan kelishib, unga ish haqi saqlanmagan ta’til beradi.

Ikkinci jahon urushi nogironlariga, baynalmilal jangchilarga, CHenobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, Shuningdek, sanatoriya davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o‘tkir

miokard infarkti bilan kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aortakoronar shuntrovkasi va anevrizmlari, oshqozonning yarali kasalligi, o‘n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o‘t pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek, sil kasalligi bilan og‘riganlarga nafaqa sanatoriyda bo‘lgan barcha vaqt uchun beriladi.

O‘n olti yoshgacha bo‘lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (homiyga yoki vasiyga), nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun (sanatoriyga borib-kelish vaqtini hisobga olib) unga yakka tartibda parvarish zarurligi to‘g‘risidagi tibbiy xulosa mavjud bo‘lganda nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo‘lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo‘lgan ona kasal bo‘lib, bolani parvarishlashga qurbi etmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo‘lgan ishlayotgan boshqa oila a’zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo‘lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo‘lgan ona kasal bo‘lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo‘lgan ishlayotgan boshqa oila a’zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo‘lgan a’zosiga qarash bo‘yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo‘lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.O‘n to‘rt yoshga etmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo‘lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo‘lgan xodimlarga mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to‘g‘risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko‘rsatilgan ish kunlari doirasida to‘lanadi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa

mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi.

Ishlayotgan Ikkinchı jahon urushining nogironlariga va imtiyozlari jihatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha ishlarni bajarish bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik Nafaqasi (mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari) ketma-ket to‘rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi.

Agar ishlovchi nogironning vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to‘la sog‘aygunga yoki mehnatda mayiblanish yoxud kasb kasalligi bilan bog‘liq nogironlik guruhi qayta ko‘rib chiqilgunga qadar to‘lanadi.

Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa shaxs to‘la sog‘aygunga qadar, lekin ko‘pi bilan 10 oyga beriladi.

Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb topilganda nafaqa ko‘pi bilan 6 oyga beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to‘g‘ri kelganda nafaqa to‘lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta’til;
- bolani parvarishlash bo‘yicha ta’til;
- ish vaqtincha to‘xtatilgan;
- xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to‘lash to‘xtatib qo‘yilganligi sababli ishlamagan;
- harbiy o‘quv yoki tekshiruv yig‘ini;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo‘srimcha ta’til.

Bu davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

ishdan yoki boshqa vazifalardan bo‘yin tovlash maqsadida o‘z salomatligiga ataylab ziyon etkazgan yoxud o‘zini kasallikka solganda;

giyohvandlik yoki mastlik bilan bog‘liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarini iste’mol qilish natijasida kasallikka chalinganda (jarohatlanganda);

jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda;

sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruhiy kasallardan tashqari);

hibsda bo‘lgan davrda;

sud-tibbiyot ekspertizasidan o‘tish davrida.

Yuridik shaxs bo‘lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan Shug‘ullanuvchi shaxslar hamda dehqon xo‘jaligi a’zolari, byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarini to‘lamagan, shifokor belgilagan tartibni buzgan yoki uzsiz sabablarga ko‘ra belgilangan muddatda shifokor ko‘rigiga yoki TMEKga kelmagan hollarda, buzish sodir bo‘lgan kundan boshlab Byudjetdan tashqri Pensiya jamg‘armasi tuman(shahar) bo‘limi tomonidan belgilangan muddatga nafaqadan maxrum qilinadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 28 fevraldagagi 71-sonli "Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalar to‘lash chegarasini takomillashtirish to‘g‘risida"gi qaroriga ko‘ra:

2002 yil 1 martdan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqalar:

Ikkinci jahon urushi qatnashchilaridan bo‘lgan xodimlarga, baynalmilalchi jangchilarga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga, qaramog‘ida 16 yoshga (o‘quvchilar uchun - 18 yosh) to‘limgan uch nafar va undan ko‘p farzandi bo‘lgan

xodimlarga, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga, Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko‘chirilgan qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o‘tkir leykoz), qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o‘smalar bilan bog‘liq kasalliklarga chalingan xodimlarga, yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro ob’ektlarida harbiy xizmatni o‘tagan pensiya yoshidagi nogiron xodimlarga, shuningdek xodim ishda shikastlanish va kasb kasalliklari oqibatida vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotganda oylik ish haqining to‘liq miqdorida;

ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklar bo‘yicha hisobda turuvchi xodimlarga, ular tomonidan davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar to‘lab kelinishi muddatiga (umumiyl ish stajiga) qarab oylik ish haqining 60 foizidan 100 foizigacha miqdorda;

qolgan hollarda, ular tomonidan davlat ijtimoiy sug‘urtasiga badallar to‘lab kelinishi muddatiga (umumiyl ish stajiga) qarab oylik ish haqining 60 foizidan 80 foizigacha miqdorda to‘lanadi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo‘lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo‘lmasligi lozim.

4. Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa

Ishlayotgan ayollarga jami 126 kalendar kun kundan iborat homiladorlik ta’tili va egizak bola tug‘ilsa yoki tug‘ish og‘ir kechgan hollarda 140 kun miqdorida homiladorlik va tug‘ish ta’tili beriladi. Ushbu ta’til davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanib qolinadi hamda ularga ushbu davr uchun davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobdan nafaqa beriladi.

«Davlat ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi nizomga muvofiq homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa ni tayinlash va to‘lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo‘ladi.

Xomiladorlik va tug‘ish bo‘yicha berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo‘qolgan hollarda nafaqa uning o‘rniga takroriy berilgan

vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

xomiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa (shu jumladan, homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha davr uchun to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning «O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi (27.12.2016 yildagi PQ-2699-son) Qarori bilan homiladorlik va tug‘ish nafaqasi tayinlash tartibiga o‘zgartirishlar kiritildi.

Unga muvofiq homiladorlik va tug‘ish nafaqasi miqdori haqiqatda ishlangan vaqtga bog‘liq holda tabaqlashtiriladi. Shu bilan birga ishlangan vaqt birinchi marotaba ishga kirganlar uchun ham, o‘z mehnat faoliyatini 12 oydan ko‘p tanaffusdan keyin davom ettirayotganlar uchun ham hisobga olinadi:

- ishga olingan kundan boshlab 6 oygacha – 50%;
- 6 oydan 12 oygacha – 75%;
- 12 oydan ortiq – 100%.

Masalan, ayol ilk marotaba ishga kirdi va 6 oy ham ishlamasdan homiladorlik va tug‘ish ta’tiliga chiqyapti. Unga o‘rtacha oylik ish haqining 50%i miqdorida nafaqa tayinlanadi. Yoki yana bir boshqa misol – ayol bir yildan ortiq muddat mobaynida hech qayerda ishlamadi, ishga kirdi va oradan 11 oy o‘tib, homiladorlik va tug‘ish ta’tiliga chiqyapti. U o‘zining o‘rtacha oylik ish haqining 75%i miqdorida nafaqa olishi mumkin. Shu tariqa, ilk marotaba ishga kirgan vaqtidan boshlab yoki 12 oydan ko‘p vaqt tanaffusdan keyin, Shuningdek, agar tanaffus 12 oydan kam bo‘lgan bo‘lsa, bir yil mobaynida ishlab berilgan taqdirda homiladorlik va tug‘ish nafaqasini 100% miqdorda olish mumkin.

Bir yilgacha stajda «dekretpuli» miqdori – 75 foiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 27.12.2016 yildagi PQ-2699-son qaroriga ishlangan davrga bog‘liq holda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar miqdoriga taalluqli o‘zgartirishlar kiritildi. Tuzatishlar Prezidentning 4.04.2018 yildagi PF-5398-son Farmoni bilan kiritilgan va 5.04.2018 yilda kuchga kirdi, deb yozmoqda Norma.

Eslatib o'tamiz. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa miqdori ayol ishga qabul qilingan kundan boshlab amalda ishlangan vaqtiga qarab tabaqlashtirilgan:

- 6 oygacha – o'rtacha oylik ish haqining 50%;
- 6 oydandan 12 oygacha – 75%;
- 12 oydan ortiq – 100%.

Endi esa 6 oygacha bo'lган ish stajida nafaqalarni to'lash tartibi bekor qilindi va ishga qabul qilingan kundan boshlab 12 oydan kam ish staji bo'lganda nafaqaning yagona miqdori belgilandi – 75%. Ya'ni, agar ayol, olaylik, atigi 5 oy ishlab «dekret ta'tili»ga chiqqan bo'lsa, uning nafaqasi miqdori ilgarigidek 50% emas, balki 75%ni tashkil etadi. **Endilikda homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa vaqtida to'lanadi, deya xabar qildi Moliya vazirligi. Yangi mexanizm aprel oyidan ishga tushiriladi.** (TOSHKENT, 28 fev — Sputnik. O'zbekiston Moliya vazirligi homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa(dekret puli) to'lash taomilini soddalashtirdi. Zarur hujjatlar ro'yxati qisqartirildi, axborot texnologiyalari joriy etildi. Yangi mexanizm 2018 yil 1 apreldan to'laqonli ishlay boshlaydi, deya xabar beriladi Moliya vazirligi matbuotxizmati).

Xodim ishdan bo'shatilishining noto'g'riliqi haqida nizo ketayotgan davrda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa u ishga qayta tiklangan taqdirda beriladi. Bunda homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ni ayolni ishga qayta tiklash to'g'risida qaror chiqqandan so'ng, nafaqa to'lanmagan barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun to'lanadi.

Oliy, o'rtalik maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan ayollarga ishni boshlagunga qadar homiladorlik va tug'ish bo'yicha berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asosida nafaqa ayol ishga kelishi lozim bo'lган kundan boshlab beriladi.

Ishni vaqtinchalik to'xtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til davrida

homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til berilgan holda, nafaqa ko‘rsatilgan davr tugagandan keyin ayol chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Xodim yillik (asosiy va qo‘s Shimcha) ta’tilda va bolani parvarishlash uchun ta’tilda bo‘lgan vaqtda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko‘rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta’til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta’til boshlanishidan oldinga 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o‘rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo‘lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsienti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Ish haqi to‘lash to‘xtatilib, ishdan (lavozimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlaragan davrda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to‘lanmaydi. Agar homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til ishga qo‘yilgandan keyin ham davom etadigan bo‘lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo‘lgan kundan boshlab beriladi.

Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

Bu xizmatlarni ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2017 yil 12 dekabrdagi PQ-3430-son qaroriga muofiq “Davlat xizmat markazlari” tomonidan ko‘rsatiladi.

5. Bola tug‘ilganda beriladigan nafaqa (suyunchi puli)

Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi.

Ish haqiga koeffitsient qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Ishlayotgan ayollarga, hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o‘rtamaxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturada tahsil olayotgan ayollarga bola tug‘ilganda

beriladigan bir martalik nafaqa tegishlicha ish yoki o‘qish joyidan to‘lanadi.

Bolaning onasi ishlaydigan va o‘qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiydigan otasi yoki ota-ona o‘rnini bosuvchi shaxslarga to‘lanadi.

Ishlamaydigan va o‘qimaydigan ota-onalarga bola tug‘ilganda nafaqa Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan tayinlanadi va to‘lanadi.

Farzandlikka olingen bolalarga bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Agar ayol homiladorlik bo‘yicha ta’til davrida ishdan bo‘shab, Shu davr mobaynida homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqa olgan bo‘lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

Bola o‘lik tug‘ilgan hollarda nafaqa to‘lanmaydi.

6. Qo‘srimcha dam olish kuni uchun nafaqa

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 230-moddasiga ko‘ra:

«Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o‘n olti yoshga to‘lgunga qadar davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to‘lagan hamda oyiga qo‘srimcha bir dam olish kuni beriladi».

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 84-bandiga ko‘ra esa "Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o‘n olti yoshga to‘lgunga qadar davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to‘lagan holda oyiga qo‘srimcha bir dam olish kuni beriladi.

Nogiron bolani tarbiyalayotgan ishlayotgan ota-onaning biri (vasiy, xomiyning) bu haqda bergen arizasi hamda nogiron bolani tarbiyalayotganligini tasdiqllovchi hujjat asosida ish beruvchi bu haqda buyruq chiqaradi hamda har oyning qaysi aniq sanasida bir kun qo‘srimcha dam olish kuni berilishi masalasi ushbu huquqdan foydalanayotgan ota yoki ona (homiy, vasiy) bilan kelishib belgilanadi.

Nogiron bolalarni tug‘ruq bo‘limlari (chaqaloqlar, bolalar uylari)dan farzandlikka olgan shaxslarga ham ushbu nafaqa tayinlanaveradi.

7. Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 288-moddasiga muvofiq: «Sug‘urta qilingan xodim yoki uning oila a’zosi vafot etganda qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda dafn etish marosimi uchun nafaqa to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2010 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida"gi qonuniga⁷⁰ ko‘ra ham dafn etish uchun nafaqa to‘lash nazarda tutilgan.

«Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi nizomga ko‘ra:

Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog‘ida bo‘lgan quyidagi oila a’zolari vafot etganda beriladi:

- a) turmush o‘rtog‘i;
- b) 18 yoshga to‘lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat‘i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;
- v) ota-onasi;
- g) bobosi yoki buvisi.

Yashash uchun mustaqil mablag‘ manbaiga ega bo‘lgan (ish haqi, pensiya, stipendiya oluvchi, shirkat xo‘jaligining mehnatga qobiliyatli a’zolari hisoblanuvchi va hokazo) oila a’zolari qaramog‘ida turgan deb hisoblanmaydi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oila a’zolariga yoki dafn o‘tkazishni o‘z zimmasiga olgan shaxslarga beriladi.

Oilaning vafot etgan a’zosini dafn etish marosimi uchun nafaqa ishlovchi xodimga beriladi.

Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

⁷⁰ Ўзбекистон Республикасим қонун хужжатлари тўплами. 2010., 52-сон, 508-модда.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishlamaydigan pensioner vafot etgan takdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo'limgan miqdorda, ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'lanadi.

Ish haqiga rayon koeffitsienti belgilangan joylarda dafn etish marosimi uchun nafaqa miqdori ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'limgan tarmoqlar uchun beriladigan tuman koeffitsientini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun NAFAQA, agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan bir oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida, magistraturada, aspiranturada, klinik ordinaturada, doktoranturada tahsil olayotgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a'zolari vafot etgan taqdirda, dafn etish marosimi uchun NAFAQA umumiy asoslarda to'lanadi.

Maktablar, kurslarning (kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va tayyorlash bo'yicha), shuningdek, malaka oshirish institatlari o'quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institatlarga korxona tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 1 maydagi qarori bilan «Keksalar va mehnatga yaroqsiz fuqarolar, nogiron bolalar va bolalikdan nogironlarning dafn marosimi uchun bir yo‘la beriladigan taiinlash va to‘lash tartioi to‘g‘risida»gi nizom tasdiqlandi⁷¹.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 iyundagi qarori bilan tasdiqlangan «Bolalikdan nogironlarga, qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi nizomga ko‘ra hayot chog‘ida nafaqa olgan yolg‘iz keksalar, mehnatga layoqatsiz fuqarolar, nogiron bolalar va bolalikdan nogiron shaxslar vafot etganlarida, ularning oila a’zolariga yoki ularni dafn etishni amalga oshirgan shaxslarga belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki barobari miqdorida dafn qilish Nafaqasi beriladi. nafaqa byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobidan beriladi.

Bir yo‘la beriladigan nafaqani olish uchun marhumning oila a’zolari yoki boshqa shaxslar marhum vafotidan boshlab 6 oy ichida vafot etgan shaxs nafaqa oluvchi sifatida hisobda turgan tuman (shahar) ijtimoiy ta’midot bo‘limiga murojaat qilishlari lozim.

Bunday nafaqa ni olishlik uchun:

- a) vafot etganlik haqidagi ma’lumotnomasi (asl nusxasi);
- b) dafn etish arizachi tomonidan amalga oshirilgani haqida fuqarolar yig‘ini ma’lumotnomasi taqdim etiladi.

Bir yo‘la beriladigan dafn qilish nafaqasi berish haqidagi arizani ijtimoiy ta’midot organlari tomonidan ko‘rib chiqish tartiblari, muddatlari, arizani rad etish asoslari, ijtimoiy ta’midot bo‘limining arizani rad etish to‘g‘risidagi qarori ustidan shikoyat berish tartibi qonun hujjatlarida belgilangan. Dafn qilish nafaqasidan soliq olinmaydi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha tayinlash va to‘lash tartibi bu haqdagi nizomda belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

xodimning asosiy ish joyidan korxonaning Ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha komissiyasi yoki Shu ish uchun vakil qilingan komissiya a’zosi tomonidan

⁷¹ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси қонун қўжатлари. 2002 йил, 9-сон, 65-модда.

tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a'zolari soni va raisi korxona rahbarining buyrug'i yoki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlanadi.

Komissiya mehnatda mayiblanganlarga, kasb kasalligiga chalinganlarga nafaqa tayinlash, nafaqa to'lashni rad etish, nafaqa dan (to'liq yoki qisman) mahrum etish va nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va boshqa hujjatlarning asosli ravishda va to'g'ri berilganligini ko'rib chiqish huquqiga ega. qolgan barcha hollarda komissiyaning Shu ishga vakil qilingan a'zosi tayinlaydi.

Komissiyalar bo'limgan korxonalarda , ish beruvchi tomonidan Shu ishga buyruq bilan vakil qilingan shaxs tomonidan tayinlanadi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, dehqon xo'jaligi a'zolariga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnomaga asosida ishlayotganlarga ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib, byudjetdan tashqari Pensiya jag'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

o'quvchi, talaba va aspirantlarga mazkur nizomning 80-91-bandlariga binoan o'qish joylarida tayinlanadi va to'lanadi.

qurolli kuchlar safidan ozod etilgandan keyin vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga nafaqa mazkur Nizomning 5-bandiga binoan tuman (shahar) Pensiya jag'armasi bo'limlari tomonidan tayinlanadi.

Xodimlar vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik muddati tugaganidan so'ng chiqishining birinchi kunidayoq korxonaga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini taqdim etadilar. Mehnatga qobiliyatsizlik davom etayotgan hollarda, navbatdagi ish haqi berilishi vaqt kelganda topshirilishi mumkin.

Korxonada vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasining «Tabelchi tomonidan va kadrlar bo'limi tomonidan to'ldiriladi» degan bo'limlariga zarur ma'lumotlar yoziladi va vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (bemor haqidagi ma'lumotlar yozib, imzo qo'yiladi) ijtimoiy sug'urta komissiyasiga topshiriladi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa sodir bo‘lganlik haqidagi (N-1-shaklda) dalolatnoma asosida tayinlanadi.

Agar baxtsiz hodisa boshqa sharoitlarda ro‘y bersa (uyda ishga borish yoki ishdan qaytishda, davlat yoki jamoatchilik burchini bajarayotgan paytda), nafaqa ro‘y bergen baxtsizlik sabablari ish beruvchi tomonidan o‘rganib chiqilgandan keyingina tayinlanadi.

Nafaqa olish huquqi ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha komissiya yoki vakil qilingan komissiya a’zosi har bir vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo‘yicha to‘lov amalga oshirilishi lozim bo‘lgan kunlar sonini va ish haqiga nisbatan belgilanadigan nafaqa foizi miqdorini belgilaydi. nafaqa foizi miqdori nafaqa belgilash bayonnomasida va komissiya raisi yoki vakil qilingan komissiya a’zosining imzosi qo‘yilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida qayd qilinadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo‘yicha nafaqa komissiya tomonidan (jarohatlangan xodimning ahvoli komissiya majlisiga kelishga imkon bergen taqdirda uning ishtirokida) tayinlanadi. nafaqa dan mahrum etish, nafaqa dan to‘liq yoki qisman rad etish masalasi nafaqa oluvchining ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo‘yicha nafaqa olish huquqiga ega bo‘limagan taqdirda, komissiya nafaqa bermaslik to‘g‘risida qaror chiqaradi va rad etish sabablarini vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasiga qayd etadi.

Nafaqa tayinlangandan so‘ng komissiya yoki vakil qilingan komissiya a’zosi korxonaning hisob-kitob bo‘limiga nafaqa chiqarish va to‘lash uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasini topshiradi.

To‘lanadigan va to‘lanmaydigan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalari, shuningdek, nafaqa olish uchun taqdim etilgan barcha boshqa hujjatlar korxona buxgalteriyasida pullik hujjatlarga teng holda, barcha xarajat hujjatlaridan

alohida holda saqlanadi.

xomiladorlik va tug‘ish nafaqasi tug‘ishdan oldin amalda foydalanilgan kunlarning sonidan qat’i nazar, ta’tilning to‘liq davri uchun bir yo‘la to‘lanadi.

Bola tug‘ilganda bir yo‘la to‘lanadigan nafaqani olish uchun ota yoki ona komissiyaga Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) bo‘limi tomonidan berilgan bolaning tug‘ilganlik haqidagi ma’lumotnomasini topshirishi lozim. Berilgan hujjatlar asosida vakillik qiluvchi komissiya a’zosi nafaqa olish huquqini belgilaydi va belgilangan miqdorda uni tayinlash to‘g‘risida qaror chiqaradi va tayinlash bayonnomasiga yozadi. Shundan so‘ng hujjatlar korxonaning hisob-kitob qilish bo‘limiga topshiriladi.

Bola tug‘ilganligi haqidagi ma’lumotnoma yo‘qotilgan taqdirda bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa FHDYO bo‘limlari tomonidan berilgan bola tug‘ilganligi haqidagi takroriy ma’lumotnomaning hamda otaning ish joyidan (o‘qish joyidan) nafaqa olmaganligi haqidagi ma’lumotnoma topshirilganidan so‘ng beriladi.

Xodimning vafoti tufayli uni dafn etish marosimini o‘tkazish Nafaqasini olish uchun ijtimoiy sug‘urta komissiyasiga FHDYO bo‘limi tomonidan berilgan vafot etganlik to‘g‘risidagi ma’lumotnoma topshiriladi. Oila a’zosi vafot etganda esa vafot etganligi haqidagi ma’lumotnomadan tashqari uy-joydan foydalanish idorasi (binodan foydalanish direksiyasi, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari) tomonidan vafot etgan shaxsning xodim bilan qarindoshlik aloqalari borligi va u xodimning qaramog‘ida bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma ham topshirilishi lozim.

Topshirilgan hujjatlar asosida vakil qilingan komissiya a’zosi nafaqa olish huquqini, uning miqdorini belgilaydi va nafaqa tayinlash haqida qaror chiqaradi va nafaqa tayinlash bayonnomasiga yozib qo‘yadi.

Yuridik shaxs bo‘imasdan tadbirdorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs, dehqon xo‘jaligi a’zosiga, shuningdek, ayrim fuqarolarnikida shartnoma asosida ishlayotganlar nafaqa olish uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini, bola tug‘ilganlik haqidagi ma’lumotnomani va vafot etganlik to‘g‘risidagi

ma'lumotnomani ijtimoiy ta'minot bo'limiga topshiradilar. Topshirilgan hujjatlar asosida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari sho'balari tomonidan nafaqa tayinlash (tayinlamaslik) va uning miqdorlari masalasi ko'rib chiqilib, ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'ining qarori chiqariladi va belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Fuqarolarning foizsiz shaxsiy hisob raqamiga nafaqa summasini o'tkazish yo'li bilan bank orqali to'lanadi.

Xodimning vafoti kunigacha olinmay qolgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasi u bilan birga yashagan oila a'zolariga, shuningdek, uning qaramog'ida bo'lgnalarga beriladi.

Xodimning vafot etgan kuniga qadar olinmagan nafaqa vafot etgan xodim bilan qarindosh va birga istiqomat qilganlik yoki vafot etganning qaramog'ida bo'lgnalikni tasdiqllovchi dalil bo'lgn hujjat topshirilgandagina berilishi mumkin.

Bola tug'ilganda bir yo'la to'lanadigan nafaqani olish huquqiga ega bo'lgn ona vafot etganda mazkur nafaqa otaga yoki bolani o'z tarbiyasiga olgan boshqa shaxsga beriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'idan beriladigan nafaqa belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'yicha to'lanishi, fuqarolarning arizasiga binoan bank muassasalaridagi hisobraqamiga o'tkazilishi hamda aloqa bo'limi orqali jo'natilishi mumkin.

Nafaqani jo'natish bilan bog'liq bo'lgn chiqimlar nafaqa summasidan ushlab qolinadi.

Nafaqalar xodimning asosiy ish joyidan korxonaning Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi yoki shu ish uchun vakil qilingan komissiya a'zosi tomonidan tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a'zolari soni va raisi korxona rahbarining buyrug'i yoki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlanadi.

Komissiya mehnatda mayiblanganlarga, kasb kasalligiga chalinganlarga nafaqa tayinlash, nafaqa to'lashni rad etish, nafaqadan (to'liq yoki qisman) mahrum etish va nafaqa olish huquqi yuzasidan kelib chiqqan nizolarni, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va boshqa hujjatlarning asosli ravishda va to'g'ri berilganligini ko'rib chiqish huquqiga ega. Qolgan barcha hollarda nafaqalarni

komissiyaning shu ishga vakil qilingan a'zosi tayinlaydi.

Ysridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, dehqon xo'jaligi a'zolariga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnama asosida ishlayotganlarga nafaqlar ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'ları hisobidan to'lanadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanganda nafaqa ishlab chiqarishda baxtsiz hodisa sodir bo'lganlik haqidagi (N-1-shaklda) dalolatnama asosida tayinlanadi.

Xodim vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bo'yicha nafaqa olish huquqiga ega bo'limgan taqdirda, komissiya nafaqa bermaslik to'g'risida qaror chiqaradi va rad etish sabablarini vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasiga qayd etadi.

Korxona tugatilganda, Nizomga muvofiq nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasi tugatilgan korxonaning huquqiy vorisi yoki tugatish komissiyasi tomonidan beriladi.

Tugatish komissiyasi ishni yakunlagan (yakuniy balans topshirilgan) hollarda, nafaqa ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan tayinlanib, to'lanadi. Bunda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasini tayinlash uchun qo'shimcha hujjatlar, ya'ni tugatish komissiyasi tomonidan to'langan nafaqa (komissiya tomonidan yakuniy balans topshirilib barcha hisobraqamlar yopilganligi) to'g'risidagi ma'lumotnomma taqdim etiladi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs, dehqon xo'jaligi a'zosiga, shuningdek ayrim fuqarolarnikida shartnama asosida ishlayotganlar nafaqa olish uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqalarini, bola tug'ilganlik haqidagi ma'lumotnomani va vafot etganlik to'g'risidagi ma'lumotnomani ijtimoiy ta'minot bo'limiga topshiradilar.

Ortiqcha to'lab yuborilgan nafaqa summasi, agar ortiqcha to'lash sanashda

(arifmetik) adashish yoki nafaqa oluvchining qalbaki ma'lumotnomaga taqdim qilishi (hujjatlarga O'zgartirish kiritish va hokazolar) tufayli sodir bo'lgan bo'lsa, nafaqa oluvchidan undirib olinadi.

Xodimning vafoti kunigacha olinmay qolgan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik hamda homiladorlik va tug'ish nafaqasi u bilan birga yashagan oila a'zolariga, shuningdek, uning qaramog'ida bo'lganlarga beriladi.

Korxonaning bosh buxgalteri komissiya bilan bir qatorda nafaqa to'lash bo'yicha mablag'larining to'g'ri sarflanishi uchun javobgardir.

Nafaqalarni noto'g'ri hisoblash va belgilash hamda to'lash ustidan shikoyat tuman, shahar sudiga berilishi mumkin.

8. Byudjet hisobidan to'lanadigan ijtimoiy ta'minot va ularning turlari.

Muayyan hollarda davlat tomonidan fuqarolarni mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaganliklari va mehnat stoji bor-yo'qligidan qat'iy nazar, moddiy jihatdan ta'minlash amalga oshiriladi.

Bunday ijtimoiy yordamni amalga oshirilishida quyidagi tamoyillarga amal qilinali:

ijtimoiyadolat qoidalariga qat'iy amal qilish;

oshkorali kni ta'minlash;

katta yoshdagagi mehnatga layoqatli aholi o'rtasida boqimandalikka, o'zining iqtisodiy faolligi hisobiga emas, balki davlat yordami hisobiga yashashga intilishga yo'l qo'ymaslik;

bolalar tarbiyasi uchun oila mas'uliyatini kuchaytirish, ularga jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashsiz daromadlarini jiddiy oshirishning aniq imkoniyati mavjud bo'lмаган, kam daromadli oilalarga nafaqalar berish.

Ana shu maqsadda byudjet hisobidan ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordamlar to'lash ko'zda tutilgan bo'lib, ular oila (shaxs)ning moddiy sharoitlari yoki bolalar parvarish qilinayotganligi va boshqa sabablarga ko'ra

tayinlanishi hamda to‘lanishi mumkin.

Quyida ushbu nafaqalarning qisqacha tavsifi, tayinlanish asoslari, shartlari, to‘lanish tartiblarini ko‘rib o‘tamiz.

Voyaga etmagan bolalari bo‘lgan oilalarga tayinlanadigan va to‘lanadigan nafaqalar. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 10 dekabrdagi 437-son qarori bilan tasdiqlangan nizom asosida mazkur nafaqa tayinlanadi.

Nafaqa ushbu nafaqani olishga muhtoj bo‘lgan, tug‘ilgan, bolalikka va homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha (umumta’lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta’lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha) bolalari bo‘lgan oilalarga tayinlanadi va to‘lanadi.

Nafaqa ota-onalardan birining shaxsiy arizasi asosida 6 oy muddatga tayinlanadi va to‘lanadi, ushbu muddat tugagach arizachi yangi muddatga nafaqa to‘lashni davom ettirish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Nafaqa xar oyda to‘lanadi va undan soliqolinmaydi.

Doimiy yashash joyidagi fuqarolarnish o‘zini o‘zi boshqarish organiga nafaqa tayinlash to‘g‘risida yozma ariza bilan murojaat qilishgan oilalarga, alohida hollarda esa ushbu organning raisi (oqsoqoli) taqdimnomasiga binoan tayinlanadi.

Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza bolalarning ota-onasidan biri tomonidan oilaning yashash joyidagi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tegishli organiga ushbu organning raisi nomiga beriladi..

Oilaga nafaqa:

bir bolali oilalar uchun - eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

ikki bolali oilalar uchun - 100 foizi miqdorida;

uch bolali oilalar uchun - 140 foizi miqdorida;

to‘rt va undan ko‘p bolali oilalar uchun - 175 foizi miqdorida belgilanadi.

Agar belgilangan tartibda nafaqa belgilashan davr mobaynida eng kam oylik ish haqi miqdori o‘zgarsa nafaqa miqdori eng kam oylik ish xaqi mikdori o‘zgargan oydan boshlab tegishli ravishda ko‘payadi.

nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;

ota-onaning ikkalasi ham bo‘lman, bolalar tarbiyasi bilan esa qarindoshlari shug‘ullanishadigan oilalar;

bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo‘lgan oilalar;

ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo‘lgan, Bandlikka ko‘maklashish markazlarida ish qidiruvchi sifatida xisobda turgan oilalar nafaqa bilan tao‘minlanishda imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Bolalari to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan oilalarga. Agar oiladagi bolalarning hammasi ham to‘liq davlat ta’minotida bo‘lmasa, u holda nafaqa davlat ta’minotida bo‘lman bolalarni hisobga olgan holda to‘lanadi;

ota-onasi qonunchilikda belgilangan tartibda ota-onalik xuquqlaridan mahrum etilgan oilalarga;

moddiy boyligi (daromadi) bolalarining jismoniy, aqliy va ma’naviy-ahloqiy jihatdan maqbul rivojlanishini ta’minlash imkonini beradigan oilalarga nafaqa tayinlanmaydi.

Oilalarga nafaqa tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi qaror shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) yoki fuqarolar yig‘ini tomonidan shunday masalalarni hal etish uchun vakil qilingan Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Nafaqa tayinlashni so‘rab berilgan arizaga quyidagi xujjatlar qo‘sib topshiradi:

a) oila a’zolarining tarkibi to‘g‘risida yashash joyidan ma’lumotnoma;

b) bolalarning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomalari nusxasi;

v) vasiylik (homiylilik)da bo‘lgan bolalarga nafaqa tayinlash chog‘ida vasiylik (homiylilik) huqukini belgilovchi organning qaroridan ko‘chirma;

g) fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi talabiga ko‘ra - oila a’zolarining daromadlari xaqida ma’lumotnoma;

d) 16 dan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mazkur shaxs haqiqatan ham o‘quv yurtida o‘qiyotganligi va stipendiya olmasligi to‘g‘risida o‘quv yurtidan ma’lumotnoma.

Zarur bo‘lgan hujjatlarning asl nusxalari yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan ko‘chirma nusxalari taqdim etilishi mumkin.

Arizalarni ro‘yxatdan o‘tkazish maxsus ro‘yxatga olish daftarida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning kotibi tomonidan amalga oshiriladi

Oilaning nafaqaga muhtojligini aniqlash uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi huzurida maxsus komissiya tuziladi, uning tarkibi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi raisi (oqsokoli) tomonidan tasdiqlanadi.

Komissiya tarkibiga o‘zini o‘zi boshqarish organining maslahatchilari va kotibi, tuman (shahar) hokimligi tomonidan vakil qilingan, nafaqalar tayinlash va ularni to‘lashda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga amaliy yordam ko‘rsatuvchi tuman (shahar) "Bandlikka ko‘maklashish markazi xodimi, Shuningdek, zarurat bo‘lganda tuman (shahar) soliq va moliya organlarining vakillari kiradi.

Maxsus komissiya nafaqa olish uchun murojaat qilgan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini ariza berilgan sanadan boshlab ikki hafta muddatda tekshiradi hamda ko‘rib chiqish asosida nafaqa tayinlash to‘g‘risida yoki nafaqa tayinlashni rad etish xaqida fuqarolar yig‘iniga ikki hafta muddatda taklif kiritadi.

Oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshirish natijalari yuzasidan Tekshirish dalolatiomasi tuziladi va unda quyidagilar majburiy tartibda ko‘rsatilishi kerak:

- tekshirilayotgan oilaning tarkibi;
- tekshirilayotgan oila umumiy daromadining miqdori;
- oila a’zolari daromadlari shakllanishining asosiy manbalari;
- katta yoshdagi (Mehnatga layoqatli) oila a’zolarining ish bilan ta’minlanganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma.

Har bir oila a’zosiga to‘g‘ri keladigan oilaning umumiy daromadini aniqlash uchun barcha turdagи daromadlar qo‘sib chiqiladi va hosil bo‘lgan summa oila a’zolari soniga taqsimlanadi (daromadlar deganda: soliq solinadigan daromadlar, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan boshqa to‘lovlar, Shuningdek, shaxsiy yordamchi xo‘jalikdan olinadigan daromadlar hisobga

olinadi). Ikki va undan ortiq oy uchun oila a'zolarining daromadlari hisobga olinishi kerak bo'lgan xollarda -hisobga olinishi kerak bo'lgan davr uchun oila a'zolarining umumiy daromadi oila a'zolarining soniga va mazkur davrdagi oylar soniga taqsimlanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mezonlarini va nafaqa tayinlash uchun asoslarni o'zini o'zi boshqarish organi schyotlaridagi mablag'lar miqdoridan va nafaqaning belgilangan miqdorlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilaydi

Nafaqa tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida arizachining fuqarolar yig'inida (Komissiya yig'ilishida) ishtirok etishi majburiydir. Arizachi uzrli sabab (kasallik yoki boshqa uzrli sabablar) bilan qatnashmagan hollarda fuqarolar yig'iniga oilaning balog'at yoshiga etgan boshqa a'zosi qatnashishi shart. Arizachi yoki oilaning boshqa vakili qatnashmagan xollarda mazkur oilaga nafaqa tayinlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilmaydi va u fuqarolarning keyingi yig'inida (Komissiya yig'ilishida) ko'rib chiqish uchun qoldiriladi.

Nafaqa tayinlash rad etilgan xollarda rad etish sababi ko'rsatilgan holda tegishli qaror qabul qilingandan so'ng 5 kun muddatda arizachi bu haqda yozma ravishda xabardor qilinadi.

Mehnat faoliyatidan bo'yin tovlab yurgan va jamiyatga xilof ravishda turmush kechirayotgan ota-onalarning qarovsiz qolgan bolalariga ota-onalarining yozma arizalarisiz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning taqdimnomasiga binoai fuqarolar yig'ini tomonidan nafaqa tayinlanishi mumkin. Bunday hollarda nafaqa natura shaklida berilishi mumkin. Bunda komissiya a'zolaridan xisob beruvchi shaxs tayinlanadi.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan moddiy yordam. Ijtmoiy yordamning bu shakli O'zbekiston Respublikkasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 24 avgustdagi 434-sod qarori bilan tasdiqlangan "Kam taminlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash to‘g‘risidagi qaror fuqarolariing o‘zini o‘zi boshqarish organlari - qo‘rg‘on, qishlok, ovul va shahar mahallalari fuqarolari yig‘inlari, yig‘inni o‘tkazish imkoni bo‘lmaganda ko‘chalar, turar joylar, qishloq, ovul mahallalari fuqarolari vakillarining yig‘ilishi yoki fuqarolar yig‘ini tomonidan kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlash va to‘lash to‘g‘risidagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Komissiya tarkibi fuqarolar yig‘ini (vakillar yig‘ilishi) tomonidan fuqarolar yig‘ini hududida istiqomat qiluvchi eng obro‘-e’tiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan saylanadi. Unga fuqarolar yig‘inining raisi boshchilik qiladi. Komissiya a’zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig‘ini raisi esa uning butun vakolati davriga saylanadi. Mazkur komissiya a’zolarining tarkibi kamida 20 kishidan iborat bo‘lib, har yili ellik foizga yangilanadi.

Moddiy yordam oilaga olti oy muddatga tayinlanadi va to‘lanadi. Ushbu muddat tugagach, agar oilada moddiy ahvol yaxshilanmagan bo‘lsa, yordam yangi muddatga tayinlanishi mumkin

Moddiy yordam fuqarolarning doimiy yashash joyidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yoki qo‘rg‘on, qishloq, ovul mahallasiga yozma ravishda ariza bilan yordam so‘rab murojaat qilgan oilalarga, ayrim hollarda esa fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqolining) tavsiyasiga binoan tayinlanadi.

Arizachining moddiy yordamga muhtojlik darajasini va unga beriladigan oylik moddiy yordamning miqdorini belgilash uchun fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huzurida maxsus komissiyalar tuziladi, uning tarkibiga ushbu organlarning maslahatchilar, kotibi, Shuningdek, zarurat bo‘lganda tuman (shahar) soliq hamda moliya organlarining, Bandlikka ko‘maklashish markazlarining vakillari kiradilar.

Oilaga moddiy yordam tayinlash haqida qaror qabul qilishda arizachining fuqarolar yig‘inida (yig‘ilishida) yoki Komissiya yig‘ilishida qatnashishi shart.

Moddiy yordam tayinlash rad eitlgan taqdirda yig‘ilish bayonida uning

asoslangan sabablari qayd etiladi va bu haqda fuqarolar yig‘ini (yig‘ilish) yoki Komissiya yig‘ilishi qarori ustidan shikoyat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.

moddiy yordam to‘lash muddati tugaganda, yordam ko‘rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o‘zgarganda, doimiy yashash joyi o‘zgarganda oilaga moddiy yordam to‘lash to‘xtatiladi.

Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan etim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash.

Ijtimoiy yordamning bu turi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Moliya vazirligining 2002 yil 21 oktyabrdagi 87, 121 - son qarori bilan tasdiqlangan "Tarbiyalash (patronat) uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash tartibi to‘g‘risida NIZOM" ga ko‘ra amalga oshiriladi.

Mazkur Nizomga ko‘ra bolaning Xalq ta’limi yoki Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tarbiyalash va davolash muassasalari, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimidagi muassasalardan olinishidan qa’hiy nazar, tutingan ota-onalarga o‘z tarbiyasiga olgan har bir bola uchun eng kam oylik ish haqining 3 baravari miqdorida har oylik nafaqa to‘lanadi.

Oilalarga tarbiyalash uchun beriladigan etim bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minlash normalari va uni amalga oshirish tartibi va muddatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to‘lash.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil 14 martda 1112-son bilan ro‘yxatga olingan Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi NIZOMga asosan bunday nafaqalar tayinlanishi va to‘lanishi mpumkin.

Bolani parvarish qilish nafaqasi qo‘rg‘on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolari

yig‘ini yoki maxsus vakolatli komissiya tomonidan, ona yoki amalda bolani parvarish qilayotgan boshqa shaxs qo‘rg‘on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi nomiga beradigan arizasiga asosan tayinlanadi. Ariza hududida mazkur shaxs ro‘yxatdan o‘tkazilgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organiga beriladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

- a) bolaning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasidan ko‘chirma nusxa;
- b) mehnat daftarchasidan ko‘chirma nusxa - ilgari ishlaganlar uchun;
- v) ariza topshirilgan oygacha oila a’zolarining oxirgi o‘n ikki oydagি daromadlari to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- g) bolaning nogironligi to‘g‘risida guvohlik beruvchi VKK xulosasi ko‘chirma nusxasi (zarurat bo‘lganda);
- d) nikohning bekor qilingani to‘g‘risida guvohnomaning ko‘chirma nusxasi yoki tegishli sud qarorlaridan ko‘chirmalar (zarurat bo‘lganda);
- e) onasi bo‘limgan bolani amalda parvarish qiladigan shaxslar onasining yo‘qligidan dalolat beruvchi hujjat - bolaning onasi vafot etganligi to‘g‘risida guvohnoma, onani onalik huquqlaridan mahrum qilish to‘g‘risida sud organlari tomonidan berilgan ma’lumotnomani yoki bolaning (bolalarning) onasi bolani parvarish qilish nafaqasini olmasligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarni qo‘sishma ravishda taqdim etadilar.

Nafaqa tayinlash uchun zarur hujjatlar belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalarda taqdim etiladi.

Bolani parvarish qilish nafaqasini tayinlash uchun qo‘rg‘on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolarining yig‘inida yoki ushbu nafaqani tayinlash va to‘lash masalalarini hal etish uchun fuqarolar yig‘ini vakolat bergen komissiya tomonidan qabul qilingan qaror asos bo‘lib hisoblanadi.

Bolani parvarish qilish nafaqasi oila daromadini hisobga olgan holda tayinlanadi.

Quyidagi hollarda nafaqa oila daromadlaridan qat’iy nazar tayinlanadi:

- a) to‘liq bo‘limgan oilada bolani (bolalarni) tarbiyalayotgan ota va

onalarga. Bunda bolaning to‘liq bo‘lmagan oilada ona (ota) tomonidan tarbiyalanish faktini, muayyan holatlarni hisobga olgan holda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi belgilaydi;

b) nogiron bolani tarbiyalayotgan onalarga (yoki ularning o‘rnini bosadigan shaxslarga). Bunda bolalarning qaysi biri nogiron ekanligining ahamiyati yo‘q.

Bolani parvarish qilish nafaqalarini to‘lash quyidagi hollarda to‘xtatiladi:

- a) parvarish qilinayotgan bola ikki yoshga to‘lganda;
- b) bolaning ixtisoslashtirilgan muassasaga to‘liq davlat ta’minotiga berilishida;
- v) bola vafot etganda;
- g) oila bola bilan doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketganda;
- d) ishga tushilganda;
- e) boshqa joyga ko‘chganda;
- j) tayinlangan muddatning birinchi o‘n ikki oyi oxiridagi holat bo‘yicha oila har bir a’zosining daromadlari belgilangan mezondan oshib ketsa.

Bolani parvarish qilish nafaqasini to‘lashni to‘xtatishga olib keluvchi holatlar to‘g‘risida nafaqa oluvchi o‘zini o‘zi boshqarish organlariga ma’lum qilishi shart.

Bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa to‘lovi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- a) parvarish kilinayotgan bola ikki yoshga to‘lganda;
- b) bola ixtisoslashtirilgan muassasaga (go‘daklar uyiga) to‘liq davlat ta’minotiga joylashtirilganda; v) bola vafot etganda;
- g) oila, bola bilan birgalikda, doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketganda.

Bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa to‘lovi bekor qilinishiga olib keluvchi holatlar haqida nafaqa oluvchi shaxs, nafaqa to‘lovini amalga oshirayotgan organni habardor qilishi shart.

Nafaqa oluvchi shaxs vafot etganda yoki ota-onalik huquqidan mahrum bo‘lganda yoxud bola vasiylikdan olib qo‘yilgan hollarda nafaqa amalda bolani parvarishlayotgan shaxsga ushbu nafaqa to‘langan so‘nggi oyning keyingi oyidan boshlab tayinlanadi.

Bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa bila turib noto‘g‘ri yoki qalbaki (soxta) hujjatlar bo‘yicha olinganligi aniqlangan hollarda, bunday hujjatlarni taqdim qilgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar, ortiqcha to‘langan summalar belgilangan tartibda undirib olinadi.

Bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa to‘lovi bekor qilinishiga olib keluvchi holatlar haqida o‘z vaqtida xabar berilmaganda, to‘lovnini amalga oshirayotgan organning qarori bo‘yicha ortiqcha to‘langan summalar belgilangan tartibda nafaqa olgan shaxsdan undiriladi

Bola parvarishlash uchun nafaqa to‘lovi korxonalarda (tashkilotlarda) ishlayotgan onalar (ona o‘rnini bosuvchi shaxslar) uchun ushbu korxonalarining (tashkilotlarning) o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Yosh bo‘yicha nafaqasi. Yosh bo‘yicha nafaqa ish stajiga ega bo‘lmagan yoki yoshga doyir pensiya tayinlash uchun 5 yildan kam, pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo‘lmagan, va Oila kodeksiga ko‘ra ularni boqishga majbur bo‘lgan yaqin qarindoshlari bo‘lmagan shaxslarga tayinlanadi:

- erkaklarga - 65 yoshga etganlarida;
- ayollarga - 60 yoshga etganlarida.

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan tekshiriv natijalariga ko‘ra nafaqa so‘rab murojaat etgan shaxs qarindoshlarining moddiy nochorligi aniqlangan hollarda nafaqa o‘zlarining keksa qarindoshlariga moddiy yordam ko‘rsata olmaydigan qarindoshlar bor bo‘lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin.

Haq to‘lanadigan ish bajara oladigan yoki boshqa darmad manbaiga ega bo‘lgan shaxslarga nafaqa tayinlanmaydi.

Pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limi tomonidan maxalla fuqarolar yig‘ini bilan birgalikda o‘tkazilgan tekshirish natijalari nafaqa tayinlash yoki uni rad etish uchun asos bo‘ladi.

Qarilik nafaqasining miqdori qat’iy summada belgilanadi va hayot darajasiga mutanosib tarzda indekskatsiya qilib boriladi.

Nogironlik nafaqasi. Nogironlik bo‘yicha nafaqa nogironlik sodir bo‘lgan hollarda, ya’ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo‘qotilganda, faqat birinchi va ikkinchi guruh nogironlarga tayinlanadi va to‘lanadi.

Fuqarolarning mehnat qobiliyatlarini yo‘qotganlik darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirishni faqat tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) ular haqidagi Nizom asosida shahar yoki tuman byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi yo‘llanmasi bo‘yicha amalga oshiradilar.

Ishlab turgan yoki yashashning boshqa manbalariga ega bo‘lgan I va II guruh nogironlarga nafaqa tayinlanmaydi.

Boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha nafaqa. Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lman shaxs vafot etgan takdirda uning qaramog‘ida bo‘lgan oila a’zolari nafaqa olish huquqiga egadirlar.

Oilaning mehnatga layoqatsiz a’zolari qatoriga "Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasida ko‘rsatilgan shaxslar kiritiladilar.

Vafot etganning oila a’zolariga nafaqalar miqdori quyidagicha belgilanadi:

- a) oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a’zosiga - vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan yoshga doir nafaqaning 100 foizi;
- b) oilaning mehnatga layoqatsiz ikkita a’zosiga - nafaqaning 75 foizi;
- v) oilaning mehnatga layoqatsiz bir a’zosiga - nafaqaning 50 foizi

Ijtimoiy ta’mnot nafaqasi (nafaqalari)ni olish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolar Shu huquq paydo bo‘lgandan so‘ng muddat bilan cheklashsiz

istalgan vaqtda uning tayinlanishi uchun murojaat qilishlari mumkin

Nafaqa tayinlash va to‘lash shahar yoki tuman byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi arizani qabul qilib olgan ijtimoiy ta‘minot bo‘limi tomonidan ariza beruvchiga ariza qabul qilingan sana ko‘rsatilgan holda ariza va unga ilova qilingan hujjatlar qabul qilinganligi haqida tilxat beriladi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi (mazkur Nizomning 4-bandii).

Agar nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza pochta orqali yuborilsa hamda barcha zarur hujjatlar taqdim etilsa, ariza jo‘natilgan joyning pochta shtempelida ko‘rsatilgan sana nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda qanday hujjatlarni qo‘sishma ravishda taqdim etish kerakligi ariza beruvchiga ma’lum qilinadi. Agar bu hujjatlar qo‘sishma hujjatlarni taqdim etish zarurligi to‘g‘risida bildirish olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, nafaqa tayinlash to‘g‘risida ariza qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilgandan keyin 10 kundan kechikmay ko‘rib chiqiladi.

Nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat qiluvchi nafaqa tayinlashni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organiga shikoyat qilishi mumkin, javobdan qoniqmagan taqdirda esa sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Tayinlangan, biroq oluvchi tomonidan o‘z vaqtida talab etib olinmagan nafaqa summasi nafaqa olish uchun murojaat qilingandan oldingi o‘tgan vaqt uchun ko‘pi bilan uch yilga to‘lanadi.

Nafaqa tayinlagan yoki nafaqa to‘layotgan organning aybi bilan o‘z vaqtida olinmagan nafaqa summasi o‘tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to‘lanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan holda nafaqanining 12 oyga tegishli bo‘lgan

summasi bir yo‘la to‘lanadi, qolgan qismlari esa har oyda nafaqaning joriy qismiga qo‘shimcha tarzda oylik nafaqadan oshmaydigan teng ulushlarda to‘lanadi.

Tayinlangan nafaqa oilaning nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan son tarkibi o‘zgargan;

ish haqining eng kam miqdori o‘zgargan;

rayon koeffitsienti belgilangan (bekor qilingan) yoki uning miqdori o‘zgargan;

aholi daromadlari indeksatsiya qilingan hollarda qayta hisoblab chiqiladi.

Nafaqalarni to‘lash har oyda ijtimoiy ta’minot bo‘limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq nafaqa to‘lanadigan oydan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Ishonchnoma bo‘yicha nafaqa davlat pensiyalarini ishonchnoma bo‘yicha to‘lash uchun belgilangan tartibda to‘lanadi.

Nafaqa oluvchi O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ko‘chib ketganda nafaqa to‘lash to‘xtatiladi

Bolalikdan nogironlar (nogiron bolalar)ga nafaqlar tayinlash. Bolalikdan nogironlarga nafaqa tayinlash va to‘lash Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 apreldagi 107-sonli ""Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi O‘zbekistorn Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida" qarori bilan nazarda tutilgan⁷².

Har oylik nafaqalarni olish huquqiga Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan bolalikdan I yoki II guruh nogironlari deb tan olingan ish stajiga ega bo‘lmagan 16 yoshdan katta bo‘lgan shaxslar, shuningdek, Tibbiy maslahat komissiyasining xulosasiga ko‘ra nogiron deb topilgan 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalar nafaqa olish huquqini beruvchi tibbiy ma’lumotlar⁷³

⁷² "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. 2011., 14-сон, 142-модда.

⁷³ Карап: "16 ёшгача бўлган болаларни ногирон деб топиши хаёида тиббий хулоса бериш тартиби тўғрисидаги Низом". "Ўзбекистон Республикаси қонун жатлари тўплами", 2009 йил, 38-сон, 419-модда.

mavjud bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar

Nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza bolalikdan I yoki II guruh nogironi bo‘lgan tomonidan yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limiga beriladi.

Mehnatga layoqatsiz deb topilgan I yoki II guruh bolalikdan nogironga, shuningdek nogiron bolaga nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi ariza ota-onalardan biri, vasiy tomonidan yashash joyi bo‘yicha beriladi.

Vasiy ariza bilan murojaat qilgan hollarda vasiylik organining vasiy qilib tayinlash to‘g‘risidagi qarorining bir nusxasi ilova qilinadi.

Ijtimoiy ta’minot bo‘limi I yoki II guruh bolalikdan nogironning arizasiga ular tomonidan tibbiy Mehnat-ekspert komissiyasidan olingan tekshirish dalolatnomasidan ko‘chirmani ilova qiladi.

Nogiron bolaga nafaqa tayinlash chog‘ida sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan belgilangan tartibda beriladigan tibbiy xulosa taqdim etiladi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda qanday hujjatlarni qo‘srimcha ravishda taqdim etish kerakligi ariza beruvchiga ma’lum qilinadi. Agar bu hujjatlar qo‘srimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to‘g‘risida bildirish olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, nafaqa tayinlash to‘g‘risida ariza qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to‘g‘risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilgandan keyin 10 kundan kechikmay ko‘rib chiqiladi.

Nafaqa murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

I va II guruh bolalikdan nogironlarga nafaqa nogironlikning butun davriga tayinlanadi. Nogiron bolalarga nafaqa tibbiy xulosada belgilangan muddatga tayinlanadi.

Nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogironning, yoxud nafaqa tayinlangan nogiron bolalarning ota-onalari yashaydigan joy bo‘yicha tuman (shahar) ijtimoiy

ta'minot bo'limi tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Vasiylarga nafaqa ularning yashash joylari bo'yicha to'lanadi.

Nafaqalarni to'lash har oyda ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq nafaqa to'lanadigan oydan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Ishonchnoma bo'yicha nafaqa davlat pensiyalarini ishonchnoma bo'yicha to'lash uchun belgilangan tartibda to'lanadi.

I yoki II guruh bolalikdan nogiron yoxud nogiron bola tomonidan nogironlikni qayta tekshirishdan o'tkazish muddati kechiktirib yuborilganda nafaqa nogironlarga davlat pensiyalari tayinlash uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi

Nafaqa to'lash to'xtatilishi yoki qayta tiklanishiga olib kelgan boshqa holatlar (I va II guruh bolalikdan nogiron yoki nogiron bola internat-uyga to'liq davlat ta'minotiga o'tkazilganda yoki undan qaytarib yuborilganda va Shu kabilar) paydo bo'lganda nafaqa to'lash shu holat paydo bo'lган oydan keyingi oyning 1 kunidan boshlab to'xtatiladi yoki tiklanadi.

Tayinlangan, biroq oluvchi tomonidan o'z vaqtida talab yetib olinmagan nafaqa summasi nafaqa olish uchun murojaat qilingandan oldingi o'tgan vaqt uchun ko'pi bilan uch yilga to'lanadi.

Nafaqa tayinlagan yoki nafaqa to'layotgan organning aybi bilan o'z vaqtida olinmagan nafaqa summasi o'tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan holda nafaqaning 12 oyga tegishli bo'lган summasi bir yo'la to'lanadi, qolgan qismlari esa har oyda nafaqaning joriy qismiga qo'shimcha tarzda oylik nafaqadan oshmaydigan teng ulushlarda to'lanadi.

Tayinlangan nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogironga u olayotgan ish haqi, stipendiya, aliment yoki daromadlarning boshqa turlaridan qat'i nazar to'lanadi.

Nogiron bolaga tayinlangan nafaqa boshqa nafaqalar olinishidan qat'i nazar to'lanadi.

Tayinlangan nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogiron yoki nafaqa

tayinlangan nogiron bola to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan vaqt uchun to‘lanmaydi.

Leprozoriylarda bo‘lgan I va II guruh bolalikdan nogironlarga, Shuningdek nogiron bolaga nafaqa leprozoriylarda bo‘lgan vaqt uchun to‘lanadi.

Fuqarolarga beriladigan boshqa turdagি nafaqalar

Fuqarolarga qonun hujjatlariga ko‘ra boshqa bir qator nafaqalarning ham to‘lanishi nazarda tutilgan. Ular ijtimoiy ta’minot huquqi mavzusi doirasiga kirmasa-da, ammo aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning, muayyan voqeahodisalar bilan bog‘liq tarzda yuz bergan noqulay sharoitlarda ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashning muhim shakllaridan hisoblanadi va ushbu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur nafaqa turlarini ham qisqacha ko‘rib o‘tish, ularga umumiy tarzda bo‘lsa-da, ham tavsiyalab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunday qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) Ishsizlik nafaqasi;
- 2) Ishdan bo‘shash paytida beriladigan nafaqa;
- 3) Yosh oilalarga beriladigan moddiy yordam;
- 4) Ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar tufayli halok bo‘lgan yoki sog‘lig‘iga shikast etganda bir yo‘la beriladigan .

Ishsizlik nafaqasi. O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 1 maydagi «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi qonunining 29-moddasiga ko‘ra tuman (shahar) mehnat bo‘limlari tomonidan belgilangan tartibda ishsiz shaxs deb e’tirof etilgan fuqarolarga ishsizlik Nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqaning miqdori va to‘lanishininng eng uzoq muddati ham «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi qonunda belgilab qo‘yilgan.

Avval ishlagan, ishidan va ish haqi (mehnat daromadi)dan mahrum bo‘lgan shaxslarga ular ishlagan davridagi ish haqining ellik foizi miqdorida, ammo eng kam oylik ish haqidan kam bo‘limgan hamda nafaqa ni hisoblash paytida O‘zbekiston Respublikasida tarkib topgan o‘rtacha ish haqidan ortiq bo‘limgan miqdorda ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

xarbiy xizmatdan, ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmatidan, boshqa harbiy organlardagi harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar avval ishlagan bo'lsalar, ish haqlarining 50 foizi miqdorida, avval ishlamagan shaxslarga ishsizlik nafaqasi eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida tayinlanadi.

Birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lган shaxslarga eng kam oylik ish haqining 75 foizi miqdorida ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Ishsizlik nafaqasi birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga bir kalendar yil davomida 13 haftagacha, avval ishlagan shaxslarga esa yil davomida 26 haftagacha bo'lган muddat davomida to'lanishi mumkin.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga ishsizlik nafaqasini tayinlash va to'lash tartiblari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 23 noyabrda ro'yxatga olingan «Ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlashga ko'maklaShuvchi davlat jamg'armasi mablag'laridan ajratiladigan moddiy yordam ko'rsatish tartibi, miqdori va shartlari to'g'risida»gi nizomda ko'rsatib qo'yilgan.

Ishdan bo'shatilayotgan xodimlarga beriladigan nafaqa. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra muayyan sabablar bilan ishdan bo'shatilayotgan shaxslarga ishdan bo'shatilayotganlarida bunday berilishi belgilangan.

Mehnat kodeksining 89-moddasi 4-qismiga ko'ra xodim yangi mehnat shartlari asosida ishlashdan bosh tortganligi tufayli, 100-modda 2-qismining 1 (shtatlar qisqarishi, korxonaning tugatilishi), 2 (xodim egallab turgan vazifa ishga noloyiq bo'lib qolishi) 5 (o'rindoshlik bo'yicha ishlayotgan shaxs boshqa doimiy xodim ishga qabul qilinishi tufayli ishdan bo'shatilishi), 6 (korxona mulkdori almashganligi tufayli korxona rahbari, o'rinbosarlari, bosh buxgalterining ishdan bo'shatilishi)-bandlari bilan ish beruvchi tashabbusiga ko'ra ishdan bo'shatilgan shaxslarga Mehnat kodeksining 109-moddasiga binoan o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lмаган miqdorda ishdan bo'shatish Nafaqasi beriladi.

Yosh oilalarga beriladigan moddiy yordam. O'zbekiston Respublikasi

Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 7 mayda davlat ro‘yxatiga olingan «Moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan yosh oilalarga ko‘rsatiladigan mablag‘larni tashkil toptirish va sarflash tartibi to‘g‘risida»gi nizom asosida ko‘rsatiladi.

Nazorat savollari:

1. Nafaqa tushunchasiga tarif bering.
2. Nafaqalarning qanday turlari mavjud ?
3. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi nafaqalari haqida so‘zlang.
4. Ijtimoiy nafaqalarning qanday turlari bor ?
5. Nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi qanday ?
6. Fuqarolar yig‘ini tomonidan tayinlanadigan nafaqalar haqida so‘zlab bering.

Tayanch so‘z va iboralar

Nafaqa. Nafaqaga bo‘lgan huquq. Davlat ijtimoiy sug‘urtasi nafaqalari. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlsh nafaqasi. Ijtimoiy nafaqalar. Ijtimoiy nafaqa olishga haqli shaxslar. Ijtimoiy nafaqalarni tayinlovchi va to‘lovchi organlar.

Glossariylar.

Nafaqa- ijtimoiy ta’midot huquqiga oid kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari, davlat byudjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat bo‘lib, pensiyalardan farq qiladi va odatda yordamchi xususiyatga ega bo‘ladi hamda fuqaro turmush kechirishning asosiy manbai bo‘lib hisoblanmaydi. Pensiyalarga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar - pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan va tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik paytida beriladigan nafaqa turli sabablar bilan (kasalligi, yosh bolalar yoki boshqa bemor oila a’zolarini parvarishlash va boshqalar) tufayli io‘lash va ish haqi olish imkoniyatidan maxrum bo‘lib qolgan xodimlar va ularning oila a’zolarini moddiy qo‘llab-quvvatlashning muhim shakli sanaladi.

Ishlayotgan ayollarga 70 kalendar kundan iborat **homiladorlik ta’tili** va

bola tug‘ilgach 56 kalendar kun (egizak bola tug‘ilsa yoki tug‘ish og‘ir kechgan hollarda 70 kalendar kun) miqdorida **homiladorlik va tug‘ish taxtili** beriladi. Ushbu ta’til davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanib qolinadi hamda ularga ushbu davr uchun davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobdan nafaqa beriladi.

Bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi. Ish haqiga koeffitsient qo‘llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsientlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Mavzuni o‘zlashtirishga doir vaziyatli masalalar

1. Fuqaro Xalilova bolasi tug‘ilganidan so‘ng 6 oy o‘tib fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organiga bolani parvarishlash nafaqasini tayinlashni so‘rab murojaat etdi. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organi bola tug‘ilganidan olti oy o‘tib ketganligini asos qilib mazkur nafaqani tayinlamadi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organi harakatlari to‘g‘rimi? Ishlamayotgan ayollarga bolani parvarishlash nafaqasi qachondan boshlab to‘lanadi?

2. Fuqaro Iskandarova ishga kirib olti oy ishlagandanidan keyin homiladorligi haqida tibbiy malumotnomasi olib keldi. Ammo korxona rahbari ushbu fuqaroga hali bir yil ishlamaganligi uchun homiladorlik nafaqasi tayinlanmasligini malum qildi.

Korxona rahbarining xatti–harakatlariga huquqiy baho bering. Homiladorlik nafaqasi qachondan boshlab qancha muddatga to‘lanadi?

3. Fuqaro Mamajonov Kimyo-texnologiya institutida ikkinchi kurs magistraturada o‘qiydi. Ayni paytda Shu institutda yarim stavkada laborant vazifasida ham ishlaydi.

Fuqaro Mamajonov communal to‘lovlar o‘rniga beriladigan kompensatsiya pulini olishga haqlimi?

4. Korxona xodimasi Allaeva boshqarma boshlig‘iga murojaat qilib, unga homiladorlik tatili nafaqasi to‘lanmayotganligini, buning uchun ushbu xodim homiladorlik tatiliga chiqqan bo‘lsa-da, ishlayotganligi va ish haqi olayotganligi asos sifatida ko‘rsatilmoqda. Fuqaro Allaeva ham ish haqi, ham nafaqa pulini to‘lashlarini so‘radi.

Fuqaro Allaeva murojaati qanoatlantiriladimi? Homila-dorlik tatiliga chiqqan xodim ishlayotgan bo‘lsa ijtimoiy taminot sohasida unga qanday imtiyozlar berilishi mumkin?

5. Fuqaro Xayriddinova o‘zi ishlagan korxona boshlig‘iga bola parvarishlash nafaqasini yana bir yilga uzaytirib berishlarini va hozirda oilasining moddiy ahvoli yaxshi emasligini inobatga olib, uchinchi yil uchun ham nafaqa to‘lashlarini so‘rab ariza bilan murojaat etdi. Biroq korxona boshlig‘i faqat bola ikki yoshga to‘lgungacha bunday nafaqa turini olish mumkinligini va xodimni tezda ishga chiqishi lozimligi aytdi.

Korxona boshlig‘ining harakatlariga huquqiy baho bering. Ishlayotgan onalarga bola parvarishlash nafaqasi qancha muddatga, kim tomonidan tayinlanadi?

Testlar.

1.Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi nafaqalarning qaysi turiga mansub?

- A)*davlat ijtimoiy nafaqalariga;
- B)byudjet xisobidan to‘lanadigan ijtimoiy nafaqalarga;
- C)mehnat munosabatiga oid nafaqalarga;
- D)ijtimoiy nafaqalarga

2.Mast holda bo‘lganlik tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yuz bergenida nafaqa:

- A)* to‘lanmaydi.
- B)minimal oylik ish xaqi miqdorida to‘lanadi
- C)o‘rtacha oylik ish haqi miqdorida to‘lanadi;
- D)ish haqining 30 foizi miqdorida to‘lanadi;

3.Mehnat stajiga ega bo‘limgan yolg‘iz qarilik nafaqasi:

- A) * Prezident Farmoniga asosan har oylik ish haqi oshganda belgilanadigan summada to‘lanadi
- B) o‘rtacha oylik ish haqi miqdorida to‘lanadi;
- C)eng kam oylik ish haqi miqdorida to‘lanadi;
- D)o‘rtacha oylik ish haqining 50 foizi miqdorida to‘lanadi;

4.Ishlayotgan onalarga farzandi ikki yoshga to‘lgunga qadar beriladigan nafaqaning miqdori qancha?

- A) * eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida;
- B)eng kam ish haqining bir baravari miqdorida;

S)eng kam ish haqining uch baravari miqdorida;

D)eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida.

5.Vaqtincha mexnatga qobiliyatsizlik nafaqasi nafaqalarning qaysi turiga mansub:

A)* ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan nafaqalarga

B)Respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan ijti-moiy nafaqalarga

S)mehnat munosabatlariga oid nafaqalarga

D)Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan ijtimoiy nafaqalarga

6.Quydagi shaxslardan qaysi birlari kasal bo‘lgan taqdirda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasini 100 %miqdorda oladi

A)* uch nafar 16 yoshga to‘lmagan farzandi bor ayollar

B)1-2 guruh nogironlari

S)yolg‘iz qariyalar

D)5 yilgacha mehnat staji bor fuqarolar

7.III- guruhi nogironi pensiyasining tayanch miqdorini toping?

A)* o‘rtacha oylik ish haqisining 30 foizi;

B)eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

S)eng kam pensiya miqdorining 30 foizi;

D)Eng kam oylik ish xaqining 50 foizi

8. II guruhi nogironi eng kam pensiyasining miqdori:

A) * eng kam oylik ish haqi miqdorida

B)50000 so‘m miqdorida;

S)eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

D)18600 so‘m miqdorida

9.Ishlayotgan pensionerlarga nogironlik pensiyalarini to‘lash qancha miqdorda amalga oshiriladi?

A) *100 foiz; B)50 foiz; S)75 foiz D)30 foiz

8- mavzu. Xayr-exson va muruvvat yordami ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish manbai.

Reja:

1. Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam tushunchasi, zarurligi va ularning tasnifi
2. Yolg'iz qariyalar, yolg'iz nogironlar va ota-onalar parvarishidan mahrum bo'lgan bolalarni davlat ta'minotiga olinishining mohiyati.
3. Pensioner va nogironlarni sanatoriy va kurortlarda davolash.
4. Nogironlarga protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari berish.
5. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar

1. Aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam tushunchasi, zarurligi va ularning tasnifi

Aholiga beriladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'naliшlaridan biri - ularga natural shakkardahamda turli ijtimoiy imtiyoz va engillilar tarzida yordamlar ko'rsatilishidan iborat. Ijtimoiy yordam ko'rsatish shallari hilma-hil ko'rinishlarda bo'lib, mohiyat jihatdan davlatimiz tomonidan amalga oshirib kelinayotgan manzilli, ehtiyojmandlarga ko'rsatiladigan aniq ijtimoiy himoyani amalda ro'yobga chiqarilishini anglatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi paytda aholining muhtoj qatlamlari o'nlab turdag'i ijtimoiy yordamlardan foydalanmoqdalar, ularga turli ijtimoiy imtiyoz va engiliklar berilmoqda, ularning barchasi ijtimoiy himoga muxtoj shaxslar va oilalarni moddiy-turmush sharoitni yuksaltirish, ta'minlanganlik darajasini oshirishga qaratilgandir. Bunday yordamdan foydalanuvchi fuqarolar orasida qariyalar, yosh bolalar, bolali oilalar, nogironlar yetakchi o'rinni tutmoqda.

Aholining muhtoj tabaqalariga ko'rsatiladigan yordamlarni aniq tavsiflash va to'g'ri tasniflash, har bir ijtimoiy yordam ko'rsatish shaklini, mazmun-mohiyatini, maqsad-vazifasini, roli-o'rnnini aniq tasavvur etish bunday yordamni ko'rsatish bilan bevosita shug'ullanayotgan shaxslar uchun, bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis-kadrlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday yordamlarning siyosiy mohiyati va huquqiy asoslaridan yaxshi xabardor bo'lish hamda ularni to'g'ri tushunib etish uni o'z vaqtida, to'la hajmda tegishli shaxslarga yetkazilishini

ta'minlaydi, ijtimoiy adolat va qonunchilik tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy yordamdan foydalanishga haqli bo'lgan shaxslar toifalari xilma-xil, doirasi juda keng bo'lib, ular qatoriga qariyalar, nogironlar, boquvchisiz qolgan fuqarolardan tashqari, yolg'iz keksa va yolg'iz nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, maktab o'quvchilari, urush qatnashchilari va boshqa shaxslar kiradilar. Ijtimoiy himoyaning muayyan shakli va uni ko'rsatishga taalluqli maxsus normativ huquqiy hujjatning bevosita o'zida bunday yordam olishga haqli shaxslar doirasi, yordam ko'rsatishni amalga oshiruvchi davlat organi yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, yordam ko'rsatish shartlari hamda tartiblari belgilab qo'yiladi.

Aholining ehtiyojmand qatlamlariga beriladigan ijtimoiy yordam shakllari ham rang-barang ko'rinishlarga ega va ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) qariyalar, nogironlar va bolalarni to'liq davlat ta'minotiga olish; ularni maxsus tashkil etilgan mehribonlik, muruvvat va sahovat uylarida yashashlarini ta'minlash;
- 2) qarovsiz qolgan yolg'iz qariyalar hamda nogironlarga oziq ovqat maxsulotlari bilan natural moddiy yordam ko'rsatish, maishiy va boshqa natural xizmatlarni bepul amalga oshirish;
- 3) qariyalar, nogironlar va muayyan kasalga chalingan shaxslarga reabilitatsiya maqsadlarida sanatoriy-kurort xizmatlarini ko'rsatish;
- 4) nogiron fuqarolarga protez-ortopediya, harakatlanish vositalari berish va ubilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish;
- 5) maktab yoshidagi bolali oilalarga moddiy va boshqa yordamlar ko'rsatish;
- 6) fuqarolarning muayyan toifalariga turar joy-maishiy, transport-aloqa, soliq, tibbiy-farmatsevtika va boshqa sohalarda imtiyozlar berish;
- 7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdag'i ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish.

2. Yolg‘iz qariyalar, yolg‘iz nogironlar va ota-onas parvarishidan mahrum bo‘lgan bolalarni davlat ta’minotiga olinishining mohiyati.

Yolg‘iz qariyalar, kimsasiz nogironlar, yetim bolalar haqida amalda g‘amxo‘rlik qilish ahvoliga qarab jamiyatning, uning a’zolarining, davlatning madaniy hamda ma’naviy-axloqiy saviyasiga baho beriladi va ushbu ko‘rsatkichlar insonparvarlik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ana shu tamoyillarga amal qilingani holda qariyalar, nogironlar, etim-esirlar haqida alohida g‘amxo‘rlik qilib kelinmoqda. 2002 yilni «Qariyalarni qadrlash yili», 2007 yilni "Ijtimoiy himoya yili", 2010 yilni barkamol avlod yili" deb e’lon qilinishi, avvalgi yillarning nogironlar, ayollar, bolalarga, qishloq ahlini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlanganligi hamda shu munosabat bilan zarur davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinayotganligi davlatimiz va jamiyatimizda inson va uning manfaatlari oldingi o‘rinlarda turishini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ko‘plab «Saxovat uylari», «Mehribonlik uylari», «Muruvvat uylari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda va ularda bir necha o‘n minglab nochor fuqarolar davlat va jamiyat mehr-muruvvatidan bahramand bo‘lmoqdalar.

Yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida davlat ta’minotiga olish. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 30 iyulda 1648-son bilan ro‘yxatga olingan "Yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida QOIDALAR⁷⁴ga ko‘ra pensiya yoshiga etgan, alohida uyda, xonadonda, yotoqxonada yashayotgan va farzandlari

⁷⁴ "Ўзбекистон Республикаси ёнун іужжатлари тўплами", 2008 йил, 35-36-сон, 353-модда.

(shu jumladan, asrab olingan farzandlari), eri (xotini) bo‘lmagan hamda qonun hujjatlariga muvofiq homiylik belgilanmagan yolg‘iz keksalar, pensionerlar va I yoki II guruh nogironlari hamda yoshidan qat’i nazar, uzlusiz davom etuvchi ruhiy xastaligi oqibatida mehnatga layoqatsiz, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan I yoki II guruh nogironlari farzandlari (shu jumladan, asrab olingan farzandlari), eri (xotini) bo‘lishi, qonun hujjatlariga muvofiq vasiylik yoki homiylik belgilanishidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga joylashtirilishi mumkin.

Yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish uchun vazirlik huzurida Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, "Saxovat" va "Muruvvat" uylariga rasmiylashtirish bo‘yicha Maxsus komissiya tashkil etiladi.

"Saxovat" uyiga rasmiylashtiriladigan yolg‘iz keksa, pensioner va I va II guruh nogironining o‘zining turar manzilidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta’milot bo‘limi boshlig‘i nomiga uni "Saxovat" uyiga rasmiylashtirishni so‘rab yozgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

"Muruvvat" uylariga rasmiylashtiriladigan 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalar uchun ota-onalari tomonidan farzandini bolalar "Muruvvat" uyiga rasmiylashtirishni so‘rab yozilgan ariza asos bo‘ladi.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan ruhiy kasallikdan nogironlar uchun davlatning vakolatli idorasi (vasiylik yoki homiylik tayinlovchi organ) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza asos bo‘ladi.

18 yoshdan yuqori bo‘lgan ruhiy kasallikdan I va II guruh nogironlari uchun davlatning vakolatli idorasi (sud qarori bilan) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza asos bo‘ladi.

Bulardan tashqari quyidagi hujjatlar ham talab etilishi lozim:

- a). Xomiylik yoki vasiylik to‘g‘risidagi hujjat;

b). Yolg'iz keksa, pensioner va nogironning pasporti (asli va pasportning fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan va uning ro'yxatga qo'yilganligi qayd etilgan varag'i nusxasi), 16 yoshgacha bolalar uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi asli va nusxasi, nogiron bolalar ota va onasi pasportining fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan va uning ro'yxatga qo'yilganligi qayd etilgan varag'i nusxasi, pensiya guvohnomasi.

v). Nogironlik haqida Tibbiy mehnat ekspert komissiyasi ma'lumotnomasi (nogiron uchun), 16 yoshgacha bolalar uchun Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi.

g). Ambulator kartasidan yoki kasallik tarixidan ko'chirma (albatta qon va siydk tahlili, qonning Vasserman reaksiyasi va Avstraliya antigeniga tahlili, ko'krak qafasi flyurografiysi, bolalar uchun og'iz-burun bo'shlig'ining bakteriologik tahlili (Lyoffler surtmasi)).

d). Ruhiy-asab kasalliklari dispanseri Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi.

e). Sil kasalliklari dispanseri xulosasi.

j). Onkologik dispanser xulosasi.

z). Teri-tanosil kasalliklari dispanseri xulosasi.

i). Yolg'iz keksa, pensioner va nogironning 2 ta fotosurati (6x4 hajmda).

k). Turar joyidan ma'lumotnomi.

l). Texnik inventarizatsiyalash byurosi (BTI) tomonidan yolg'iz keksa, pensioner va nogironning uy-joyi to'g'risidagi ma'lumotnomi (14 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar bundan mustasno).

m). Yolg'iz keksa, pensioner va nogironning pensiyasi (nafaqasi) to'g'risida ma'lumotnomi.

n). Yolg'iz keksa, pensioner yoki nogironning moddiy-maishiy ahvoli to'g'risidagi dalolatnomi (mazkur Qoidalarning 3-ilovasi).

o) "Saxovat" uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolg'izligini tasdiqllovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yig'ini komissiyasi dalolatnomasi.

p). "Saxovat" uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolg'izligini tasdiqllovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yig'ini komissiyasi yig'ilishi

dalolatnomasi asosida tuman (shahar) hokimi tavsiya xati yoki yolg‘iz keksa, pensioner va nogironning yolg‘izlar ro‘yxatiga olinganligi to‘g‘risida tuman (shahar) hokimi qarori.

Ota - ona parvarishi va ta’minotidan maxrum bo‘lib qolgan voyaga etmagan bolalarni, yolg‘iz keksalar, yolg‘iz nogironlarni Mehribonlik, Sahovat va Muruvvat uylarida moddiy ta’minalash, ularga ijtimoiy hizmatlar ko‘rsatish normalari va tartiblari ushbu muassasalar haqida tasdiqlangan Nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Oilaviy bolalar uylari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 31 iyuldagagi 158-sон qarori bilane tasdiqlangan NIZOM⁷⁵ ga ko‘ra ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, o‘qitish, sog‘lomlashtirish, aqliy, psixologik va jismoniy rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirish va muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular uchun oiladagiga yaqin zarur sharoitlar vujudga keltirish oilaviy bolalar uyining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi tuman (shahar) hokimining qarori bo‘yicha tashkil etiladi, qayta tashkil qilinadi va tugatiladi. Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotinning tegishli arizasi, vasiylik va homiylik organining, tuman va shaharlar hokimliklari huzuridagi balog‘atga etmaganlar bilan ishlash komissiyasining (keyingi o‘rinlarda balog‘atga etmaganlar bilan ishlash komissiyasi deb ataladi) er-xotinning tarbiyalovchi ota-onalar bo‘lishi va bolalarni tarbiyalash uchun olishi mumkinligi to‘g‘risidagi xulosasi tuman (shahar) hokimi qarori qabul qilinishi uchun asos hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi muassasa shaklida tashkil etiladi va tegishli tuman (shahar) hokimligida yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotin o‘zining yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga ariza bilan murojaat qilishadi.

Arizani topshirish vaqtida er-xotinning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko‘rsatiladi.

Agar ushbu Nizomda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa,

⁷⁵ Каранг: "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2007 йил, 31-32-сон, 318-модда
210

O‘zbekiston Respublikasining nikohdan o‘tgan, 35 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan fuqarolari tarbiyalovchi ota-onasi bo‘lishlari mumkin.

Quyidagi shaxslar tarbiyalovchi ota-onasi bo‘lishlari mumkin emas:

tarbiyalashga olinayotgan bolalar bilan qarindoshligi bo‘lganlar;

belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga layoqatliligi cheklangan deb e’tirof etilganlar;

ota-onalik huquqlaridan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

o‘zlariga yuklangan majburiyatlarni zarur darajada bajarmaganlik uchun vasiylik (homiylik) majburiyatidan chetlashtirilganlar;

agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomonidan bekor qilingan bo‘lsa, sobiq farzandlikka olganlar;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan kasalliklar ro‘yxatiga muvofiq bolalarni tarbiyalashga olishi taqiqlanadigan kasalligi mavjud bo‘lganlar;

qasddan qilgan jinoyati uchun sudlanganlar.

Bolalarni oilaviy bolalar uyiga tarbiyalash uchun berish, tarbiyalovchi ota-onalar va tarbiyalanuvchi bolalarning huquq va majburiyatları, oilaviy bolalar uyi ta’minoti va uni moddiy-texnik ta’minlash normalari va tartiblari hamda boshqa masalalr yuqorida qayd etilgan Nizomga muvofiq belgilanadi.

3. Pensioner va nogironlarni sanatoriy va kurortlarda davolash

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlarga yuborish orqali davolash, salomatliklarini muntazam nazorat qilib turish - ularga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordamning asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 29 avgustdagи «Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi qonuning 21-22 - moddalarida hamda 2008 yil 11 iyulda yangi taxrirda qabul qilingan "O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida" (yangi tahriri) gi qonunga muvofiq pensioner va nogiron bo‘lib qolgan fuqarolar zarur tibbiy-ijtimoiy yordamni olish huquqiga, shu jumladan sanatoriy va dam olish uylarida sog‘lomlashtirish xizmatidan

foydalanimishga haqli ekanliklari ko'rsatib qo'yilgan.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning maqsadi nogironlarga to'laqonli turmush kechirish hamda o'z huquqlari va potensial imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkonini beruvchi ijtimoiy maqomini, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatishga va kasbiy faoliyatning har xil turlariga doir qobiliyatlarini tiklashdan iboratdir

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlar, dam olish uylariga yuborish asoslari, muddatlari, tartiblari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005 yil 6 iyulda 1489-son bilan ro'yxatga olingan "Nogironlar va pensionerlarni sanatoriya-kurort sihatgoh yo'llanmalari bilan bepul ta'minlash tartibi to'g'risida Yo'riqnomalar" belgilangan bo'lib, unga ko'ra⁷⁶ ishlamayotgan nogironlar va pensionerlar ehtiyojmand bo'lari taqdirda belgilangan tartibda sanatoriy va kurortlarga bepul yo'llanma bilan ta'minlanadilar.

Yo'riqnomada Ikkinci jahon uriushi nogironlari hamda kinchi jahon uriushi qatnashchilari va ulraga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, 1-guruh nogironini kuzatib bora qatnashchilari va ulraga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, 1-guruh nogironini kuzatib borayotgan shaxslar, front ortidagi mehnat frontida halol hizmati va harbiy hizmati uchun sobiq SSSR davlati orden va medallari bilan taqdirlanganlar, Chernobil atom elektr stansiyasidagi falokatni bartaraf etishda qatnashgan va gogiron deb topilgpniganlar, yadro poligonlari va boshqa yadro-radiatsiya ob'ektlarila harbiy hizmatni o'tagan shaxslar. Shuningdek, bo'sh joylar bo'lgani taqdirda sanatoriy va dam olish uylariga yo'llanma yolg'iz pensionerlarga, 1va 2-guruh nogironlariga, ko'zi ojiz 1-guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxslarga, yosh bo'yicha pensiya oluvchilarga berilishi mumkin.

4. Nogironlarga protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari berish

Nogironlarni reabilitatsiya qilish, ular o'zlarini jamiyatning teng huquqli va to'laqonli a'zolari deb hiss qilishlari uchunimkon yaratish shakllaridan bir - protez-ortopediya buyumlari (sun'iy organlar) hamda reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta'minlashdan iborat.

⁷⁶ "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2005 йил, 27-сон, 196-модда

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 27 martda 1229-son bilan ro‘yhatga olingan "O‘zbekiston Respublikasining muxtoj fuqarolarni protez-ortopediya buyumlari hamda reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta’minlashtartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnomasi"⁷⁷ ga ko‘ra protez-ortopediya buyumlariga ‘xtiyojmand fuqarolar bepul (ishlab chiqarishdagi jarohat yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo‘lib qolganlarida ish beruvchi hisobidan) ta’minlanadilar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 17 iyundagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan "Sotib olingan reabilitatsiya texnik vositasi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to‘lash tartibi to‘g‘risida NIZOM"⁷⁸ga ko‘ra "O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida"gi Qonuniga muvofiq nogironlarga qonun hujjalarda belgilangan tartibda bepul berilishi kerak bo‘lgan, ammo ular o‘z hisobiga sotib olingan reabilitatsiya texnik vositasi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to‘lash tartibi nazarda tutilgan.

Yo‘riqnomasi protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya-texnika vositalari turlarini, uni berish hamda foydalanishg tartibib va muddatlarini shuningdek, ana shunday buyumlar berilishi lozim bo‘lgan nogironlar doirasini belgilab beradi.

Protez-ortopediya buyumini olish uchun nogiron shaxs qonun hujjalarda nazarda tutilgan hujjalarni Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limiga taqdim etishi lozim.

Maktab yoshidagi bolali oilalarga moddiy va boshqa yordam ko‘rsatish.Ijtimoiy yordamning bu turi avvaldan turli shakllarda (bepul tushliklar berish, o‘quv darsliklari bilan bepul ta’minlash, kiyim-kechak bilan ta’minlash va hokazo) avvaldan ham fuqarolarga ko‘rsatib kelinar edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 25 yanvardagi «Ahollining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashning 2002-2003 yillarga mo‘ljallangan dasturini amalga

⁷⁷ Ўзбекистон Республикасазазирларни, давлат қўмиталари ва идораларининг меъёрий хужжатлари Ахборотномаси. 2003., № 5-6.

⁷⁸ "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2009 йил, 25-сон, 286-модда

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilinishi bilan⁷⁹ ushbu sohada yanada ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi.

Qarorga ko‘ra 2002 yil 1 sentyabrdan boshlab kam ta’minlangan oilalarning o‘rta umumta’lim maktabalarining barcha sinflarida o‘qiyotgan o‘quvchi-bolalari bepul qishki kiyim-bosh to‘plami bilan ta’min etilishlari belgilandi.

Ushbu qarorga ko‘ra o‘rta umumta’lim maktabalarining barcha sinflarida o‘qiydigan kam ta’minlangan oilalarga mansub o‘quvchilarning 2002 yilda 75 foizi, 2003 yil 1 sentyabrdan boshlab 100 foizi bepul darsliklar bilan ta’minlanishlari nazarda tutildi.

Etim bolalar va ota-onadan qarovsiz qolgan to‘liq davlat ta’minotidagi (bolalar uylaridagi) bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ular umumta’lim maktabalarini bitirib chiqayotganlarida kiyim-bosh, poyafzal sotib olish uchun 2002 yilda eng kam ish haqining 80 barobari, 2003 yilda esa 100 barobari miqdorida bir yo‘la NAFAQA berish nazarda tutildi.

Chaqaloqlar uyidan chaqaloqlarni farzandlikka, tarbiyasiga (patronat) olgan tutingan ota-onalarga har bir chaqaloq uchun eng kam ish haqining 3 barobari miqdorida har oylik nafaqa berish belgilab qo‘yildi.

5. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar

Aholini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga turli-tuman imtiyozlar berish ko‘zda tutilgan. Bu imtiyozlar ulardan foydalanishga haqli bo‘lgan shaxslar doirasiga, imtiyoz turlari va ularning ijtimoiy mohiyatiga hamda boshqa xususiyatlariga ko‘ra guruhlarga ajratilishi mumkin. Davlat byudjeti hisobidan fuqarolarga beriladigan ijtimoiy yordamni amalga oshirish shakli sifatida ular fuqarolar kundalik turmushida muhim o‘rin tutmoqda. Shuni aytish kifoyaki, bugungi kunga kelib imtiyoz va engilliklarning umumiyligi soni yuzdan ortiq shaklda amalga oshirilmoqda.

Imtiyoz va engillik berilishi ob’ektlari ham xilma-xil bo‘lib, turar joy-kommunal xizmatlar, tibbiy xizmatlar, farmatsevtika ta’minoti, transport-aloqa xizmati, soliq va boj to‘lovlar kabilarni o‘z ichiga olgan.

⁷⁹ Қаранг: "Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати қарорлари тўплами", 2002 й., N 1, 5-модда.

Imtiyoz va engilliklar hajmi turli toifadagi fuqarolar uchun turlicha belgilangan bo‘lib, bunda uning davlat va jamiyat oldidagi xizmati, moddiyijtimoiy ahvoli va boshqa ko‘rsatkichlar e’tiborga olingan.

Imtiyozlardan foydalanish asoslari va shartlari ham turlicha bo‘lib, fuqaroning avvalgi davrdagi xizmati, avvalgi davrdagi yoki bugungi kunda bajarib kelayotgan vazifasi, oilaviy ahvoli kabilardan iborat bo‘lishi mumkin.

Imtiyoz va engilliklardan foydalanishning umumiy tartibiga ko‘ra imtiyozdan foydalanish huquqiga ega bo‘lgan fuqaro yoki oila Shunday imtiyoz yoki engillikni berishi lozim bo‘lgan davlat yoki jamoat organiga, korxona-tashkilotga yozma ariza bilan murojaat qilishi hamda imtiyozdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Imtiyozdan foydalanish huquqi bekor bo‘lganida yoki o‘zgarganida foydalanuvchi shaxs bu haqda belgilangan muddat ichida imtiyoz beruvchi organni, tegishli hollarda - boshqa organlarni xabardor qilib qo‘yishi shart.

Soxta hujjatlar asosida yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etgan holda imtiyozdan foydalanayotgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar hamda noto‘g‘ri berilgan imtiyoz tarzidagi zararlar ulardan to‘liq undirib olinadi.

Endi fuqarolarga beriladigan imtiyozlar va engilliklarning asosiy guruuhlarini qisqacha tavsif hamda tahlil etishga harakat qilamiz.

1. Tibbiy va farmatsevtika hizmatlari ko‘rsatish bilan bog‘liq imtiyozlar. Bunday imtiyozlar beriladigan fuqarolarning toifalari tegishli qonun hujjatlarining o‘zida nazarda tutib qo‘yiladi va ushbu hujjatlarda belgilangan tartibda beriladi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish va dori-darmon vositalari bilan ta'minlash yuzasidan imtiyozlar. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi qonuni⁸⁰ (qonunning 17-moddasi) hamda uning asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarga binoan beriladi⁸¹.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar MahkamasininG 1997 yil 2 dekabrdagi 532 - sonli "Davolash-profilaktika ta'minlash tizimini muassasalarini mablag' bilan takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra :ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan ayrim kasallik tutsrlariga chalingshan bemorlar turg'un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadilar (Qarorning 1-ilovsi). Bunday kasalliklar qatoriga :

1. Onkologik kasalliklar.
2. Sil kasalligi.
3. Ruhiy kasalliklar.
4. Ixtisoslashtirilgan muassasalarda giyohvandlik.
5. Moxov kasalligi.
6. Nurlanish kasalligiga chalingan bemorlar.
7. Yuqumli kasalliklar.
8. Sifilis.
9. OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS).
10. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida bemorlarning shifoxonada bo'lishi cheklangan muddatlarining tasdiqlangan standartlari bo'yicha reanimatsiya tadbirlarini va intensiv terapiyani talab etuvchi holatlar.
11. Darajasidan qat'i nazar kamqonlik kasalligiga chalingan homilador ayollar va tuqqan ayollar.
12. Endokrinologik kasalliklar kiritilgan. Pullik kasalxonalar va pullik bo'limlarda bu imtiyoz amal qilmaydi.

Shuningdek, turg'un davolash-profilaktika muassasalarida

⁸⁰ Каранг: Ўзбекистоннинг янги қонулари, №14, Т., «Адолат», 1997 йил, -Б. 40.

⁸¹ Каранг: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мақкамасининг 1994 йил 8 январдаги «Ақолини дори-дармон воситалари билан таъминлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги карори ва бошқа карорлар

kasallikning turidan qat’iy nazar ovqatlanish to‘lovidan ozod kilinadigan aholi toifalari hab belgilangan bo‘lib, ular jumlasiga (pulli kasalxonalar va bo‘limlardan chashkari) quyidagi toifadagi fuqarolar kiritilganlar:

1. Bolalikdan nogironlar.
2. Chin etimlar.
3. I va II guruh nogironlari.
4. 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar.
5. Ijtimoiy ta’minot bo‘limlarida hisobda turuvchi yolg‘iz nafaqaxo‘rlar.
6. 1941-1945 yillardagi urush yillari mehnat fronti qatnashchilari.
7. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan - nogiron shaxslar.
8. Baynalmilalchi jangchilar.
9. 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar.
10. Mudofaa ishlari bo‘limlarining yo‘llanmalari bo‘yicha 18-27 yoshli chaqiriq yoshidagilar. Yuqoida qayd etib o‘tilgan qarorning 4-ilovasida ambulatoriyada davolashda dori-darmonlar bepul beriladigan kasalliklar va shaxslar ro‘yxati ham nazarda tutilgan va ular qatoriga quyidagilar kiradi:
 1. Onkologik kasalliklar.
 2. Sil kasalligi.
 3. Moxov kasalligi.
 4. Endokrinologik kasalliklar.
 5. Ruhiy kasalliklar.
 6. OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS).
 7. Yurak klapanlarini protezlash va organlarni almashtirish bo‘yicha operatsiyalardan keyin.
 8. O‘zgalar yordamiga muhtoj yolg‘iz nafaqaxo‘rlar.
 9. 1941-1945 yillardagi urush davrida mehnat fronti qatnashchilari.
 10. 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda

ularga tenglashtirilgan shaxslar.

11. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan - nogiron shaxslar.

12. Baynalmilalchi jangchilar.

13. Yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro ob'ektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar.

2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasdan beriladigan imtiyozlar. Axolining muxtoj tabaqalarini soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod qilish yoki ularning miqdorini kamaytirish ijtimoiy himoyaga muxtoj shaxslar turmush ko'rsatkichlarini yuksaltirilida muhim ahamiyat kasb etuvchi moddiy qo'llab-quvvatlash choralaridan bo'lib sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida ana shunday imtiyoz va engilliklarning ko'pgina shakllari axolining muxtoj qatlamlari uchun nazarda tutilgandir. Bu imtiyoz va engilliklar turli soliqlar va majburiy to'lovlarini to'lash bilan bog'liq holda berilishi mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasning Soliq kodeksiga ko'ra⁸² Fuqarolarning turli toifalariga ko'pgina solilar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar berilgan va bunda ularning mehnat layoqati, yoshi, salomatligi ahvoli va boshqa jihatlari nazarga olingan.

Daromad solig'i yuzasidan imtiyozlar. Soliq solinadigan daromadga ega bo'lган jismoniy shaxslar jismoniy shaxslar daromad solig'i tshlaydilar. Soliqqa tortiladigan daromad, uni hisoblash va undirish tartibi Soliq kodeksi bilan belgilanadi.

Fuqarolarga daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar soliq solinmaydigan daromadlar loirasini belgilash, soliqdan butunlay ozod qilish yoki chegirmalar berish yo'li bilan amalga oshirliadi.

Soliq kodeksining 171-moddasga ko'ra yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi va ular soliqqa tortilishi mumkin emas:

⁸² Каранг: Ўзбекисон Республикасининг Солиқ кодекси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 й. 12-сон, 1-илова

- 1) mehnat sharoitlari noqulay bo‘lgan ishlarda band bo‘lgan xodimlarni mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho‘r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta’minlash xarajatlari;
- 2) kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan to‘lovlar, Shu jumladan a’zolik badallari hisobidan kasaba uyushmasi a’zolariga beriladigan moddiy yordam, bundan kasaba uyushmasi qo‘mitasining xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to‘lovlar mustasno;
- 3) xodimlarni ish joyiga olib kelish va qaytarib olib ketish xarajatlari;
- 4) diniy rasm-rusumlar va marosimlarni, bayram tantanalarini o‘tkazish, vakillik xarajatlari, shahar yo‘lovchilar transportida xodimlarning xizmat qatnovlari uchun foydalaniladigan yo‘l kartochkalarini olish, shuningdek yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta’minlash bilan bog‘liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlar;
- 5) xodimga xizmat vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formali kiyim-bosh berish xarajatlari yoki ularni pasaytirilgan baholarda sotish munosabati bilan qilingan xarajatlar, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ayrim toifadagi xodimlarni o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida oziq-ovqat bilan ta’minlash xarajatlari;
- 6) xodim boshqa joyga ishga o‘tkazilganda yoxud ko‘chib borganda ko‘chish,mol-mulkini ko‘chirib borish, joy ijarasi (yo‘l xarajatlari uchun beriladigan pul) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash yoki bu xarajatlarning o‘rnini qoplash xarajatlari;
- 7) xizmat safarlaridagi quyidagi kompensatsiya to‘lovleri:
tasdiqlovchi hujjatlar asosida xizmat safari joyiga borish va u yerdan qaytib kelish uchun, shu jumladan joy band qilish uchun haq to‘lashni

qo'shgan holda haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlardan. Yo'l hujjatlari bo'lmagan taqdirda, temir yo'l transportidagi (agar temir yo'l qatnovi bo'lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo'l haqi qiymati miqdorida, biroq aviachipta qiymatining 30 foizidan oshmaydigan miqdorda;

uy-joyni ijaraga olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan to'lovlardan. Yashaganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmagan taqdirda - qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida;

tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to'lovlardan;

qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida xizmat safarida bo'lingan vaqt uchun to'lanadigan kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa to'lovlardan;

8) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida xodimga to'lanadigan kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar):

doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan, shuningdek vaxta usulida ishlarni bajarishda xodimga kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar), bundan xizmat safarlari mustasno;

dala ta'minoti;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va normalar bo'yicha boshqa kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar),

9) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast etganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash bo'yicha quyidagi miqdordagi to'lovlardan:

jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lganiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlardan (voyaga etmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zararning o'rni uning ish haqi (daromadi)

miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo‘lmasan miqdorda qoplanadi);

maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo‘sishimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdoridagi to‘lovlar;

jabrlanuvchining maishiy parvarishi uchun qo‘sishimcha xarajatlar tariqasida har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdoridagi to‘lovlar;

xodimning sog‘lig‘iga shikast etkazilganligi munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida jabrlanuvchining yillik o‘rtacha ish haqi miqdoridagi to‘lovlar;

10) boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to‘lovlar:

marhumning o‘rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to‘g‘ri keladigan ulushi miqdoridagi to‘lovlar;

boquvchisi vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo‘lgan shaxslarga bir yo‘la to‘lanadigan nafaqa tariqasida marhumning o‘rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to‘lovlar;

11) talabalarning ta’lim olishi uchun, O‘zbekiston Respublikasining oliv o‘quv yurti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha pulli-kontrakt asosida o‘tkaziladigan to‘lovlar;

12) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hisobvarag‘iga muqobil xizmat shartnomasi bo‘yicha o‘tkaziladigan mablag‘lar;

13) mol-mulkni sug‘urta qilish va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug‘urta qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga to‘lanadigan sug‘urta mukofotlari. Mol-mulkni sug‘urtalash va (yoki) hayotni uzoq muddatli sug‘urtalash shartnomasi muddatidan ilgari bekor qilinganda va sug‘urtalovchi sug‘urta qilinuvchiga sug‘urta mukofotining bir qismini yoki to‘liq qaytarsa, qaytarilgan sug‘urta mukofoti miqdori jismoniy shaxsning soliq solinadigan jami daromadi tarkibiga kiritiladi;

14) yosh oilalar a'zolarining uy-joy olish uchun yuridik shaxsdan - ish beruvchidan olgan mablag'lari. Uy-joy olingan (mulk huquqi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko'rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

15) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 179-moddasiga ko'ra Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summalar:

favqulorra holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalar - to'ligicha

vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalar -eng kam ish haqining yigirma baravarigacha miqdorda;

boshqa hollarda - soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summalar, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, Shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summalar;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, Shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'limgan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summalar;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan

to‘langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko‘rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog‘liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to‘langan taqdirda, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo‘ljallangan naqd pul mablag‘lari bevosita xodimga, xodim yo‘qligida, uning oila a’zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo‘ljallangan mablag‘lar xodimning bankdagi hisobvarag‘iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga ishslash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalarini va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta’minlash markazlari ko‘magida amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, fermer xo‘jaligi boshlig‘i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo‘lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo‘la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg‘alarining qiymati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o‘rnlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo‘la beriladigan pul mukofoti;

9) sanoat mulki ob’ektlariga va seleksiya yutug‘i patentiga patent

(litsenziya) egasi bo‘lgan jismoniy shaxsning patentni (litsenziyani) ularning amal qilish muddati doirasida, lekin foydalanish boshlangan kundan e’tiboran quyida ko‘rsatilgan davrdan ko‘p bo‘lmagan muddatda sotishdan olgan daromadi summasi:

ixtiolar va seleksiya yutug‘idan - besh yil davomida;
sanoat namunasidan - uch yil davomida; foydali modeldan
- ikki yil davomida;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, Shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan qimmatli qog‘ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, shuningdek amalga oshiriladigan tadbirdorlik faoliyati doirasida olingan mol-mulkni sotishdan tushadigan daromadlar mustasno;

12) uy xo‘jaligida, shu jumladan dehqon xo‘jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo‘ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so‘yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog‘dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to‘lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to‘lovchi tomonidan unga yoki uning oila a’zolariga ajratilgan yer uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo‘lgan qiymatdagi:

xodimlar natura shaklida olgan sovg‘alar;

ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo‘lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a’zolari tomonidan olingan sovg‘alar va boshqa turlardagi yordam;

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, Shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san’at asarlarining, adabiyot va san’at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar, ixtiolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo‘rlariga (huquqiy vorislariga) to‘lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo‘yicha yantuqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar, lotereya bo‘yicha yantuqlar;

17) depozit sertifikatlari, davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek banklar va kredit uyushmalaridagi omonatlar bo‘yicha foizlar hamda yantuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo‘yicha organning xulosasi bo‘lgan taqdirda, yuridik shaxsdan - grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiy lashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo‘naltiriladigan summalari, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to‘lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga)

yo‘naltirilgan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo‘llanilganidan so‘ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o‘rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak

20) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o‘n ikki baravari miqdori doirasida to‘lanadigan ishdan bo‘shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a’zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, hayriya va ekologiya jamg‘armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to‘lovlar;

- 21) olingen alimentlar;
- 22) fuqarolarning sug‘urta tovoni sifatida oladigan summalar;
- 23) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to‘lanadigan stipendiyalar;
- 24) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to‘lash bo‘yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to‘lovleri;
- 25) davlat pensiyalar;
- 26) davlat pensiyalariga ustamalar:
 - a) I guruh urush nogironlariga - eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik foizi;
 - b) II guruh urush nogironlariga - eng kam oylik ish haqining bir yuz yigirma besh foizi;
 - v) III guruh urush nogironlariga - eng kam oylik ish haqining etmish besh foizi;
 - g) ko‘zi ojizlik bo‘yicha I guruh nogironlariga - eng kam oylik ish haqining yuz foizi;

- d) boshqa kasalliklar bo‘yicha I guruh nogironlariga - eng kam oylik ish haqining etmish besh foizi;
- e) II guruh yolg‘iz nogironlarga - eng kam oylik ish haqining ellik foizi;
- j) urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga - eng kam oylik ish haqining ellik foizi;
- z) 1941-1945 yillardagi urush davrida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga - eng kam oylik ish haqining o‘ttiz foizi;
- i) vafoti harbiy xizmat burchlarini bajarish bilan bog‘liq harbiy xizmatchilarining ota-onalari va xotinlariga (yangi nikohdan o‘tmaganlarga) -eng kam oylik ish haqining o‘ttiz foizi;
- k) O‘zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari bo‘lgan shaxslarga - xizmatlariga qarab, eng kam oylik ish haqining yuz foizdan bir yuz ellik foizigacha;

l) yoshidan qat'i nazar, imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan artistlarga - eng kam oylik ish haqining etmish besh foizi;

m) teatr-konsert tashkilotlari artistlariga va badiiy xodimlariga, o'quv muassasalarining teatr hamda musiqa san'ati ijodiy xodimlarini tayyorlash bilan band bo'lgan professor-o'qituvchilari va konsertmeysterlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxatga ko'ra - eng kam oylik ish haqining ellik foizi;

27) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, Shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlar;

28) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalar;

29) yuridik shaxslar muassisalarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga - yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

30) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalar:

yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

"Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat bankining kreditlari hisobiga qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan

foizlarni qoplash uchun yo‘naltirilganda.

Ushbu bandda ko‘rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) sanadan e’tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

31) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish uchun (o‘zining o‘qishi yoki yigirma olti yoshga to‘lmagan farzandlarining o‘qishi uchun) yo‘naltiriladigan summalar;

O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo‘naltiriladigan summalar.

Jismoniy shaxslar Soliq kodeksining 180-moddasida nazarda tutilgan quyidagi hollarda soliq solishdan to‘liq yoki qisman ozod qilinadilar: Daromad solig‘idpn quyidagi jismoniy shaxslar to‘liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdar shaxslari, ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lmasa, - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma’muriy-texnik xodimlari hamda ularning o‘zlari bilan birga yashaydigan oila a’zolari, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo‘yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko‘rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar,

agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa yoki O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - o‘z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo‘yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdori shaxslari - agar ular O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo‘yicha;

6) O‘zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o‘quv yoki sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar - xizmatni o‘tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta’minoti, pul mukofotlari va boshqa to‘lovlari summalarini bo‘yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo‘lgan xodimlari - ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo‘yicha;

8) gastrol-konsert faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo‘lgan shaxslar - ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo‘yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar daromad solig‘idan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha) ozod qilinadi:

1) "O‘zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar, urush nogironlari yoxud 1941-1945 yillardagi urush davrida yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi

oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli nogiron bo‘lib qolgan harbiy xizmatchilar jumlasidan bo‘lgan boshqa nogironlar, sobiq partizanlar jumlasidan bo‘lgan nogironlar, shuningdek pensiya ta’minoti bo‘yicha mazkur toifadagi harbiy xizmatchilarga tenglashtirilgan boshqa nogironlar. Bu imtiyozlarni berish uchun "O‘zbekiston Qahramoni" guvohnomasi, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchasi, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning orden daftarchasi, urush nogironlarining tegishli urush nogironi guvohnomasi yoxud mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoki boshqa vakolatli organning ma’lumotnomasi, boshqa nogironlarning - Nogironning imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnomasi asos bo‘ladi;

2) xizmatni harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda o‘tagan harbiy xizmatchilar, sobiq partizanlar jumlasidan bo‘lib, 1941-1945 yillardagi urush, sobiq SSSRni himoya qilish bo‘yicha boshqa jangovar operatsiyalarning qatnashchilari, 1941-1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari. Imtiyoz Urush qatnashchisining guvohnomasi asosida, 1941-1945 yillardagi urush davri mehnat frontining faxriylari va konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari -Imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma yoki mehnat va ijtimoiy ta’minot organlarining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

3) Leningrad shahrida 1941 yil 8 sentyabrdan 1944 yil 27 yanvargacha qamal davrida ishlagan fuqarolar. Imtiyoz ushbu shaxslar qamal davrida Leningrad shahri korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida ishlaganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida beriladi;

4) ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy xizmatchilari jumlasidan bo‘lib, xizmat vazifalarini bajarishda yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida nogiron bo‘lib qolganlar. Nogironning imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnomasi imtiyozlar berilishi uchun asos bo‘ladi;

5) bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II guruh

nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) o'n va undan ortiq bolasi bor ayollar. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi mazkur imtiyoz berilishi uchun asos bo'ladi;

7) sobiq SSSRni himoya qilish yoxud harbiy xizmatning boshqa vazifalarini bajarish paytida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoxud shikastlanganligi oqibatida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarining ota-onalari va rafiqalari.

Imtiyoz "Halok bo'lgan askarning bevasi (onasi, otasi)" shtampi qo'yilgan yoki pensiya guvohnomasini bergen muassasa rahbarining muhri va imzosi bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi.

Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasalar, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizligi qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoki Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi asosida beriladi. Sobiq SSSRni himoya qilish yoki harbiy xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilariga imtiyoz faqat ular yangi turmush qurmagan taqdirda beriladi

8) xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar.

9) Chernobil AESdagi avariya oqibatida jabrlanganlar. Imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish qatnashchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan, imtiyoz berilishi uchun asos bo'luchchi boshqa hujjalarni asosida

beriladi;

10) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lмаган болалари бор ўолг‘из онлар. Имтиёз гар бир бола учун Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYO) органлари томонидан тақдим етиладиган ма’лумотнома асосида берилади;

11) ikki va undan ortiq o‘n olti yoshga to‘lмаган болалари бор ва боқувчисини yo‘qotganlik учун pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz arning (xotinning) vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, bolalar tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, yangi turmush qurmaganlik hamda mehnat va ijtimoiy ta’minot organining boқuvchisini yo‘qotganlik учун pensiya olinmasligi haqidagi ma’лумотномаси тақдим етилган тақдирда берилади

12) bolaligidan nogiron bo‘lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog‘liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma’лумотномаси, birgalikda yashashga taalluqli qismida - fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining ma’лумотномаси асосида берилади.

Nazarda tutilgan imtiyozlar tegishli hujjatlar тақдим етилган тақдирда qo‘llaniladi.

Imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar kalendor yili davomida vujudga kelgan тақдирда, imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e’tiboran qo‘llaniladi.

Agar jismoniy shaxs ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan bir nechta asos bo‘yicha imtiyozlarga bo‘lgan huquqqa ega bo‘lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz берилади.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan imtiyozni qo‘llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o‘qish) joyi bo‘yicha, asosiy ish joyi bo‘lмаган тақдирда - yashash joyidagi davlat soliq xizmati органлари томонидан jami yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiya асосида soliqni hisoblab chiqarish chog‘ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo‘lgan huquq yo‘qotilgan тақдирда, jismoniy shaxs imtiyoz yo‘qotilgan paytdan e’tiboran o‘n besh kun ichida bu haqda

undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

Soliq kodeksining 290-moddasiga ko'ra yer solig'idan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqlarli, mexanizatorlari, veterinariya vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilari;

2) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

3) 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan doiradagi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatlri organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

4) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga etmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tuShuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limining malumotnomasi, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini

yo‘qotgan ko‘p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limining ma’lumotnomasi asosida beriladi;

7) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (Shu jumladan vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar). Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma’lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo‘ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

8) shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

9) ko‘chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan er uchastkalari bo‘yicha - er uchastkalari berilgan paytdan e’tiboran besh yilgacha;

10) shaxslar - ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo‘jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan er uchastkalari bo‘yicha - er uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e’tiboran ikki yil muddatga.

Davlat boji to‘lash yuzasidan imtiyozlar. Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdar shaxslar tomonidan hujjatlar bergenlik uchun olinadigan majburiy to‘lovdir.

Nazorat savollari.

1. Ijtimoiy himoyaning maqsad va vazifalari nima ?
2. Ijtimoiy himoyaning ijtimoiy ta’minotdan qanday farqlash mumkin ?
3. Ijtimoiy yordam haqida nimalarni bilasiz ?
4. Ijtimoiy yordam kimlarga ko‘rsatiladi ?
5. Qaysi idoralar tomonidan ijtimoiy yordam ko‘rsatish amalga oshiriladi ?
6. Ijtimoiy xizmat deganda nimalar nazarda tutiladi ?

Tayanch so‘z va iboralar.

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam. Ijtimoiy yordamntg turlari. Ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi davlat organlari va o‘zhi o‘zi boshsarish organlari. Ijtimoiy yordamntg natural turlari. Yolgiz keksalar va yolgiz nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish. Ota-onal parvarishi va ta’mshotisiz solgan voyaga etmagan bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish. Imtiyozlar va ularni berish. Imtiyoz berish mezonlari.

Glossariylar.

Aholiga beriladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlaridan biri - ularga natural shakllardahamda turli ijtimoiy imtiyoz va engillilar tarzida yordamlar ko‘rsatilishidan iborat. Ijtimoiy yordam ko‘rsatish shallari hilma-hil ko‘rinishlarda bo‘lib, mohiyat jihatdan davlatimiz tomonidan mamlga oshirib kelinayotgan manzilli, ehtiyojmandlarga ko‘rsatiladigan aniq ijtimoiy himoyani amalda ro‘yobga chiqarilishini anglatadi.

Ijtimoiy yordamdan foydalanishga haqli bo‘lgan shaxslar toifalari xilma-xil, doirasi juda keng bo‘lib, ular qatoriga qariyalar, nogironlar, boquvchisiz qolgan fuqarolardan tashqari, yolg‘iz keksa va yolg‘iz nogironlar, ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalar, muktab o‘quvchilari, urush qatnashchilari va boshqa shaxslar kiradilar.

"Saxovat" uyiga rasmiylashtiriladigan yolg‘iz keksa, pensioner va I va II guruh nogironining o‘zining turar manzilidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta’minot bo‘limi boshlig‘i nomiga uni "Saxovat" uyiga rasmiylashtirishni so‘rab yozgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

"Muruvvat" uylariga rasmiylashtiriladigan 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalar uchun ota-onalari tomonidan farzandini bolalar "Muruvvat" uyiga rasmiylashtirishni so‘rab yozilgan ariza asos bo‘ladi.

Oilaviy bolalar uylari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 31 iyuldagи 158-sон qarori bilane tasdiqlangan NIZOM⁸³ ga ko‘ra ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, o‘qitish, sog‘lomlashtirish, aqliy, psixologik va jismoniy rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirish va muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular uchun oiladagiga yaqin zarur sharoitlar vujudga

⁸³ Қаранг: "Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами", 2007 йил, 31-32-сон, 318-модда

keltirish oilaviy bolalar uyining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlarga yuborish orqali davolash, salomatliklarini muntazam nazorat qilib turish - ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamning asosiy tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Mavzu uchun tarqatma materiallar.

10-chizma

Pensiya tayinlovchi organlar

**Ёшга доир, ногиронлик, боқувчини йўқотганлик
пенсияларини тайинлайдилар ва тўлайдилар**

**Туман (шахар)
ижтимоий таъминот бўлимлари**

**Мудофаа вазирлиги ва ҳарбий хизмат ўталадиган
бошқа вазирлик ва идоралар (ИИВ, МХХ, Чегара
қўшинлари ва бошқалар) пенсия бошқармалари**

11-chizma

Пенсия тўловчи

**Туман (шахар) ижтимоий
таъминот бўлими (почта ёки
банк муассасаси орқали)**

**Корхона, муассаса,
ташкilotлар (ишлаб турган
пенсионерларга ўз кассалари
орқали)**

**Ҳарбий органлар (Мудофаа
вазирлиги ва бошқа ҳарбий
идоралар пенсия
бошқармалари орқали)**

Testlar.

1. Fuqarolarning jamg‘arilib boriladigan pensiyalari summasi mablag‘lari qaysi muassasada jamg‘arilib boriladi

- A)* Xalq bankida
- B)“Nuroniy” jamg‘armasida
- S)Davlvt ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasida
- D)Pensiya jamg‘armasida

2.Fuqarolarning jamg‘arilib boriladigan pensiyalari summasi qaysi mablag‘ hisobidan to‘ldirilib boriladi

- A)* xodimning oylik ish haqisining soliqqa tortilgan summasi hisobidan
- B)“Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘laridan
- S)Davlvt ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasidan
- D)Pensiya jamg‘armasidan

3.Sohta xujjatlar taqdim etib noqonuniy pensiya olgan shaxslar:

- A)*jinoiy javobgar-likka tortiladilar va noqonuniy olingan pensiya summasi sud qaroriga asosan qaytarib olinadi
- B)mulkiy javobgarlikka tortiladilar
- S)ma’muriy javob-garlikka torti-lishlari mumkin
- D)pensiya olishdan mahrum bo‘ladilar

4.Sahovat uylariga fuqarolarni qaysi organ joylashtiradi

- A)* tuman Pensiya jamg‘armasi bo‘limi;
- B)tuman maorif bo‘limi;
- S)tuman mehnat bo‘limi;
- D)Fuqarolar yig‘ini

5.Ikkinchи jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga sihatgoh va oromgohga:

- A) *1 yilda bir marta yo‘llanma beriladi;
- B)2 yilda bir marta yo‘llanma beriladi;
- S)3 yilda bir marta yo‘llanma beriladi;
- D)hozirda berilmaydi

6.Nogiron fuqarolar kommunal xizmat haqlarini to‘lashdan:

- A) * hozirda ozod qilinmaydilar;
- B)100 foiz ozod qilinadilar;
- S)50 foiz ozod qilinadilar;
- D)ularni ozod qilish tuman (shahar) hokimi qaroriga asosan belgilanadi

7.Nogironlik guruuhlarini olish uchun fuqarolar qaysi muassasaning 88 shakldagi ma’lumotnomasini taqdim etadilar?

- A) * sog‘liqni saqlash muassasalari
- B)Ijtimoiy ta’midot bo‘limlari
- S)Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyalari;
- D)Mehnat bo‘limlari

8.“Ishlovchi pensionerlarga to‘lanadigan pensiyalar to‘g‘risida”gi farmon qachon qabul qilingan

- A)*1995 yil 28-dekabr B)1995 yil 20-noyabr S)1996-yil 29-avgust
- D)1994-yil 13 may

9.Ishlayotgan pensiner kichik tibbiyat xodimiga pensiya to‘lash tartibi qanday

- A)* pensiyaning 100 foizi miqdorida
- B)pensiyaning 50 fizi miqdorida
- S)pensiyaning 2 baravari miqdorida
- D)25565 so‘m har oyga

10. Ijtimoiy ta’midot soxasida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni:

- A)* Prokuratura organlari amalga oshiradilar
- B)Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi organlari amalga oshiradilar
- S)Moliya vazirligi organlari amalga oshiradilar
- D)“Nuroniy” jamg‘armasi jamoat nazorati olib boradi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Rahbariy adabiyotlar.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. -Тошкент: Ўзбекистон, 1996. -364 б.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. -Тошкент: Ўзбекистон, 1996. -380 б.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. -Тошкент: Ўзбекистон, 1996. -366 б.
4. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. Т.4. - Т: Ўзбекистон, 1996. -394 б.
5. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т.8. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000. -525 б.
6. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. - Тошкент: Ўзбекистон, 2001. -439 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Конун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва ҳалқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7-декабрь. /Ш.М.Мирзиёев.- Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -48 б.
8. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишиланган Олий мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. -Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. 56 б.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.
- 11.Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республиксининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 22 декабрь.
- 12.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 28 декабрь “Меҳнат фаолиятини олиб бораётган пенсионерларнинг алоҳида тоифаларига қулай шароитлар яратишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ 5291-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12 декабрдаги, 2019 йилнинг 1 январдан «Фуқароларнинг пенсия таъминоти тизими самарадорлигини ошириш ва пенсионерларни ижтимоий қўллаб-куватлашни кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5597-сонли Фармони

2. O‘quv va maxsus adabiyotlar:

1. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи. Муаллифлар жамоаси. - Тошкент, ТДЮИ, 2005
2. Андреев В.С. "Право социального обеспечения" М., "Юридическая литература" 1997 й.
3. Турсунов Й. Шайимхонов З. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи. Дарслик. ТДЮИ, 2003 й.
4. М.А.Усманова, Й.Турсунов, Ш.Газиев. Аҳолини йўналтирилган ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва унинг ҳуқуқий асослари. Уқув қўлланма. Т., ТДЮИ, 2006, 158 б.
5. М.А.Усманова. Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя: фуқаролик-ҳуқуқий жиҳатлари. Т., ТДЮИ, 2006 й. 198 б.
6. Аҳмедов Д. Қ. Бозор муносабатлари шароитида давлат ижтимоий ҳимоя сиёсатининг ҳуқуқий жиҳатлари. Т., ТДЮИ, 2006 й. 209 бет.
7. М.А.Усманова. Ижтимоий таъминот ҳуқуқ. Т.:ТДЮИ.2015 йил.
Маърузалар матни.

4.Normativ – huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т., Ўзбекистон, 2018.67 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси. Т., "Адолат", 2014.
3. Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида"ги Қонуни. (Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил, № 9, 338-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси,
4. Ўзбекистон Республикасининг "Фуқароларнинг жамғарib бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида"ги қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 йил, 51-сон, 512-модда.
4. "Ҳомийлик тўғрисида" Ўзбекистон Республикасининг 02.05.2007 й. ЎРҚ-96-сонли Қонуни билан қабул қилинган //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2007 й. 5-сон, 218-модда // Биринчи марта "Ҳалқ сўзи" рўзномасида 3 май 2007 йил нашр этилган, расмий нашр этилган кундан сўнг кучга кирган // Ўзбекистон Республикаси 31.12.2008 й. ЎРҚ-197-сон Қонуни билан ўзгартиришлар киритилган //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг Ахборотномаси 2008 й. 12-сон, 640-модда
- 5." Ўзбекистон Республикасининг "Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида"ги қонуни. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2-сон, 1-модда, 2009 й., 52-сон, 554-модда).
6. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида"ги янги таҳрирдаги қонуни. "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2008 йил, 29-30-сон, 277-модда
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2007 йил 19 мартағи № ПФ-3864-сонли "Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш ва мустаҳкамлашга оид чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2008 йил 1 майдаги № ПФ

3994-сонли "Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинганинг 60 йиллигига бағишланган тадбирлар дастури тўғрисида"ги Фармони.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2009 йил 30 декабрдаги № 4161-сонли "Фуқароларнинг пенсия таъминоти тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони

9. "Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонунига ҳамда Ўзбекистон Республикасининг Мехнат кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида"ги Ўзбекистон Республикаси қонунини амалга ошириш учун зарур бўлган норматив-хуқуқий хужжатларни тасдиқлаш ҳақида (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2011 й., 14-сон, 142-модда, 37-сон, 377-модда).

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 2011-2015 йилларда ёлғиз кексалар, пенсионер ва ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилишни янада кучайтириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2011 й., 22-23-сон, 229-модда).

11. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси.

12. Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро Пакт.

13. Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро Пакт.

Internet ma'lumotlari:

1. "NORMA" Axborot huquqiy tizimi. <http://www.norma.uz>.
2. <http://Allpravo.ru>
3. <http://Internet-law.ru>
4. <http://dissertation1.narod.ru/avtoreferats1>
5. <http://www.library.by/data>